

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

# LOTIN TILI

*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
tomonidan tibbiyot oliv o'quv yurtlari uchun o'quv  
qo'llanma sifatida tavsiya qilinadi*

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent-2005

**Tuzuvchilar:** Andijon Davlat tibbiyot instituti lotin va chet tillari kafedrasi mudiri, dotsent

**L.U.Xo'jayeva**

Andijon Davlat tibbiyot instituti lotin va chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

**X.A.Zohidova**

Andijon Davlat tibbiyot instituti lotin va chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

**Z.Z.Rahmatullayeva**

**Taqrizchilar:** I Toshkent Davlat tibbiyot instituti lotin va chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi **N.I.Ovcharenko**,

Andijon Davlat tibbiyot instituti, umumiy amaliyot vrachlar tayyorlash kafedrasi mudiri, professor  
**N.S.Mamasaliyev**

L 4306020600 2005  
358-2005  
ISBN 5-89890-098-5

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

## SO'ZBOSHI

Ma'lum-ki, kasbni egallash kasb tilini o'rganish, shu bilan birga tushunchalar va ularni ifodalovchi atamalar tizimini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon tibbiy atamashunosligi tom ma'noda keng va murakkab atamalar tizimi hisoblanib, bir necha yuz ming so'z va so'z biriklamarini o'z ichiga oladi. Tibbiy va biologik atamashunoslikning o'ziga xos xususiyati ko'p asrlik «an'anaviy» lotin tilini qo'llashdadir.

Talabalarning tibbiy kasb tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun asosiy o'quv bazasi zarur. «Lotin tili va tibbiy atamalar asoslari» bo'yicha o'quv qo'llanmasi shunday baza bo'lib hisoblanadi.

Ushbu qo'llanma tibbiyot institutlarining I kurs talabalari uchun tuzilgan.

Qo'llanma 3 bo'limdan iborat:

1. Anatomik atamalar.
2. Klinik atamalar.
3. Farmatsevtik atamalar.

Har bir bo'lim qisqacha grammatik material, mustahkamlash uchun mashqlar, mustaqil ishlash uchun mashqlar, LM (leksik minimum) va kasbga oid ibora hamda maqollarni o'z ichiga oladi. Ayrim mavzular bo'yicha o'z-o'zini tekshirish uchun topshiriqlar berilgan bo'lib, ular ma'lum tushunchalarni o'zlashtirish kabi muhim o'quv-uslubiy vazifani bajaradi.

Qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalaringizni mammuniyat bilan qabul qilamiz.

## KIRISH

Lotin tili va tibbiy atamalar asoslari Siz o'quvchilar uchun yangi fandir. Shuning uchun, avval, uni nima maqsadda o'r ganiladi? Uning ko'lami va mazmuni qanday ko'rinishga ega? Nima sababdan 100 yillar mobaynida tibbiyot va biologiyada lotin tili q'llaniladi — shu to'g'rida tasavvur hosil qilib olish kerak.

### ATAMA – ILMIY TUSHUNCHА

Fan, texnika, ishlab chiqarishning har qanday sohalarida ham muvaffaqiyat bilan ish olib borish uchun mutaxassis o'sha sohaga tegishli maxsus leksikani, ya'ni atamani to'g'ri tushunishi va qo'llashi zarur.

Atamaning asosiy vazifasi (lotincha *terminus* — chegara) ilmiy tushunchani bir ma'noda aniq ifodalab berishdan iborat. Atama so'z ham (fan, to'qImagen, kasallik, appenditsit, flyurografiya), so'z birikmasi ham (ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi, gipertonik kasallik, gigiyena) bo'lishi mumkin. Atamalar kundalik turmushda ishlatiladigan adabiy tildagi so'zlardan farq qilib, ilmiy va ilmiy texnika tushunchalarini ifodalarydi. U ilmiy nazariy xulosa natijasi, ma'lum bir ilmiy nazariy parcha aksidir (bilimlar ilmiy tizimi).

### DEFINITSIYA YOKI ANIQLIK KIRITISH

Kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlardan farqli o'laroq, ilmiy tushunchaga definitsiya (lotincha — *definito*) yoki qisqacha tushuntirish qo'shimcha ravishda yoziladi. Definitsiyada ilmiy tushunchaning ba'zi bir muhim tomonlari ochib beriladi.

Maxsus lug'atlarda atamashunoslikka va ensiklopediyaga oid atamalar tushuntirishlar bilan beriladi, masalan: «Pnevmoniya — bu o'pka to'qimalarda mustaqil holda yoki biror kasallik asorati sifatida hosil bo'luvchi shamollah jarayonidir».

Ilmiy tushuncha mohiyatini bilish, bu bir tushunchani ikkinchisi bilan bog'lay bilish — fanning tushunchalar tizimida uning o'rmini belgilab berish demakdir.

## ATAMALAR, ATAMALAR TIZIMI

Ma'lum bir fan, atamashunosligi tushunchalar tizimidagi ilmiy tushunchani ifodalashda o'zaro bir-biri bilan aloqada va munosabatda turgan nomlar, so'zlar, so'z birikmalari tizimidir. Atamashunoslik lug'atning boshqa qatlamlaridan farq qilib tartibga, normaga solish predmeti hamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston Sog'ligni Saqlash vazirligi qoshida o'zbekcha tibbiy atamalarni tartibga solish bo'yicha atamashunoslik qo'mitasi ish olib bormoqda.

Atamashunoslik doimiy harakatda, unda nimadir o'zgaradi, qo'shiladi, iste'moldan chiqadi, chetlashadi. Ko'plab avvaldan tanish maxsus atamalar yangi ilmiy mazmun kasb etadi.

Atamashunoslik – bu fan, ilmiy adabiyot tilining ajralmas tarkibiy qismidir. Akademik V.X.Vasilenko fikricha «aniq bir atamashunoslikning yo'qligi fan uchun nomunosibdir». Vrachlik diplomining olinishi yosh mutaxassisning tibbiy xodim kasbiga oid bo'lgan tilni bilishi haqida guvohlik beradi.

Siz til o'rganish mobaynida yo'liqishingiz mumkin bo'lgan jiddiy obyektiv qiyinchiliklardan biri – bu tibbiy xodim professional tilining o'ziga xos xususiyatlardir. Bu eng avval yunonizm va lotinizmlarning ya'ni kelib chiqish jihatdan yunoncha va lotincha bo'lgan tildan va yashash o'rnidan qat'iy nazar har qanday mamlakat shifokori qo'llovchi professional so'zlar, nomlar, atamalardir.

Nima sababdan «o'lik til» hisoblanuvchi lotin tili rivojlanishga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda? Bu savolga javob berish uchun lotin tili tarixi va uning tibbiyot taraqqiyotidagi roli bilan umumiy holatda tanishib chiqish zarur.

## LOTIN TILI TARIXIDAN

Lotin tili (*Lingua Latina*) tillar hindiyevropa oilasining italyan guruhiga taalluqlidir. U juda qadimda paydo bo'lgan.

Avval bu tilda lotinlar – Italiya markazidagi Latsiya orolida yashovchilar (qabila-urug'), shuningdek, qadimgi Rimda yashovchilar va miloddan avvalgi I asrda Apenin yarim orolida Rimning italiya qabilalari hukmronligi ostidagi urug'lari so'zlashgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili rim regionlari bilan qadimgi madaniyat o'choqlari bo'lmish – Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va boshqalarga hamda Yevropaning o'sha davrda madaniyati kam taraqqiy etgan qabilalariga kirib boradi. Asta-sekin lotin tili territoriyasi hozirgi Ruminiya va Portugaliya yerlarini ham egallangan ulkan Rim imperiyasining hukmron tiliga aylandi. Lekin, agar Yevropaning g'arbiy qismida lotin tili hech qanday qabila tili qarshiligiga uchramay yetarli darajada tez tarqalgan bo'lsa, O'rta yer dengizi havzasida – Yunoniston, Kichik Osiyo, Misrda uzoqroq davr davomida yozma shakllangan, lotin tiliga nisbatan yuqori madaniyat

darajasini o'zida aks ettirgan tillar qarshiligidagi uchraydi. Bu regionlarda yunon va ellen yozuvi katta rol o'ynagan. Yunonlar bilan bo'lgan aloqaning boshlanishidayoq rimliklar Yunonistonning yuqori darajada rivojlangan madaniyatining ulkan ta'sirini sezganlar.

Yevropa tibbiyoti «otasi» **Buqrot** (taxm. miloddan avvalgi 460–370-yillarda) yashagan, ijod qilgan. Uning asarlarida ilmiy tibbiy atamashunoslik boshlanishi aniqlangan.

Buqrot o'z asarlarida qo'llagan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lug'atga kiritilgan. Buqrotidan so'ng qadimgi yunon tilidagi tibbiy atamashunoslikning shakllanishida Aleksandriya tibbiyot maktabidan (miloddan avvalgi IV asr) **Gerofil III** (taxm. miloddan avvalgi 330–yilda tug'ilgan), **Erozistrat** (taxm. miloddan avvalgi 330–240- yillar), keyinroq **Ruf Efesskiy** (taxm. miloddan avvalgi I asr) va o'qimishli olim, faylasuf, vrach, anatom, farmatsevt **Klavdiy Galen** (taxm. miloddan avvalgi 129- yillar) eng ko'p hissa qo'shganlar. Ular Buqrot bilan birga bo'lg'usi ilmiy tibbiy atamashunoslikka asos solganlar va uning birinchi qavatini ko'targanlar. Antik tibbiyotni, asosan yunonlar shakllantirganlar. Rim bino bo'lgandan buyon uning madaniy hayotida Yunonistonning tabiiy, ilmiy va tibbiy fanlari rol o'ynaydi. Judu ko'plab yunoncha va lotinlashgan so'zlar davrlar mobaynida lotin tiliga kirdi (*aer* – havo, *machina* – mashina, *philosophia* – falsafa, *historia* – tarix, *diaphragma* – diafragma va boshqalar). Yunon yozuvi ta'sirida lotin alifbosi 2 harfga ko'paydi (Y – ipsilon va Z – zet).

Shu bilan birga madaniyat va fan sohasida lotin tilining roli oshib bordi. Rim olimlari va hakimlarining tabiiy va tibbiy fan masalalariga bag'ishlangan asarlari paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi I asrda **Kornelyi Sels** qomusnomasi yaratgan, undan «De medicina» («Medisina haqida») traktatning 8 kitobi bizgacha yetib kelgan.

Sels va undan keyin rim olim va hakimlari o'z asarlarida yunon tilidan qabul qilingan atamalardan tez-tez foydalanib turganlar, ma'nodosh so'zlar sifatida yunoncha va lotincha so'zlarni teng qo'llab turganlar. Antik davr hakimlari yunon va lotin tillarini bilishi zarur edi.

Shunday qilib, antik davrdan boshlab atamashunoslik yunon–lotin tillari asosida shakllana boshladi. Bu ikki til tibbiy atamashunoslikning butun davrlari mobaynida an'anaviy tus oldi va hozirda ham davom etmoqda. Yunoncha–lotincha ikki tillilik shu narsada yanada aniqroq ko'rindiki, anatomik nomlar anatomik ro'yxatlarda lotincha, kasallik ro'yxatlarda kelib chiqishi yunoncha bo'lgan so'zlar bilan beriladi.

Masalan: lotincha *ren* – yunoncha *nephros* – buyrak–nefrit (buyrak yallig'lanishi), lotincha *lien* – yunoncha *splen* – taloq–splenit (taloq yallig'lanishi).

Miloddan avvalgi IV asri oxirlarida Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy (Vizantiyaning Konstantinopoldagi poytaxti bilan) qismilarga bo'linishi yunon tilining faoliyati kengayishiga, Vizantiyada va G'arbiyda yunon yozuvi va tilining asta-sekin o'z rolini yo'qotishiga olib keldi.

Miloddan awvalgi 476- yil G'arbiy Rim imperiyasi ag'darilgandan so'ng og'zaki lotin tili asta-sekin o'zining rasmiy rolini yo'qota boradi. Eski roman (lot. *Romanus*) tillari o'rtasidagi farq tobora kuchaya boshladи.

Roman tillarining (italyan, ispan, portugal, fransuz, keyinroq yana bir qator boshqa tillar, masalan rumin, moldavan) keyingi rivojanish davri IX asrga to'g'ri keladi.

Roman tillariga asos vazifasini og'zaki lotin tili bajardi. Shu bilan birga adabiy lotin tili kitobiy, «ilm» tili sifatida sun'iy ravishda o'sishni G'arbiy Yevropada yana 100 yillar mobaynida o'rta asrlar davrida – o'rta asr lotini, yuksalish (XIV–XVI asrlar) davrida gumanitar lotin nomi bilan davom ettirdi. Lotin tilida o'qitildi, ilmiy asarlar yaratildi. Qadimgi yunon va arab hakimlari asarları lotin tiliga o'girildi, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna (980–1037))ning «Tib qonunlari» asari XII asrdayoq lotin tiliga o'girilib, qariyb XVI asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalaniб kelindi.

Yuksalish davrining insonparvar olimlari lotin tilini soxtalashtirish, dag'allashirishga qarshilik ko'rsatib, arab so'zleri aralashib borayotgan toza, klassik lotin tilini saqlab qolish uchun keskin kurashib kelganlar. Hozirda aytilishi va yozilishi lotin transkripsiyasida bo'lgan yunoncha so'zlar Erazm Rotterdamskiy (1469–1536) tomonidan ishlab chiqilgan. Yuksalish davrida lotin tili o'z mavqeini egallab og'zaki va yozma axborotlarda fanning hamma sohalarida olimlarning munozara va tortishuvularida qo'llana boshladи.

Xuddi shu davrda xalqaro tibbiy atamashunoslik lotin tili asosiga ko'chadi. Yirik italyan anatomi, ilmiy odam anatomiysi bunyodkori Andrey (Andreas) Vezalii (1514–1564) anatomiya fani bo'yicha dars bergan va lotin tilida o'zining «*De humani corporis fabrica*» – «Inson tanasining tuzilishi» nomli klassik asarini yozgan. Vezalii lotincha anatomik atamashunoslikning takomillashishida «to'g'ri» sof lotin tilining qayta tiklanishida Sels asarlariga asoslanib ko'p xayrli, ibratlil ishlarni amalgaloshirgan. Atoqli ingliz hakimi, qon aylanish tizimini kashf etgan Uilyam Garvey (1578–1657) o'zining «*Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus*» – «Hayvonlarda yurak va qon harakati borasida anatomik tadqiqot» asarini lotin tilida yozgan. Lotin tilida Yevropa mamlakatlarining atoqli mutasakkirlari, faylasuflari, olimlari, hakimlari: F.Bekon, T.Moor, M.Malpigi, T.Gobbs, I.Nyuton, R.Dekart, G.V.Leybnis, N.Kopernik, K.Linney va ko'plab boshqalar o'z asarlarini yozib qoldirganlar.

Rossiyada fanning dastlabki qadamlari lotin tilida bitilgan asarlarning tarjimasi bilan ham bog'liq. Rus ma'rifatchi olimi Yepisanit Slavineskiy, ma'lumotlariga qaraganda, Andrey Vezaliiyning anatomiya haqidagi asarining qisqartirilgan variantini Rossiyada eng birinchi tashkil topgan tibbiyot maktabi o'quvchilari uchun tarjima qilgan.

**M.V.Lomonosovning ko'pgina asarlari ham lotin tilida yozilgan.** Rus tarjimonlari rus tibbiy atamashunosligi yaratilishida faol mehnat qilganlar, Rossiyada birinchi anatom professor, akademik **F.P.Protasov** rus tilidagi anatomik atamashunoslikka asos soldi. Rivojlanib borayotgan rus tibbiy atamashunosligida ilmiy atamalarni qo'llash va tartibga solishda XVIII asr rus hakimi va ma'rifatchisi **N.M.Maksimovich-Alebadik** xizmat ko'satgan.

XVIII asrda lotin tili Yevropa ilm-fanida ommaviy tan olingen til sifatida milliy tillar bilan birgalikda fan tarkibiga kirib ketdi. Hatto XIX asr o'rtalarida ham tibbiyot borasidagi ko'plab asarlar lotin tilida yozilar edi. Masalan: Rus xirurgi **N.I.Pirogov** (1810–1881)ning operativ xirurgiya va topografik anatomiya oid («Muzlatilgan murda ustida uch yo'nalihsda o'tkaziladigan aralash topografik anatomiya», 1889) asari va boshqalar. Atoqli rus farmakologи **I.Y.Dyadkovskiy** o'zining mashhur «Odam tanasiga dori-darmon ta'sir etishi usullari» nömlı dissertatsiyasini lotin tilida yozib, himoya qilgan. 1865- yilgacha rus fuqaro va harbiy farmakopeyalari lotin tilida bosib chiqarildi. Kasallik tarixi ham lotin tilida yozilar edi.

Shunga qaramay, XIX asrda lotin tili ilmiy, yozma, kitobi muloqotning xalqaro vositasi sifatida hamma joylarda milliy tillarga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Lekin shu bilan birga nominatsiya (lot. *nominatio* – ism, nom, atama) uchun xalqaro vosita sifatida o'z funksiyasini saqlab qoldi.

**Nominatsiya** – bu anatomiya, histologiya, embriologiya, mikrobiologiya, qisman patologik anatomiya va klinik fanlar hamda farmakologiya, farmakoterapiya fanlarida tushuncha va obyektlarni bildiruvchi nomlardir.

Qadimgi yunon va lotin tillarining leksik va so'z yasovchi boyliklari (o'zak, prefiks, suffikslar) hozirgi kunda ham minglab atamalar yasash uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qildi. Ularning ko'pchiligi baynalmilal so'z bo'lib, ikki, uch, undan ko'p tillardagi bir xil ma'noni ifodalash uchun qo'llanadi. Agar meditsina, gigiyena, sanitariya, ortodontiya, stomatologiya, patologiya, patogenez, etiologiya, remissiya, retsidiiv, abscess, kardiografiya, terapiya, xirurgiya, infeksiya, simptom, sindrom kabi minglab baynalmilal yunonizm va lotinizmlar bo'limganda, turli mamlakat hakimlari va olimlari bir-birini qanday tushungan bo'lardi, tasavvur etish ham qiyin.

## TIBBIY ATAMALAR ASOSLARI

**Tibbiy atamalar** – tibbiyot bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, tibbiy-biologik va boshqa bir necha fanlarga oid alohida atamashunoslik tizimlaridan iboratdir. Ularning ichida o'z tushuncha va obyektlariga lotincha nom bergan uchta asosiy yo'nalihsdag'i tizim bor bo'lib, ular lotin tili so'z boyliklaridan turli hajm va darajada foydalanadi.

Tibbiy atamalarning tizimlari quyidagilardan iborat:

### 1. Anatomik va histologik nomenklatura.

Bu turkum hozirgi kunda ma'lum bo'lgan barcha anatomik va histologik atamalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi zamон xalqaro anatomik nomenklaturasi (Nomina anatomica) birinchi marta, Parijda 1955- yilda anatomiarning VI xalqaro kongressida qabul qilingan va lotincha so'zlarning bosh harfidan iborat qisqartma shakl – RNA tarzida ifodalangan. O'sha vaqtдан beri u bir necha bor to'ldirilgan va o'zgartirishlar kiritilgan. Birinchi Sovet nashri so'z boshisida bu fan tarixida birinchi bo'lib xalqaro tan olingen lotincha anatomik atamalar ro'yxati sifatida qayd etilgan. Hozirgi kunda ham lotin tili fanning barcha sohalari tili bo'lib qolmoqda. RNA 5600 dan ortiq anatomik obyektni qamraydi. 1965- yili Sovet gistologlari tomonidan lotin tilida tuzilib, anatomiarning Leningrad (Sankt-Peterburg)da bo'lib o'tgan IX xalqaro kongressida rasmiy ravishda qabul qilingan Xalqaro gistologik nomenklatura paydo bo'ldi. 1970- yilda Leningrad gistologik nomenklaturasi (INH) yana ham to'ldirildi, o'zgartirishlar kiritildi, hozirgi kunda u 2750 dan ortiq atamalarni o'z ichiga oladi. 1980- yilda Meksikada bo'lib o'tgan anatomiarning XI xalqaro kongressida (RNA) va (INH) to'ldirildi va o'zgartirildi. Nomenklaturalarning lotincha matni asosida ishlab chiqilgan, keyinroq 1986- yilda bo'lib o'tgan Butunittifoq anatomlar, gistologlar, embriologlar syezdida tasdiqlangan ruscha ekvivalent atamalar ro'yxati ham hozirgi kunda o'z ahamiyatini yo'qtogani yo'q.

Bu nomenklaturadan unumli va to'g'ri foydalananish uchun, lotincha atamalarning to'g'ri talaffuzini bilish uchun, mustaqil holda lug'atlarsiz lotincha atamalar yasay olish uchun lotin tili bo'yicha o'tkaziladigan mashg'uotlarda yetarli darajada bilim va ko'nikmalarni egallash zarur.

## 2. Klinik atamalar.

(Yunoncha *klinike techne* – hakimlik san'ati, yotib davolanuvchi bemorlarga qarash). U turli klinik mutaxassislikka oid *pathos* – kasallikni o'rjanuvchi fanlar, jumladan, patologik anatomiya va patologik fiziologiya atamalarini o'z ichiga oladi. Eng avval, xirurgiya (*cheirurgia*), ish faoliyat, kasalliklarning nomlari, patologik jarayon va holatlar, kasallik belgilari, simptomlar (yunoncha *symptome* – belgi) va sindromlar (yunoncha *syndrome* – belgilar hosil bo'lishi), operatsiya nomlari, taddiqot va davolash usullari, tibbiy uskunalar, asboblar va boshqalar ham lotincha nomlanadi. Klinik atamashunoslik bu siz ma'ruzalarda, kasallarni tekshirishda, kasallik tarixini yozishda, darslik va yo'riqnomalar bilan ishlashda duch keluvchi minglab nomlar va atamalardir. Tibbiy atamashunoslikning bu tizimchasida lotin tilini qo'llash majburiy emas. Bu narsa ko'proq muktabga, an'analarga, madaniyat darajasiga va asosiysi tibbiyot xodimi faoliyatini qamrovchi maxsus adabiyotlarning (darslik, lug'at va b.) turiga bog'liq. Klinik atamashunoslikda qo'llangan kasalliklarning rus va o'zbekcha nomlari bilan birga lotincha ekvivalentlari ham ishlatalaveradi: churra tushish (*hernia*), suyak sinish (*fractura*), rak (*carcinoma*), ich terlama (*typhus abdominalis*) va boshqalar.

Klinik atamalardan mopirona, unumli va samarali foydalanish uchun qadimgi yunon tili so'z yasash vositalarini bilish zarur, chunki klinik atamashunoslikda uslardan keng foydalaniladi. Bu haqidagi ma'lumot bilan siz lotin tili kursida tanishib chiqasiz.

### 3. Farmatsevtik atamalar.

Bu o'simliklardan va kimyoviy moddalardan tayyorlangan dori-darmonlar nomi. O'zbekistonda tayyqrilanayotgan har bir dori bir vaqtning o'zida ham o'zbekcha, ham lotincha nom oladi. Keyingisi lotin tilida retsept yozilganda qo'llaniladi. Bizning mamlakatimizda dori preparatlarining minglab nomi bor. Bularga dorivor o'simliklar, noorganik va organik, kimyoviy, sintetik va yarimsintetik birikmalar kiradi.

## LOTIN TILINING UMUMMADANIY AHAMIYATI

Tibbiyot institutida lotin tili kursi mutaxassislikka oid maqsadlarni ko'zda tutib o'rganilsa-da, bilim doirangizni, dunyoqarashingizni kengaytirishda Siz uchun ajoyib imkoniyatlar beradi.

Shu ma'noda qisqa ko'rinishidagi tugal mazmunli lotincha hikmatli so'zlardan foydalaniladi.

Ko'pgina hikmatli so'zlar – bu mashhur antik yozuvchilar, faylasuflar, siyosiy arboblarning nutqidan olingen alohida iboratlardir. Keyingi yangi davr olimlariga taalluqli lotincha aforizmlar ham o'ziga xos ajoyib va chuqer mazmuniidir.

Ba'zi lotincha hikmatli so'zlar bemorning hayoti, o'limi, sog'lig'i yoki shifokor faoliyatiga taalluqli bo'lib tibbiyot deontologik ta'limotiga aylanib ketgan:

Hozirda jahoning ko'pgina tillari fondidagi baynalmilal lug'atlarda turli ma'nodagi lotinizmlar ko'zga ko'rinarli o'rinni egallab turadi. Kommunal, kommunikatsiya, kredit, diskreditatsiya, dekret, kredo, kurs, kurator, prokuror, kursant, konkurent, konkurs, ekskursiya, ekskursant, gradus, gradatsiya, degradatsiya, ingrediyyent, agressiya, kongress, progress, regress, yurist, yuristkonsult, kollega, kolleksiya, repetitsiya, appetit, kompetensiya, repetitor, konservator, konservatoriya, observatoriya, rezerv, rezervatsiya, valentnost, valeriana, valyuta, devalvatsiya, invalid, ekvivalent, statuya, monument, ornament, stil, illustratsiya va boshqa shu kabi ko'plab so'zlarsiz hozirgi zamon ziyolisini tasavvur qilish qiyin.

# LOTIN ALIFBOSI. FONETIKA. UNLILAR. DIFTONGLAR. UNDOSHLAR. BIRIKMALAR. DIGRAFLAR

## 1- §. FONETIKA

### Lotin alifbosi

Harflarning yozilishi	Harflarning nomlari	Harflarning yozilishi	Harflarning nomlari
A a	a	N n	en
B b	be	O o	o
C c	se	P p	pe
D d	de	Q q	ku
E e	e	R r	er
F f	ef	S s	es
G g	ge	T t	te
H h	ga	U u	u
I i	i	V v	ve
J j	yot	X x	iks
K k	ka	Y y	epsilon (igrek)
L l	el	Z z	zeta
M m	em		

Lotin alifbosi 25 harfdan iborat. Ulardan oltita unli harflar, qolganiqlari undosh harflardir.

## 2- §. UNLILARNING O'QILISHI

- a – a – aorta* – [aorta] – aorta
- e – e – vertebra* – [vertebra] – umurtqa
- o – o – foramen* – [foramen] – teshik
- i – i – vita* – [vita] – hayot
- u – u – rotundus* – [rotundus] – yumaloq
- y – i – myologia* – [miologiya] – muskullar haqidagi fan.

### 3- §. DIFTONGLAR

*Diftong* – ikkita turli unli harflarning bitta tovush sifatida talaffuz etilishi.

Lotin tilida 6 diftong bor:

<i>au</i> – <i>au</i> – <i>auris</i>	– [auris]	– qulqoq
<i>eu</i> – <i>eu</i> – <i>pneumonia</i>	– [pneumoniya]	– pnevmoniya
<i>ae</i> – <i>e</i> – <i>gangraena</i>	– [gangrena]	– gangrena
<i>oe</i> – <i>e</i> – <i>oedema</i>	– [edema]	– shish.

Agar «e» harfi ustida ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda harflar o'zining alohida tovushini ifoda etadi:

<i>aë</i> – <i>ae</i> – <i>aer</i>	– [aer]	– havo
<i>oë</i> – <i>oe</i> – <i>aloë</i>	– [aloë]	– aloe

### 4- §. UNDOSH HARFLAR

C harfi a, o, i unlilar oldida, barcha undosh harflari oldida, so'z oxirida «k» kabi o'qiladi, masalan:

<i>caput</i>	– [kaput]	– bosh
<i>costa</i>	– [kosta]	– qovurg'a
<i>cutis</i>	– [kutis]	– teri
<i>cranium</i>	– [kranium]	– kalla
<i>lac</i>	– [lyak]	– sut

Charfi e, i, y unlilari oldida va ae, oe diftonglari oldida tursa «ts» kabi o'qiladi. Masalan:

<i>cito</i>	– [tsito]	– tez
<i>cella</i>	– [tselya]	– hujayra
<i>cyclus</i>	– [tsiklyus]	– sikl
<i>caecus</i>	– [tsekus]	– ko'r
<i>coeruleus</i>	– [tseruleus]	– zangori, ko'k

*Hh* harfi o'zbekcha «g» kabi o'qiladi:

<i>herba</i>	– [gerba]	– ko'kat
<i>homo</i>	– [gomo]	– inson

*Kk* harfi lotin tiliga chet tilidan kirgan so'zlarda ishlataladi. Masalan:  
kalium – kalium – kaliy

*Ll* harfi juda yumshoq talaffuz etiladi:

<i>lac</i>	– [lyak]	– sut
<i>alcohol</i>	– [alkogol]	– alkogol

<b>Ss</b>	<b>s</b>	semen – semen – urug‘
	<b>z</b>	unli + S + unli resina – rezina
	<b>m, n + S + unli</b>	mensis – menzis
<b>ss + cc</b>		fossa – fossa

<b>Xx</b>	<b>harfi «ks»</b>	tovushini beradi:	radix – [radiks]
			maxilla – [maksillya]

<b>Zz</b>	<b>z (yunon so‘zlarda)</b>	<b>z (lotin so‘zlarda)</b>	zona – [zona]
			zincum – [sinkum]

## 5- §. HARF BIRIKMALARI

<b>qu</b> –	«kv» o‘qiladi:	aqua – [akva]
<b>ngu</b> –	unlilar oldida «ngv» o‘qiladi: undoshlar oldida «ngu» o‘qiladi:	lingua – [lingva] angulus – [angulyus]
<b>ti</b> –	unlilar oldida «si» o‘qiladi: x, s harflaridan keyin «ti» o‘qiladi:	solutio – [solyutsio] mixtio – [mikstio]

## 6- §. DIGRAFLAR

Digraf bu bitta tovush beradigan ikkita undosh birikmasidir:

<b>ch</b> – x	tovushini beradi:	china – [xina]
<b>sch</b> – sx	tovushini beradi:	schema – [sxema]
<b>ph</b> – f	tovushini beradi:	phosphorus – [fosforus]
<b>rh</b> – r	tovushini beradi:	rheum – [reum]
<b>th</b> – t	tovushini beradi:	thorax – [toraks]

## 7- §. MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### 1. Ovoz chiqarib o‘qing.

*Ala* – qanot; *minor* – kichik; *arteria* – arteriya; *lamina* – plastinka;  
*abdomen* – qorin; *fovea* – chuqurcha; *fibula* – kichik boldir suyagi;  
*femur* – son, son suyagi; *linea aspera* – g‘adir-budur chiziq; *palma* – kaft;  
*infundibulum* – voronka; *regio* – soha; *inferior* – pastki; *anterior* – oldingi;  
*membrana* – parda; *manubrium sterni* – to‘sish dastasi; *vena* – vena;  
*humerus* – yelka suyagi; *gingiva* – milk; *ulna* – tirsak suyagi; *uvula* –  
tilcha; *hepar* – jigar; *hilus* – darvoza.

### 2. O‘qing va c undoshining o‘qilishiga e’tibor bering:

*Caput* – bosh; *collum* – bo‘yin; *cavitas* – bo‘shliq; *occiput* – ensa;  
*truncus* – gavda; *facies* – yuza; *caecus* – ko‘r; *cerebrum* – bosh miya;

*clavicularis* — o'mrov; *scapula* — kurak; *accessorius* — qo'shimcha; *musculus* — muskul; *skeleton* — skelet; *cavum cranii* — kalla suyagi bo'shilg'i; *saccus lacrimalis* — ko'z yoshi qopchasi; *cartilago* — tog'ay; *biceps* — ikki boshli; *cellula* — hujayra; *corpus* — tana; *sulcus palatinus* — tanglay egati; *vertebrae cervicales* — bo'yin umurtqalar; *vertebrae sacrales* — dumg'azaga oid umurtqalar; *bucca* — lunj.

### 3. i va j unlilarining talaffuzi va yozdilishini tushuntiring.

*Intestinum* — ichak; *infraspinatus* — qirra osti; *iater* — vrach; *paries inferior* — pastki devor; *insula* — orolcha; *junctura* — biriktiruv; *jugularis* — bo'yinturuq; *canalis palatinus major* — katta tanglay kanali; *fossa infratemporalis* — chakka osti chuqurchasi; *tuberculum majus* — katta do'mboqcha; *jejunum* — och ichak; *iliacus* — yonbosh.

### 4. ss va s undoshining talaffuz qilinishiga ahamiyat bering.

*Fossa* — chuqurcha; *humerus* — yelka suyagi; *mesenterium* — me'daning o'rta qismi; *impressio* — botiqlik; *sinus* — sinus; *sigmoideus* — sigmasimon; *septum nasi* — burun to'sig'i; *canalis hypoglossus* — til osti kanali; *processus styloideus* — bigizsimon o'simta; *basis cranii* — kalla suyak asosi; *segmentum* — segment; *pars petrosa* — toshsimon qism; *chiasma* — kesishma; *fissura* — yorig'; *dens incisivus* — kesuvchi tish; *platysma* — bo'yinning teri osti muskuli; *mesogastrum* — qorinning o'rta qismi; *mucosus* — shilliq; *nasolacrimalis* — ko'z yoshiga va burunga oid; *sulcus sinus transversi* — ko'ndalang bo'shliqning egati.

### 5. x va z undoshlarining talaffuziga ahamiyat bering.

*Flexio* — buzik; *axis* — o'q, ikkinchi bo'yin umurtqasi; *externus* — tashqi; *maxillaris* — yuqori jag'ga oid; *fornix* — gumbaz; *index* — ko'rsatkich barmoq; *larynx* — hiqildoq; *dexter* — o'ng; *radix* — ildiz; *extremitas* — yakunlovchi qism; *zygomaticus* — yanoqqa oid; *zona orbicularis* — ko'z sohasi; *vena azygos* — toq vena.

### 6. Diftonglarning talaffuziga ahamiyat bering.

*Vertebrae* — umurtqalar; *costae* — qovurg'alar; *oesophagus* — qizilo'ngach; *pleura* — parda; *auricularis* — quloqqa oid; *corpus vesicae felleae* — o't pufagining tanasi; *aponeurosis serbar* — pay; *pseudomembrana* — sohta parda; *uropoëtus* — slydik ishlab chiqaruvchi; *oedema* — shish; *diploë* — diploe, yalpoq suyakning g'ovakk qismi; *aér* — havo; *haematoëpsicus* — qon ishlash chiqaruvchi.

## **7. qu va ngu harf birikmalarining o'qilishiga ahamiyat bering.**

*Squama occipitalis* – ensaga oid tangacha; *lamina quadrigemina* – to'rt boshli plastinka; *quadratus* – kvadrat; *vertebra quinta* – beshinchi umurtqa; *lingua* – til; *lingula* – tilcha; *unguis* – tirnoq; *squamosus* – tangaga oid; *angulus* – burchak; *sanguis* – qon.

## **8. ti harf birikmasining o'qilishiga ahamiyat bering:**

*Articulatio* – bog'im; *tibia* – katta boldir suyagi; *ostium* – teshik; *digestio* – ovqat hazm qilish; *spatia intercostalia* – qovurg'alararo; *adductio* – yaqinlashtirish; *abductio* – uzoqlashtirish; *periodontium* – periadont; *foramina nutricia* – oziqlantiruvchi teshiklar.

## **9. Dagraflar va harf birikmalar talaffuziga ahamiyat bering.**

*Nucha* – ensa; *thyreoideus* – qalqonsimon; *thorax* – ko'krak qafasi; *linea nuchae superior* – ensaning yuqori chizig'i; *tuberculum pharyngeum* – halqum do'mboqchasi; *os sphenoidale* – ponasimon suyak; *kyphosis* – kifoz, umurtqa pog'onasining orqaga qiyshayishi; *hemispherium* – yarim shar; *splanchnologia* – ichki a'zolarni o'rjanuvchi fan; *bronchus* – bronx; *ductus choledochus* – umumiyl o't yo'li; *sympysis* – simfiz; *arteria ophthalmica* – ko'z arteriyasi; *vena saphena* – teri osti venasi; *nodus lymphaticus* – limfa tuguni; *os* – ichki quymich suyagi; *incisura ischiadica major* – katta quymich o'yig'i,

## **10. Yunon so'zlarning o'zagini ajrating.**

*Synostosis* – sinostoz (suyaklarning birikishi); *syndesmosis* – sindesmoz (biriktiruv to'qimasi orqali suyaklarning birikishi); *hypoglossus* – til osti; *hypertonia* – qon bosimining oshishi; *dysenteria* – ichak faoliyatining buzilishi; *dyspepsia* – ovqat hazm qilishning buzilishi; *myocardium* – yurak muskuli; *systole* – sistola.

## **11. Quyidagi so'zlarni lotincha yozing.**

Nervus, subkutaneus, akustikus, organon, apeks, sseleton, kapitulyum, maksillya, kauda, dentes, kvantus, tenzor, sellya, sangvis, sellulya, artikulyatsio, rinensefalon, mukozus, komissura, kvadritseps, fibroza, pleksus, vas, vaza, os kokse, diafragmatikus, skeleton.

### **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

1. *Invia est in medicina via sine lingua Latina.* –

Lotin tilisiz tilbilyotga yo'l yo'q.

2. *Omnium artium medicina nobilissima est.* –

Barcha san'atlар ichida meditsina eng olijanobidir.

3. *Ulis inserviendo consumor.* –

Yonaman, o'zgalarga xizmat qilaman.

## 8- §. LEKSIK MINIMUM

### OTLAR

atlas	I bo'yin umurtqasi
axis	II bo'yin umurtqasi
caput	bosh, boshcha
cerebrum	katta bosh miya
collum	bo'yin
columna	pog'ona
corpus	tana
cranium	kalla suyagi
dorsum	orqa
encephalon	bosh miya
homo	inson, odam
os	suyak
skeleton	skelet
substantia	modda
thorax	ko'krak qafasi, ko'krak
truncus	tana, gavda
vertebra	umurtqa

### SIFATLAR

dexter	o'ng
sinister	chap
distalis	markazdan uzoqlashgan, distal
dorsalis	orqaga oid
externus	tashqi
horizontalis	gorizontal
internus	ichki
lateralis	lateral, yonbosh
major	katta
minor	kichik
medialis	medial, o'rta
medianus	o'rtancha
medius	o'rta
profundus	chuqur
proximalis	proksimal, tanaga yaqin
superficialis	yuza, yuzaki
ventralis	ventral, oldingi

### 9- §. URG'U QOIDALARI

**Maqsad.** Urg'u qoidalari o'zlashtirish. Lotinchcha so'zlarning urg'uli bo'g'inalarini ajratib o'qiy olish.

1. **Lotin tilida** ham so'zlar bo'g'inqarga bo'linadi. So'zda qancha unli harf bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi.

Lotin **tilida** urg'u odatda so'z oxiridan ikkinchi cho'ziq bo'g'inga qo'yiladi. Agar so'zning oxirgi ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, u holda urg'u oxirgi uchinchi bo'g'inga qo'yiladi.

me - di - ci - na      fo - ve - a

2. Tovushning uzunligi harf ustiga to'g'ri chiziqcha, qisqaligi – yarim oy qo'yib belgilanadi:

ā-ā, ō-ō.

3. Bo'g'inlar so'zning oxiridan hisoblanadi:

pro - fun - dus  
3      2      1

4. Bir bo'g'inli so'zlarda urg'u unli harfga tushadi:

déns, ós

5. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inga tushadi:

vé - na, ós - sa  
2      1      2      1

### CHO'ZIQLIK QOIDALARI

**Bo'ginlar quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi:**

1. ae, oe diftonglari so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inda kelsa:

di - aé - ta      gan - grae - na  
3      2      1      3      2      1

2. Unli harf ikki yoki uchta undoshdan oldin kelsa:

li - ga - mén - tum  
4      3      2      1

3. Unli harf z va x undoshlaridan oldin kelsa:

re - flé - xus  
3      2      1

4. *ur*, *-in* ot yasovchi suffikslari:

in - ci - sú - ra      of - fi - ci - na  
4      3      2      1      4      3      2      1

5. *at*, *-ar*, *-al*, *-os* sifat yasovchi suffikslari:

ar - cu - a - tus 4      3      2      1	oc - ci - pi - ta - lis 5      4      3      2      1
ar - ti - cu - lá - ris 5      4      3      2      1	ner - gó - sus 3      2      1

**Bo‘ginlar quyidagi hollarda qisqa o‘qiladi:**

1. Unli «br» birikmasi oldida kelsa:

vêr - te - bra	cé - re - brum
3 2 1	3 2 1

2. Unli unlidan oldin kelsa:

ó - le - um	fó - ve - a
3 2 1	3 2 1

3. *-ol*, *-ul* ot yasovchi suffikslari:

scá - pu - la	al - vé - o - lus
3 2 1	4 3 2 1

4. *-il*, *-it*, *-id*, *-ic* sifat yasovchi suffikslari

so - lu - bi - lis	flu - i - dus
4 3 2 1	3 2 1
com - po - si - tus	tho - rá - ci - cus
4 3 2 1	4 3 2 1

## 10- §. LEKSIK MINIMUM

### OTLAR

acromion – akromion  
 articulatio – bo‘g‘im  
 brachium – yelka  
canalis – kanal  
 cingulum – belbog‘, kamar  
 clavicula – o‘mrov  
 coccyx – dum  
 costa – qovurg‘a  
 dens – tish  
 fissura – yoriq  
 foramen – teshik  
 fossa – chuqurcha  
 fovea – chuqurcha  
 hiatus – yoriq

humerus – yelka suyagi  
 incisura – o‘yma  
 mandibula – pastki jag‘  
 maxilla – yuqori jag‘  
 membrum – a‘zo  
 olecranon – tirsak suyagining  
     o‘sintiasi  
 periosteum – suyak usti  
 radius – bilak suyagi  
 scapula – kurak  
 tuber – do‘mboq  
 tuberculum – do‘mboqcha  
 ulna – tirsak suyagi

### SIFATLAR

articularis – bo‘g‘imga oid  
 clavicularis – o‘mrovga oid  
 coccygeus – dumga tegishli  
 costalis – qovurg‘aga oid

jugularis – bo‘yinturuqqa oid  
 pharyngeus – halkumga oid  
 thoracicus – ko‘krakka tegishli  
 transversus – ko‘ndalang

## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### 1. Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qing:

costa, arcus, apex, bursa, bulbus, cauda, barba, cavum, minor, cornu, situs, ramus, collum, manus, vomer, sternum, atlas, sella.

### 2. So'z oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlang va urgu qo'ying:

medulla ossium, membrum inferius, substantia compacta, ligamentum, processus transversus, corpus maxillae, ductus choledochus, facies poplitea, palpebra superior, periosteum, arcus vertebrae.

### 3. So'z oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlang va urgu qo'ying:

hiatus sacralis, incisura vertebralis, clavicularis, mentalis, sulcus pulmonalis, foramen spinosum, fossa glandulae lacrimalis, processus zygomaticus, incisura supraorbitalis, pars squamosa, cibrosus.

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

- |                                    |                               |
|------------------------------------|-------------------------------|
| 1. <i>Amat victoria curam.</i>     | Intilganga tole yor.          |
| 2. <i>Alit lectio ingenium.</i>    | O'qish aqlni oziqlantiradi.   |
| 3. <i>Citius, altius, fortius.</i> | Težroq, balandroq, kuchliroq. |
| 4. <i>Labor corpus firmat.</i>     | Mehnat tanani chiniqtiradi.   |

## 11- §. OT VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI

### LUG'AT SHAKLI NEGIZ. MOSLASHMAGAN ANQLOVCHI

**Maqsad.** Otning grammatik kategoriyalari, besh xil turlanish belgilari, rod belgilari, I–V turlanishdagi otlarning lug'at shaklini bilish; leksik minimumni yodlash; anatomik atama tarkibini tahlil qila olish, atamani tashkil etuvchi so'zlarning grammatik vazifasini aniqlash; atamałarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila bilish.

Lotin tilida otlar uchta rodga va beshta turlanishga ega.

Genus masculinum (m)	— mujskoy rod
Genus femininum (f)	— jenskiy rod
Genus neutrum (n)	— sredniy rod, ikkita songa
Numerus Singularis (Sing.)	— birlik (son)
Numerus Pluralis (Plur.)	— ko'plik (son), oltita kelishikka
Nominativus (Nom.)	— bosh kelishik — kim? nima?
Genetivus (Gen.)	— qaratqich kelishik — kimning? nimaning?
Dativus (Dat.)	— jo'nalish kelishik — kimga? nimaiga?

Accusativus (Acc.)	— tushum kelishik — kimda?, nimada?								
Ablativus (Abl.)	— o'rin payt kelishik — kimni?, nimani?								
Vocativus (Voc.)	— chiqish kelishik — kimdan?, nimadan?								

Turlanish tipi qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasi yordamida aniqlanadi.

Turlanish	I	II		III			IV		V
Rod	f	m	n	m	f	n	m	n	f
Nom. Sing	a	us er	um on	har xil			us	u	es
Gen. Sing	ae	i		is			us		ei

qovurg'a	costa, ae, f	I turl.
asab	nervus, i, m	II turl.
to'siq	septum, i, n	II turl.
tirsak o'simtasi	olecranon, i, n	II turl.
odam	homo, inis, m	III turl.
qism	pars, partis, f	III turl.
suyak	os, ossis, n	III turl.
yoy	arcus, us, m	IV turl.
tizza	genu, us, n	IV turl.
yuza	facies, ei, f	V turl.

### OTLARNING LUG'AT SHAKLI

1. Bosh kelishik birlikda so'z atama to'la yoziladi.
2. Qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasi.
3. Rod belgisi.
4. Tarjimasi.

Masalan:	ala, ae, f	—	qanot
	digitus, i, m	—	barmoq
	sternum, i, n	—	to'sh

### 12- §. NEGIZ

So'zning asosiy qo'shimchasiz qismi negiz deb ataladi. Negizni aniqlash uchun so'z qaratqich kelishigiga qo'yilib uning qo'shimchasi olib tashlanadi.

Bosh k.	Qaratqich k.	Rod	Negiz
costa	costae	f	cost
nervus	nervi	m	nerv
homo	hominis	m	homin

pars	partis	f	part
corpus	corporis	n	corpor
arcus	arcus	m	arc
genu	genus	n	gen
facies	faciei	f	faci

## MASHQ

### Quyidagi so‘zlarning negizini aniqlang:

foramen, foraminis n; ala, alae f; articulatio, articulationis f; pubes, pubis f; septum, septi n; nasus, nasi m; pectus, pectoris n; tuber, tuberis n; ramus, rami m; vena, venae f; facies, faciei f; meatus, meatus m; femur, femoris n; tempus, temporis n; occiput, occipitis n.

### 13- §. MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishik birlik yoki ko‘plikdagi otdan ifodalaniб, gapda aniqlanmishdan keyingi o‘rinda keladi.

Moslashmagan aniqlovchi o‘zbek tiliga ot yoki sifat tarzida tarjima qilinadi.

<b>Masalan:</b>	sulcus nervi	—	nerv egati
	crista tuberculi	—	do‘mboqchaning qirrasи
	ramus mandibulae	—	pastki jag‘ shoxchasi

Moslashmagan aniqlovchini o‘zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilinganda ega birinchi o‘rinda keladi, aniqlovchi o‘zi aniqlagan otdan keyin keladi.

**Masalan:** umurtqa tanasi — corpus vertebrae

Nima? — tana (b. k.) Nimaning? — umurtqaning (q. k.)

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

#### 1. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

spina scapulae, skeleton membra, ossa cranii, crista tuberculi, caput fibulae, angulus mandibulae, basis cranii, tuber maxillae, sulcus sinus, linea nuchae, septum nasi, vena portae, raphe palati.

#### 2. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. Umurtqa tanasi, qovurg‘a boshchasi, aorta yoyi, kalla suyagining asosi, burur bo‘shilig‘i, kurak bo‘yinchasi, bo‘yin muskuli, pastki jag‘ o‘ymasi, egar orqasi, suyak tanasi, barmoq suyagi, tizza arteriyasi, qovurg‘a bo‘yinchasining qirrasи, asab tugunining kapsulasi, yuqori jag‘ do‘mbog‘i.

B. To‘sh dastasi, yelka suyagining boshchasi, kalla suyagining choki, asab shoxchasi, tirsak o‘sintasining chuqurchasi, nog‘ora bo‘shilig‘i, tizza qop-qog‘ining asosi, bosh miya asabi, bilak suyagining bo‘yinchasi, burun yo‘li.

### **3. Lotin tiliga tarjima qiling:**

qovurg'a do'mboqchasining boylami, umurtqa yoyining plastinkasi, qovurg'a bo'yinchasining qirrasi, xo'roz tarog'ining qanoti, dahliz suv o'tkazgichining aperturasi, nog'ora.

### **4. Anatomik atamalarni tarjima qiling:**

burun to'sig'i, pastki jag' kesmasi, o'simta chuqurchasi, umurtqa yoyining oyoqchasi, qovurg'a do'mboqchasining yuzasi, o'simta plastinkasi, egar orqasi, shox yadrosi, chig'anoq asosi, burun bo'shlig'ining dahlizi.

## **MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR**

### **1. Otlarning lug'at shaklini tugating va o'zagini aniqlang:**

concha; arcus, us; sulcus.i; bulbus, i; incisura; ganglion; septum; scapula; cornu; tuberculum; porus, i; encephalon; collum; fossa; colon; musculus, i; ramus, i; textus, us; lingua; sinus us;

### **2. Otlarning turlanishini aniqlang:**

ala, ae f; facies, ei f; pars, partis f; nervus, i, m; plexus, us m; ramus, i m; colon, i, n; ligamentum, in; dens, dentis. m; foramen,inis. n; tempus, oris.n; genu, us. n; cartilago, inis.f; tuber, eris n. articulatio, onis f; diaphragma, atis n; canalis, is m; cervix, icis f.

### **3. Anatomik atamalarni o'zbek tiliga tarjima qiling:**

os cranii, arcus vertebrae, caput mandibulae, tuberculum sellae, facies maxillae, foramen mandibulae, crista colli costae, cavum tympani, manubrium sterni, ligamentum patellae.

### **4. Tarjima qiling:**

Pastki jag' chuqurchasi, asab yadrosi, bilak suyagining boshchasi, ko'z soqqasi, orqa muskuli, gavda suyaklari, yelka suyagining g'altagi, kurak boylami, chig'anoq bo'shlig'i, miyacha tanasi.

## **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

- |  |                            |
|--|----------------------------|
| 1. <i>Scientia potentia est.</i>         | Bilim kuchdir.             |
| 2. <i>Mens sana in corpore sano.</i>     | Sog' tanda, sog'lam aql.   |
| 3. <i>Nulla aetas ad discendum sera.</i> | O'qishning kechi yo'q.     |
| 4. <i>Conscientia mille testes.</i>      | Vijdon mingta guvohga ega. |

## LEKSIK MINIMUM

### I turlanishdagi otlar

<b>A.</b>	ala, ae, f aorta, ae, f arteria, ae, f concha, ae, f costa, ae, f orbita, ae, f scapula, ae, f spina, ae, f vena, /ae, f	qanot aorta arteriya chig'anoq qovurg'a ko'z kosasi kurak o'tkir qirra vena	<b>B.</b>	crista, ae, f lamina, ae, f lingua, ae, f mandibula, ae, f maxilla, ae, f patella, ae, f sutura, ae, f tuba, ae, f vertebra, ae, f	qirra plastinka til pastki jag' yuqori jag' tizza qopqog'i chok nay umurtqa
-----------	--	---	-----------	--	---

### II turlanishdagi otlar

<b>A.</b>	angulus, i, m brachium, i, n cavum, i, n cranium, i, n ligamentum, i, n musculus, i, m septum, i, n sulcus, i, m tympanum, i, n	burchak yelka bo'shliq kalla suyagi boylam muskul to'siq egat nog'ora	<b>B.</b>	calcaneus, i, m digitus, i, m humerus, i, m manubrium, i, n radius, i, m sternum, i, n	tovon suyagi barmoq yelka suyagi dasta bilak suyagi to'sh suyagi
-----------	---	---	-----------	---	---

*moxkium*

### III turlanishdagi otlar

<b>A.</b>	corpus, oris, n foramen, inis, n	tana teshik	<b>B.</b>	crus, cruris, n os, ossis, n	oyoqcha suyak
-----------	-------------------------------------	----------------	-----------	---------------------------------	------------------

### IV turlanishdagi otlar

<b>A.</b>	arcus, us, m cornu, us, n ductus, us, m meatus, us, m processus, us, m sinus, us, m textus, us, m	yoy shox oqim yo'l o'simta sinus, bo'shliq to'qima	<b>B.</b>	genu, us, n	tizza
-----------	---	--	-----------	-------------	-------

*a(n) y(t)um)*

### V turlanishdagi otlar

<b>A.</b>	facies, ei, f	yuz
-----------	---------------	-----

## 15- §. SIFAT VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI. SIFATLARNING IKKI GURUHI. LUG'AT SHAKLI. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

**Maqsad.** Lotin tilida sifatning grammatik kategoriyalari bilan tanishish; ikki guruh sifatlarining lug'at shaklini bilish va sifatlarni otlar bilan moslashtirish; moslashgan aniqlovchi bilan kelgan atamalarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila olish; leksik minimumni o'zlashtirish.

Lotin tilida sifat rus tilidagi kabi rod, son va kelishiklarda o'zgarib o'zi aniqlagan ot bilan rodda, sonda va kelishikda moslashadi. Sifat rod qo'shimchalariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

I guruh sifatlari – uchta qo'shimchaga ega:	m	f	n
	us,	a	um
	er,	a	um

uzun – longus, a, um

o'ng – dexter, tra, trum

II guruh sifatlari – ikkita qo'shimchaga ega:	m, f	n
	is,	e

qovurg'aga tegishli – costalis, e

umurtqaga oid – vertebral, e

### SIFATLARNING LUG'AT SHAKLI

Sifatlar lug'atda mujskoy rodda to'la yoziladi. Keyin jenskiy va sredniy rod qo'shimchalari yoziladi.

Masalan:	m	f	n
longus,	a	um	uzun
liber	era	erum	erkin
dexter	tra	trum	o'ng

Mujskoy va jenskiy rodda bir xil qo'shimchaga ega bo'lgan sifatlarning lug'at shakli ikki komponentdan: mujskoy va jenskiy roddagi bir xil shakldan hamda sredniy rod qo'shimchasidan iborat.

Masalan:	m, f	n
vertebral, e		umurtqaga oid
frontalis, e		peshonaga oid

## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### 1. Sifatlarni lug'at shaklida yozing:

transversus, spinosus, cervicalis, osseus, spinalis, ethmoidalis, latus, obliquus, costalis, vertebral, zygomaticus, orbitalis, longus, costarius, frontalis, ovalis, pelvinus, cerebralis.

### 2. Nom. Sing. da berilgan sifatlarning rodini aniqlang, mustaqil ravishda lug'at shaklini tuzing:

mastoideus, brevis, alveolare, ruber, propria, album, parva, obliquum, planus, intermuscularis, cerebrale, externus, sacrococcygea, dorsale, communis, nigra, articularis, hepaticum.

## 16- §. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

Moslashgan aniqlovchi sifat, ravish, olmosh va sonlar bilan ifodalanadi, aniqlovchi o'zi aniqlagan ot bilan rodda, sonda va kelishikda moslashadi va gapda aniqlanmishdan keyingi o'rinda keladi.

B. k. OT	SIFAT	
kim? nima?	qanday? qanaqa?	
<b>Masalan:</b>		
sif.	ot	
qanday?	nima?	
uzun	muskul	musculus longus
longus, a, um	musculus, i m	
uzun	vena	vena longa
longus, a, um	vena, ae f	
uzun	suyak	os longum
longus, a, um	os, ossis n	
umurtqaga oid	kanal	canalis vertebral
vertebral, e	canalis, is, m	
umurtqaga oid	plastinka	lamina vertebral
vertebral, e	lamina, ae, f	
umurtqaga oid	tana	corpus vertebrale
vertebral, e	corpus, oris, n	

## MAVZUNING O'ZLASHTIRILISH DARAJASINI ANIQLASH UCHUN BAJARILADIGAN MASHQLAR

### I. Berilgan sifatlarni qavs ichidagi otlar bilan moslashtiring.

A. ko'ndalang (egat, chiziq, boylam); umurtqaga oid (kanal, kesma, teshik); so'rg'ichsimon (o'simta, o'yma, bo'shliq); venaga oid (yopgich, o'rim, bo'shliq), tanglayga oid (o'simta, suyak, egat); bo'g'imga oid (yuza,

do'mboqcha, teshik); ponasimon (bo'shliq, chig'anoq, suyak); peshonaga tegishli (burchak, chok, do'mboq); qanotsimon (muskul, chuqurcha); yonoqqa tegishli (yoy, suyak).

**B.** g'alvirsimon (teshik, taroq, labirint); ko'z kosasiga oid (kanal, teshik, egat); iyakka oid (bo'rtiq, do'mboqcha, teshik).

## II. Lotin tiliga tarjima qiling:

**A.** oval teshik, ko'krak qafasiga tegishli yuza, ichki kapsula, nayza o'qsimon teshik, kallaning tepasiga tegishli bo'lak, yuzaki vena, o'rtal chakkaga tegishli arteriya, toshsimon shox, ko'ndalang tanglayga tegishli chok, hiqildoqqa oid o'rim, bo'yinga oid chuqur limfa tuguni.

**B.** dumg'azaga oid shox, yelka o'sig'ining bo'g'im yuzasi, suyaklarga oid bo'g'im yuzasi, qizil yadro, yonbosh ichakka oid o'q, yonbosh ichakka oid do'mboqcha, dumg'azaga oid segment, o'rtal dumg'azaga oid qirra, taroq, tashqi ensaga oid qirra.

## 17- §. SIFATLARNING TURLANISHI

Birinchi guruh sifatlari I-II turlanishda, ikkinchi guruh sifatlari esa III turlanish bo'yicha turlanadi.

Turlanish	I guruh – us, a, um			II guruh – is, e	
	I	II		III	
Rod	f	m	n	m f	n
Nom	a	us, er	um	is	e
Gen	æ	i	ls		

## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### I. Sifatlarning Gen.Sing. shaklini yasang:

spinous (m), spinosa (f), spinosum (n), spinalis (m), spinalis (f), spinale (n), costarius (m), costaria (f), cos tarium (n), costalis(f), costale(n), transversus (m), transversa (f), transversum (n), transversalis (m), transversalis (f), transversale (n), osseus (m), ossea (f), osseum (n).

### 2. Lot'n tiliga tarjima qiling:

**A.** Umurtqa pog'onasining boylami, ensa arteriyasining egati, peshona bo'shlig'ining aperturasi, qalqonsimon bezning fibroz kapsulasi.

**B.** Ko'z yoshi qopchasining chuqurchasi, ensa arteriyasining shoxi, bigizsimon o'simta qini, toshsimon asabning egati, eshitish nayining egati, ensa suyagining tangachasi, quymich suyagining shoxi.

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR

### I. Lotin tiliga tarjima qiling:

o'ng kurak, teri venasi, chuqur vena, o'qli o'simta, bo'g'im o'simtasi, qizil yadro, qirrali teshik, umurtqa teshigi, burun suyagi, yelka o'sig'inining bo'g'im yuzasi, burunning shilliq pardasi, umurtqa yoyining plastinkasi, bo'yin fassiyasi, qalqonsimon bez, dumg'aza segmenti.

### II. Berilgan atamalarni tarjima qiling:

A. burunning suyakka oid to'sig'i, tojsimon bo'shliqning qopqog'i, o'ita kalla suyagining chuqurchasi, yuqori jag' tanglay o'simtasi, umurtqaning bo'g'imga oid o'simtasi.

B. to'shning bo'yinturuq kesmasi, qovurg'a do'mboqchasining bo'g'imga oid yuzasi.

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

- |   |                                     |
|---|-------------------------------------|
| 1. <i>Consuetudo est altera natura.</i>     | Tarki odat amri mahol.              |
| 2. <i>Exertiratio est optimus magister.</i> | Tajriba eng yaxshi ustozdir.        |
| 3. <i>Per aspera ad astra.</i>              | Qiyinchiliklar osha g'alaba sari.   |
| 4. <i>Medicina fructuosior ars nulla.</i>   | Tibbiyotdan foydaliroq fan yo'qdir. |

Bir so‘zli atamalar yasash uchun o‘zak va atama elementlarni bilish  
zarur. Meditsinaga oid atamalarda urg‘u qo‘yish qiyinchilik keltirib chiqar-  
radi. -ia qo‘s himchasi bilan tugallanuvchi yunoncha klinik atamalarda

urg'u so'z oxiridan 2- bo'g'inga, *logia* so'zida esa oxiridan 3- bo'g'inga qo'yiladi. Masalan: *nephrectomia*, *hemiplegia*, *hypertonia*, *biologia*, *phyziologia*; -*pathia*, -*graphia*, -*phonia* atama elementlari meditsinaga oid atamalarda qo'llanganda urg'u so'z oxiridan 2- bo'g'inga, boshqa sohalarga oid atamalarda esa so'z oxiridan 3- bo'g'inga tushadi.

### Solishtiring:

mastopathia	-	sympathia
cardiographia	-	photographia
aphonia	-	symphonia

Lotin va yunon tillarining ixcham va mukammalligi o'zbek tilida bir necha so'zda berilgan tushunchani bir so'zda ifodalash imkonini beradi. Masalan: *stomatitis*, *is f-* og'iz bo'shilg'i pardasining yallig'lanishi.

Meditsinaga oid atamalarni o'rganishda so'z yasash vositalari va usullarini bilish katta ahamiyatga ega. So'z yasashda muhim o'rinni egallaydigan yunon-lotin prefikslari quyidagilar:

### Lotin-yunon prefikslari

T.r.	Prefikslar		Ma'nosi	Misollar	Tarjimasi
	Lotin	yunon			
1	2	3	4	5	6
1	ad		yaqinlashti-ruvchi	adductor	yaqinlashtiruvchi m.
2	ab	apo	uzoqlashti-ruvchi	abductor apophysis	uzoqlashtiruvchi m. o'simta
3	intra intro	endo	tashqaridan ichkariga harakat	intraabdominalis endoderma	qorin ichidagi, pusht pardasining ichki varaq'i
4	extra	ecto exo	sirtqi ichkaridan tashqariga	extrauterinus exoglossia exoplasma	bachadondan tashqari tilning kattalashuvi protoplazmaning tashqi qavati
5	infra sub		ost, ostki normadan kam	infrascapularis hypogastricus hypotonia	kurak osti qorin osti me'da oyi qon bosimining pasayishi
6	super supra	epi hyper	yuqorigi, ustki normadan ortiq	superior supraorbitalis epiphysis epigastricus	yuqorigi ko'z kosasi usti, uzun suyaklarning ikki uchi, me'da usti
7	ante prae	pro	old	antebrachium anteuterinus pronephros	bilak bachadonning old qismi oldingi buyrak,
8.	post	meta	orqadagi boshqa qiyofaga kirish	posterior postoperativus metacarpus metabolismus	orqadagi, ortki operatsiyadan so'ng kaft modda almashuvi

1	2	3	4	5	6
9.	inter	meso	oraliq, o'rtा, aro	intervertebralis interscapularis interdentalis mesoderma	umurtqalararo qovurg'alararo tishlararo pushtning o'rtа varag'i
10.	circum	peri Para	atrofida aylanma, to'garak	circumferentia periosteum parasternalis	doira suyak ustki pardasi to'sh yoni
11.	trans	dia	ko'ndalang	transplantatio transversus diathermia	ko'chirib o'tkazish ko'ndalang issiq o'tkazish
12.	retro re	-	orqadan, qaytadan bosqlanmoq, tiklash	retromandibularis retroflexio reanimatio reabilitatio	pastki jag' orqasidagi orqaga bukish jon kiritish, jonlash faoliyatni tiklash
13.	con com	sym syn	bilan	compressor symbiosis synostosis syndesmologia	qishish birga yashash ikki suyakning suyak qatlami bilan birikishi boylamlar va bo'g'imlar haqida ta'limot
14.	contra	anti	qarama-qarshi	contralateralis contraindicatio antitoxia	bir-biriga qarshi turgan biror dori yoki davolashning yoqmasligi, to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi zaharga qarshi
15.	in im	en endo	tashqaridan, ichkariga harakat	internus injectio endoderra encephalon endocardium	ichkari dori yuborish pusht pardasi ichki bosh miya yurakning ichki pardasi
16.	ex	ec	ichkaridan, tashqariga harakat	externus extremitas ectropium ectoderma	tashqari uchi, oxiri qovoqning tashqariga qayrilishi tashqi varaq
17.	im in	a, an	-siz	impotentia impar analgia anorganicus	bequvvatlik, kuchsizlik, toq, og'riqni qoldirish, noorganik, organik bo'lmanan
18.		dys	to'zg'ib ketish, faoliyatni buzish	dystonia dyspepsia	qon bosimining buzilishi ovqat hazm qilishning buzilishi
19.		eu	normal faoliyat	eurhythmia eupnoe	normal, marom (ritm) to'g'ri nafas olish
20.	dis	dia	bo'lish, taqsimlanish, raz	disseminatio diagnosis	tarqalib, sochilib ketmoq kasallikni aniqlash
21.	de des	se	ajratib olish	desinfectio depressor	zararli mikroblardan tozalash tushiruvchi muskul

Ayrim yunon prefikslari birlamchi va ikkilamchi yoki ko'chma ma'noga ega. Birlamchi ma'noda ular ko'proq morfologik nomlarda, ko'chma ma'noda esa klinik atamalarda qo'llanadi. Shuningdek, lotin prefikslari lotincha negizga, yunon prefikslari esa yunoncha negizga qo'shiladi. Ba'zan istisno so'zlar ham uchrashi mumkin.

<b>Misollar:</b>	hypoglossus internus sublingualis epicardium	til osti suyagi ichki til osti epikard
<b>Istisno:</b>	episternalis endocervicalis	to'sh usti bo'yin ichi

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**I. Quyidagi atamalar uchun umumiy AE (atama element) ajrating, atamalarni tarjima qiling:**

- |                    |                 |                   |
|--------------------|-----------------|-------------------|
| 1) submandibularis | 2) episternalis | 3) transplantatio |
| supramandibularis  | parasternalis   | transfusio        |
| retromandibularis  | suprasternalis  | transversus       |
| infrasternalis     | transthoracalis |                   |
| 4) endoderma       | 5) atonia       |                   |
| dystonia           | ectoderma       |                   |
| hypertonia         | mesoderma       |                   |
| hypotonia          | epidermis       |                   |

**II. Berilgan AE lardan atamalar yasang. AE va atamalarning ma'nolarini solishtiring:**

- 1) inter (costalis, muscularis, vertebralis)
- 2) contra (tussim, lateralis, indicatio)
- 3) re (constructio, animatio, spiratio)
- 4) (a, dys, hyper, hypo) trophia
- 5) (meso, epi, hypo) gastrum

**III. Berilgan atamalarni tarkibiy qismlarga ajratib ma'nosini tushuntiring:**

extrapyramidalis, extramuralis (lat. *murus* — devor), paravesicalis, submandibularis, retrobuccalis, premolaris (dentes), subpleuralis, connectivus (*textus* — to'qima: *necto* — to'qimoq, birlashtirmoq), adducens (lot. *duco* — o'tkazmoq), abducens, abductio, praeglucoma, praecancerous, infraorbitalis, supraclavicularis, infratrochlearis, supratrochlearis, interclavicularis, interosseus, intralobularis, intramuscularis, parasternalis,

episternalis, suprasternalis, subcorticalis, subduralis (miya pardasi), epitympanicus, endocervicalis, applicatio (*applico* — yopishtirmoq), antenatalis (lot. *natus* — tug‘ilish), postnatalis, intertarsea, intranatalis, mesoduodenum, interalveolaris, subcutaneus, extrapulmonalis.

#### **IV. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

Yaqinlashtiruvchi muskul, uzoqlashtiruvchi muskul, til osti (yunon, lotin prefikslari bilan), operatsiyadan so'ng, kasallikni aniqlash, ishga layoqatsiz, ovqat hazm qilishning buzilishi, oldindan bilish, terining ichki (o'rta, tashqi) qavati.

#### **V. Sifatlarni tarjima qiling:**

Pastki jag' osti, ensa osti, til osti, bo'g'imirlararo, muskullararo, to'sh orqasi, hunj orqasi, qorin tashqarisi, muskul ichi, qirg'oq tepasi, to'sh usti (2 xil old qo'shimcha bilan), til osti, umurtqalararo, qorin orqasi, halqum orqasi, kapsula ichi, buyrak usti, ko'krak ichi.

#### **VI. Berilgan atamalarni lotincha yozing:**

Diagnoz, invalid, ektoblast, transplantatsiya, distoniya, gipoksiya, giper-trofiya, prognoz.

#### **O'ZINGIZNI TEKSHIRING:**

1. Qaysi lotincha va yunoncha prefikslar «orqali» biror narsa orasida bo'lish ma'nosini bildiradi?
2. Qaysi prefikslar funksiya buzilishi, funksiya kuchsizlanishi yoki kuchayishi ma'nosini bildiradi?
  3. a) Lotin tilidagi qaysi prefiks o'zbek tilidagi «ko'chirib o'tkazish» ma'nosini beradi?
  - b) O'zbek tilidagi «qarshi» prefiksi lotin va yunon tilidagi qaysi prefikslarga mos keladi?
4. Lotin tilidagi qaysi prefiks betaraf qilish ma'nosini beradi?
5. Quyidagi timsoliy tasvirlardagi yo'nalish, bor bo'lish ma'nolarini qaysi prefikslar yordamida ifodalaysiz?



6. So'z o'zagida ifodalangan belgining yo'qligi, inkor qilinishi qaysi prefikslarda ifodalanganadi?
7. Endoderma, mezoderma, ektoderma so'zlaridan qaysi biri terining ichki qavati hisoblanadi?

8. Yurak devorlari qatlami nomlaridan qaysi biri yuqorigi qatlamga kiradi (endokard, miokard, epikard)?
9. Qaysi prefiks «yangilanish, harakatning qaytalanishi» ma'nosini beradi?
10. Qaysi hodisani assimilyatsiya deyiladi? Misol keltiring.
11. *Synostosis, synchondrosis, syndesmosis, symphysis* atamalari qanday ma'noga ega?
12. Qaysi prefiks ma'no jihatdan «ad» prefiksiga qarama-qarshi?
13. *vasa af-ferentia* va *ef-ferentia* atamalarini qanday tarjima qilasiz (*ferens, ferentis* – tashuvchi)?
14. Qaysi lotincha va yunoncha prefikslar so'zga mos kelishlik, birlashish, aloqa ma'nolarini beradi?
15. Apatiya, simpatiya, antipatiya so'zlarining ma'nosini qanday tushuntirasiz?
16. Nafasning kuchsizlanishi, nafasning tezlashuvi, nafasning to'xtab qolishi, nafas olishning qiyinlashuvini qaysi atamalar yordamida ifodalaysiz?
17. *euphoria eyforiya* atamasi bemor kayfiyatining sababsiz ko'tarilishini, quvnoq kayfiyatini ifodalaydi. Aksincha xavotirlanish, o'zgaruvchan kayfiyatni qaysi atamalar ifodalaydi?
18. *-tonia* AE tonusni ifodalaydigan (organ va to'qimalarda) tonusning yo'q bo'lishi, buzilishi va tonusning ko'tarilishini qaysi atama bildiradi?
19. Qorin ichi organlarining tutqichi ma'nosini beruvchi atamalar qaysi prefiks yordamida yasaladi?
20. *para-* prefiksi «yonida, atrofida» ma'nosiga ega. Bu prefiks quyidagi klinik atamalarda qanday ma'no kasb etadi: *paracusia* – soxta eshitish, *parageusia* – ta'm sezishning buzilishi.

### MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. *De gustibus et coloribus non est disputandum.* Ta'm va rang haqida tortishmaydilar.
2. *Feci quod potui, faciant meliora potentes.* Men qo'llimdan kelganini qildim, kim uddalasa undan yaxshiroq qilsin.
3. *Summum bonum medicinae sanitas.* Salomatlik tibbiyotning oliy maqsadidir.

### **38- §. KLINIK ATAMALAR YASOVCHI ATAMA ELEMENTLARI**

**Maqsad.** Qo'shma so'z yasash qoidalari, dublet va yakka AE minimumi; klinik atamalarning tarkibiy xususiyatlarini bilish; qo'shma so'zlarni semantik tomondan tahlil qila olish; yunon–lotin dubletlarini to'g'ri qo'llashni o'rganish.

## 1. A'zo va tana qismlarini ifodalovchi yunon–lotin dubletlari.

Klinik atamalar yasashda qo'llanadigan quyidagi yunon–lotin dubletlari, ya'ni ikkala tilda takrorlanuvchi AE lar hamda yakka AE larni yod oling.

Yunon AE	Lotinchcha so'zlar	Ma'nosi
A. kephalo-, cephalo-, -cephalia (kephale)	caput, itis n	bosh
somato-, -soma (soma, atos)	corpus, oris n	tana
osteo – (osteon)	os, ossis n	suyak
acro-, -acria (akron)	membrum, i n	qo'l, oyoq
stetho (stethos)	pectus, oris n thorax, acis m /yun/	ko'krak
spondylo- (spondylos)	vertebra, ae f	umurtqa
cardio-, -cardium (kardia)	cor, cordis n ostium cardiacum (PNA)	yurak
arthro- (arthron)	articulatio, onis f	bo'g'im
stomato- (stoma, stomatos)	os, oris n	og'iz
gloss-, -glossia (glossa)	lingua, ae f	til
rhino- (rhis, rhinos)	nasus, i m	burun
odonto-, -odontia (odus, odontos)	dens, dentis m	tish
B. cheiro-, chiro-, -cheiria, -chiria (cheir)	manus, us f	qo'l

## 2. Ta'limot, fan, diagnostik tekshirish usullari, davolash, kasallik, dardni ifodalovchi yunon yakka AE lari.

### 39- §. ILMNI, FANNI, DIAGNOSTIK USULLARNI, DAVOLANISHNI, ISTIROBNI, KASALLIKLARNI IFODALOVCHI YUNON ATAMA ELEMENTLARI

Yunon AE	Ma'nosi
-logia (logos)	fan, ta'limot
-logo- (logia)	nutq
-scopia (skopeo)	asbob yordamida tekshirish
-metria,-metr-(metreο) (metrom)	o'lchash
-graphia (grapho)	grafik tasvirlash
-gramma (gramma)	yozish
-therapia (therapeia)	davolash
-noso- (nosos)	dard, kasalilik
patho-, -pathia (pathos)	istirob, kayfiyat, <i>, kasallik</i>
alg-, -algia, -algesia , algese	og'riq
-odynbia (odyne)	

## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### I. Berilgan atamalar uchun umumiy AE ni ajrating: atamalarni tarjima qiling:

- |                 |                     |            |
|-----------------|---------------------|------------|
| 1. logopaedia   | 2. odontalgia       | 3. apathia |
| logotherapia    | acralgia            | sympathia  |
| logopathia      | arthralgia          | antipathia |
| cephalalgia     | cardiopathia        |            |
| 4. somatoscopia | 5. cardiologia      |            |
| stomatoscopia   | cardialgia          |            |
| rhinoscopia     | cardioscopia        |            |
| stethoscopia    | elektrocardiogramma |            |

### II. Berilgan AE lardan atamalar yasang va ma'nosini tushuntiring:

- a) arthro (pathia, graphia, metria, algia), stetho (gramma, scopia, scopus, metria);
- b) (stomato, cardio, osteo, arthro) logia (spondylo, acro, glosso, rhachi) odynia.

### III. Atamalarni AE larga ajrating va ma'nosini tushuntiring:

A. Osteologia, osteoarthropathia, somatologia, somatoscopia, acralgia, spondylodynia, arthropathia, stomatologia, pathologia, stethometria, cardiographia, hormonotherapya, vasoconstrictio, nosologia, brachialgia, logopathia, spondylographia, rhinologia, periosteum, osteogenus, hepatogenus, glossalgia, edontalgia, pancreatodynia, ilaeocaecalis, ileocolicus, iliofemoralis, lymphonodus, thyreopathicus, thyreoglossus, ischiococcygeus, thyreogenus.

B. Podalgia, acheiria, chiroscopia, gonalgia, apodia, chirospasmus, macropodia, brachicephalicus.

### IV. Berilgan atamalarni lotinchcha yozing:

ensefalometriya, kardiografiya, spondilodiniya, logopatiya, patogen, artrologiya, stetoskop, elektroterapiya, gonalgiya, osteologiya, xirurgiya.

### V. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:

yurak xastaligi, bilan bog'liq umurtqa pog'onasidagi og'riq, tishlarni davolash, ko'krak qafasidagi og'riq, boshni o'lchash, ogizni asbob yordamida tekshirish, burun (devorchalarini) asbob yordamida ko'rish, bosh miyani rentgen yordamida tekshirish, qo'l va oyoq xastaligi, tishlar xastaligi, bosh miya xastaligi, tish og'rig'i, burun xastaligi, bo'g'imirlar xastaligi, yurak xastaligi.

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. *Omne vivum ex cellulae.* Barcha tirik mavjudot hujayradan iborat.
2. *Homo locum ornat,  
non hominem locus.* O'rin insonni e'mas, inson o'rinni bezaydi.
3. *Optimum medicamentum  
quies est.* Osoyishtalik eng yaxshi doridir.

### 40- §. KLINIK ATAMALAR YASASH

**Maqsad.** Yuqorida keltirilgan sufikslarning va yangi yunon—lotin dubletlarini hamda AE larning ma'nolarini o'rganish; murakkab va qisqartma so'zlarni tahlil qilish va yangi murakkab atamalar yasash ko'nikmalarini o'stirish.

**Klinik atamashunoslikda eng ko'p qo'llanadigan lotin suffikslari:**

Suffikslar	Ma'nosi	Misollar	Ma'nosi
<i>-osis</i> <i>-iasis</i>	Yallig'lanishdan tashqari kasallik, hujayralar miqdorining ortib ketishi, patologik jarayon va uning natijasi	stenosis	torayish
		sclerosis	zichlashish, qattiqlashish
		toxicosis	zaharlanish
		lithiasis	tosh hosil bo'lishi
		psoriasis	terining toshmalij kasaliliklari
<i>-ismus</i>	O'zak ma'nosi bilan bog'liq patologik holat yoki ko'rinish	Infantilismus	jismoniy yoki aqliy jihatdan bola yoshi darajasida qolish
		Virilismus	ayollarda erkaklarga xos belgilarning paydo bo'lishi
<i>-itis</i>	Yallig'lanish	Arthritis	bo'g'imlarning yallig'lanishi
		Stomatitis	ogiz bo'shilig'ning yallig'lanishi
<i>-oma</i>	O'sma, shish	Osteoma	suyak to'qimalaridan hosil bo'lgan o'sma
		Neuroma	nerv tolalaridagi o'sma

## 41- §. YUNON-LOTIN DUBLETLARI VA YAKKA ATAMA ELEMENTLARI

<b>Yunon AE</b>	<b>Lotincha so'zlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
splanchno- (splanchna pl)	viscera, pl	ichki a'zolar
gastro-, gastria (gaster,gastros)	ventriculus, i m	me'da, oshqozon
entero- (enteron, entera pl)	intestinum, i n, intestina, pl intestinum tenuer	ichak ingichka ichak
laparo-(lapare)	abdomen, inis n venter, ntris m	qorin
procto-(proktos)	anus, i m rectum, n	orqa chiqaruv teshigi to'g'ri ichak
pneumo-, pneumono- (pneumon)	pulmo, onis m	o'pka
nephro- (naphros)	ren, renis m	buyrak
spleno- (splen)	lien, enis m	taloq
pyelo-(pye.os)	pelvis renalis	buyrak jomchasi
cysto- (kystis)	vesica, ae f vesica urinaria	pufak siyidik pufagi
cholecysto- (chole - doche) (-kystis)	vesica fellea s.v. biliaris	o't pufagi
choledoco- (chole - doche)	ductus choledochus	o't oqimi
metro-, metra, -metrium, (metra) hystero-(hustera)	uterus, i m	bachadon
omphalo-(omphalos)	umbilicus, i m funiculus umbilicalis	kindik
typhlo-(typhon)	c (a) ecum, i n	ko'r ichak
dacryocysto- (dacryon+kystis)	saccus lacrimalis	ko'z yoshi qopchasi
colpo-(kolpos)	vagina, ae f	qin
oophoro-(oophoron)	ovarium, i n	tuxumdon
oo -(oon)	ovum, i n	tuxum
salpingo (salpinx, salpingos)	tuba uterina tuba auditiva	bachadon nayi eshitish nayi
trachelo- (trachelos)	cervix, icis f (uteri)	bachadon bo'yinchasi
orchi-, orchidi-, orchidia, -orghia (orchis; orchidion)	testis, is m	moyak

## 42- §. ORGANLARDAGI VA TO'QIMALARDAGI PATOLOGIK O'ZGARISHLARNI, TERAPEVTIK VA XIRURGIK USULLARINI IFODALOVCHI YUNON ATAMA ELEMENT

Yunon AE	Ma'nosi
A. -atria, -iater (atria; iatros)	davolash, vrach
-ectasia, -ectasis (ektasis)	kengayish
-ptosis (ptosis)	pasayish, tushish
steno-, -stenosis (stenos, stenosis)	tor, torayish
sclero-, -sclerosis (skleros, sklerosis)	qattiqlash, zichlashish
-malacia (malakos, malakia)	yumshab ketish
-lysis, -lyt (lysis)	parchalanish
-plastica (plastike, plasso)	nafis operatsiyasi, qayta tiklash
-tomiz (tome)	kesib organni ochish
tomo- (tomos)	qatlam, kesma
-ectomia (ektome)	olib tashlash
-stomia (stoma, stomatos)	sun'iy teshik ochish
-pexia (pexis)	biriktirish, mustahkamlash
B.-schisis	parchalanish
-rhexis	yorilish
-deñis	mustahkamlash
-eurysis (euryys)	kengaytirish usuli
-eurynter (euryno)	kengaytiruvchi asbob
-clasia (klasits)	buzish
-centesis (kentesis)	igna sanchish
-privus	organni olib tashlash bilan bog'liq

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**1. Quyidagi atamalarni tarkibiy qismlarga ajratib ma'nosini tushuntiring:**

- 1) A. Acidosis (*acidum* — kislota), coniosis (yun. *konia* — chang), pneumoconiosis, ascaridosis, mycosis (yun. *mycos* — zamburug'), fibrosis (totali biriktiruvchi to'qimaning ortib ketishi), osteofibrosis, tuberculosis, lymphologia, lymphocytus, lymphocytosis, lymphocytoma, lymphoma, morphinismus, mercurialismus (simobdan surunkali zaharjanish), prostatismus (sindrom), arthrosis (surunkali kasallik), arthritis, nephrosis, nephritis, hepatosis (distrofik o'zgarish), hepatitis, cholangitis, spondylosis (distrofik o'zgarish), spondylitis, thrombocytosis, cretinismus (fr. *cretin* — kretin), amoebiasis, pyelitis, helminthosis, silicosis (*silicium* — kremlin).

**myocardium, myocardiosclerosis, myocardiosclerosis, myositis, myoma, myoblastoma, ventriculitis, thrombosis, rhinitis, thrombocytus, thrombocytosis, sarcomatosis (sarcoma, atis n), papillomatosis, varicosis.**

**B. Omphalitis, typhlitis, oophoritis, dacryocystitis, trachelitis, cervicitis, salpingitis, orchitis, gonarthrosis, diverticulitis, mastoiditis, thyreotoxicosis, sigmoiditis, thyreocytus, thyreoiditis, gigantismus, ureteritis.**

**(2) Splanchnologia, gastroenterologia, intestinoplastica, ileocoloplastica, laparotomia, laparothoracotomy, gastrectasia, bronchoectasis, vagotomia, spondylotomia, enteroptosis, proctospasmus, hydrotherapia, pneumonopexia, stenocardia, ileosigmoidostomia, pylorostenosis, choledochoplastica, phthisiatria (yun. phthisis tuberkulyoz), choledochostomia, colostomia, acroparalysis, choledochogastrotomia, splenoptosis, hysteroscopia, tomographia, nephrotomographia, nephrostomia, splenitis, hepaticoduodenostomia, splenographia, osteomalacia, chondromalacia, splanchnoptosis, metroplastica, pancreatotomia, pancreatocholangiorengraphia, thoracolaparotomia, thoracogastroschisis.**

## **II. Be'ilgan AE lardan atamalar yasang va ma'nosini tushuntiring:**

- 1) -itis (gastr-, enter-, cholecyst-, nephro-)
- 2) -oma (odont-, osteo-, lip-, epiteli-)
- 3) -pneumo - (-ectasia, -ectomia, -malacia, -pexia)
- 4) -cysto - (-tomia, -stomia, -scopia, -graphia)
- 5) -plastica (rhino-, glosso-, gnatho-, choledocho-)
- 6) -raphia (laparo-, hystero-, procto-, cheilo-)

## **III. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

**A. Umurtqa pog'onasidagi og'riq, harakatchan buyrak fiksatsiyasi, bachadonning tushishi, bachadonni olib tashlash, buyrakka sun'iy teshik ochish, buyrak (parenximasini) kesish, chambar ichak fiksatsiyasi, chambar ichakni (ochish) kesish, chambar ichakka sun'iy teshik qo'yish, tish shishi, yo'g'on ichak spazmi, (harakatchan) taloq fiksatsiyasi; suyak, tog'ay, bosh miya, plastik operatsiyasi, o'pkarting kengayishi, tish travmasi, asoratlilariyes.**

**B. Qin, sigmasimon ichak, bo'shliq yallig'lanishi, qin va chot plastikasi, qin yorilishi, kindikni kesish, ko'z yosh xaltachasining yallig'lanishi, bachadon naylarining rentgenografiyası, bachadon naylari va tuxumdonning yallig'lanishi, operatsiya yo'li bilan bachadon nayida teshik ochish, ~~qin~~ kengayishi, suyak sinishi, to'g'ri ichakni kengaytiruvchi asbob, umurtopning parchalanishi.**

## **IV. Quyidagi atamalarni lotinchcha yozing:**

**rinoplastika, nefrit, ~~x~~olesistotomiya, splanchnologiya, osteomalacia, stenokardiya, enterostomiya, gisteroptoz, tomografiya, proktostenoz, pneumonopeksiya, encefalit, litiaz, splenorafiya, pediatriya, odontoma.**

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. Asinus asinorum,  
in saecula saeculorum.
  2. Bene diagnoscitur, bene curatur.
  3. Hygiena amica valetudinis.
- Kuchuk boqsang it,  
xo'tik boqsang eshak bo'lur.  
To'g'ri aniqlangan kasallik  
to'g'ri davolanadi.  
Ozodalik sog'liqning  
dugonasidir (garovidir).

### 43- §. KLINIK ATAMALAR YASASH

- a) To'qimalar, organlar, suyuqliklar, sekretlar, jins hamda yoshni ifodalovchi yunon—lotin dubletlari.
- b) Funksional va patologik holat hamda jarayonlarni ifodalovchi yakka AE lar.

**Maqsad.** Yangi yunon—lotin AE larning ma'nolarini bilish; turli ma'no anglatuvchi atamalar yasash va ularni tarkibiy qismlarga bo'lib tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shakkantirish.

**Quyidagi yunon—lotin dubletlari va yakka AE larni yodlang:**

Yunon AE	Lotincha so'zlar	Ma'nosি
A. haemo-, haemato-, aemia	sanguis, inis m	qon
histo-, histio-	textus, us, m	to'qima
myo-, -mysium	musculus, i, m	muskul
cyto-, -cytus (kytos)	cellula, ae, f	hujayra
chondro- (chondros)	cartilago, inis f	tog'ay
cele (kele)	hernia, ae, f	churra
neuro-, neuri- (neuron)	nervus, i m	nerv, asab
adeno- (aden)	1) glandula, aef 2) nodus lymphaticus (lymphonodus)	bez limfa tuguni
angio (angeion)	vas, vasis n vasculum, i n	tomir
blasto-, blastus (blastos)	germen, inis n	pusht
phlebo- (phleps, phlebos)	vena, ae f	tomir
teno- (tenon)	tendo, inis, m	pay
dermo-, dermato-, dermia (derma, atos)	cutis, is, f	ten
uro-, -uresis, -uria (uron)	urina, ae f urinarius, a, um	siyidik
chole-, -cholia (chole)	fel, fellis n bilis, is f	o't, safro

chylo-, chylia (chylos)	lympfa, ae f	limfa
pyo (pyon)	pus, puris n	yiring
hidro- (hidros)	sudor, oris m	ter
hydro- (hydor, hydratos)	aqua, ae f	suv
toxo-, toxicо-, toxи-	venenum, i n	zahar
(toxon, toxicon)		
litho-, -lithiasis (lithos)	calculus, i m	tosh
onco- (oncos, oncoma)	tumor, oris m	shish
myelo-, -myelia(myelos)	medulla spinalis	orqa miya
	medulla ossium	suyak ko'migi
masto-(mastos)	mamma, ae f	sut bezi
oto-, -otia(us,otos)	auris, is f	quiloq
ophthalmo-, -ophthalmia	oculus, i m	ko'z
(ophthalmos)		
sphygmo-, sphygmia	pulsus, us,m	tomir urishi
gyno-,gynaeco-(gyne,	femina, ae f	ayol
gynaicos )	femininus, a, um	erkak
andro-, -andria (ander,	mas, maris m	
andros)	masculinus, a, um,	
	vir, i m	
paedio-, paedо- (pais,	infans, ntis m, f	bola
paidos, paedion)	puer, eri m	davolash usuli
paedia (paidea)		
geri-,gero-,geronto-	senex, senis m	keksa
(geron,gerontos)	senilis, e	
topo- (topos)	locus, i m	o'rin
pharmaco- (pharmacon)	medicamentum, i n	dori
B. tricho-, -trichia	papillus, i m	soch
onycho-, -onychia	unguis, is m	tirnoq
dacryo- (dacryon)	lacrima, ae f	ko'z yoshi
sialo-, -sialia (sialon)	saliva, ae f	so'lak
Sopro-, ( kopros )	faeces, ium f (pl)	axlat, najas
	stercus, oris n	
galacto-(gala,galactos)	lac, lactis n	sut
lipo- (lipos)	adeps, ipis m	yog'
op-, -opt-, optico-,	visus, us m	ko'rish
opia, -opsia (ops, opos)	visio, onis f	
phaco-, -phakia (phacos)	lens, lentis f	ko'z gayhari
blepharo- (blepharon)	palpebra, ae f	govoq
kerato-(keras,atos por)	cornea, ae f	shox pam'a
phono-, -c phonia(phone)	vox, vocis f	toyush
	sonus, i, m	

**44- §. FUNKSIONAL VA PATOLOGIK HOLAT HAMDA  
JARAYONLARNI IFODALOVCHI YAKKA  
ATAMA ELEMENTLAR**

<b>Yunon AE</b>	<b>Ma'nosি</b>
<b>A.</b> bio- (bios)	hayot
pnoë, -pnoëa (pnoe; pnoia)	nafas
geno-, -genesis, -genesis, -genia (genos, genesis)	tug'ilish, rivojlanish
aesthesia-, -aesthesia (aesthesia)	sezish
astheno (asthenes, asthenos, asthenia)	kuchsizlik, toliqish
spiro- (spiro, spiratum)	nafas olish
pneumo-, pneumato (pneuma, atos)	organdagi havo, gaz
aéro- (aer, aeros; aer, aeris)	havo
kinesia, kinemato-, kinemo-,	harakat
kineto- ( kinesis )	
crin-, -crinia (krino)	ajralib chiqish
penia (penia)	yetishmaslik
cytosis (cytus osis)	hujayra miqdorining ortishi
rhoa (rhoia, rhoe, rheo)	oqish
rhagia (rhaga, haemorrhagia)	qon ketish
stasis (stasis)	to'xtash
tono-, -tonia (tonos, tonus)	tonus, bosim
plasia (plasis)	shakllanish
tensio (tensi)	gidrostatik bosim
tropho-, -trophia (tropho)	oziqlanish
oxy-, oxia (oxys, oxygenium)	kislород
phago-, -phagia (phagia)	yutish
philo-, -philia (phielo, philia)	moyillik
phobo-, -phobia (phobos)	qo'rqish
tropo-, -tropia (tropos, trope)	yo'nalish
psycho-, -psychia (psyche)	ruh, ruhiyat
<b>B.</b> -plegia (plege)	falaj
aetio- (aitia)	sabab
athero- (atheros)	yog'simon modda
morpho-, -morph- (morphe)	tuzilish
ergo-, -ergia, -urgia (argon)	faoliyat
dynamo-, -dynamia (dynamis)	kuch
gnosis, -gnosia (gnosis)	bilish
po (i) ēsis, -po (i) et ( poiesis )	ishlab chiqarish
mnesia ( mnnesia )	xotira
phreno-, -phrenia (phren)	aql, idrok, es, hush
phrenico- (nervus phrenicus)	diafraggama oid

## **Eslatma:**

1. «pneumo» boshlang'ich AE i organ nomi bilan birikma holda qo'llanganda, shu organda havo borligini bildiradi. Agar atamada «graphia» AE i bo'lsa «pneumo» kontrast rentgenografiyasi maqsadida organga gaz yuborilishini ifodalaydi. «O'pka» tushunchasi odatda «pneumon» bilan, ba'zi hollarda esa «pneum» negizi bilan ifodalanadi.

2. «haemo» yoki «haemato» boshlang'ich AE organ nomi bilan birikmada kelsa, shu organ bo'shlig'iga qon quyilishini bildiradi. Bunda organ nomi qoidaga binoan bosh kelishikda suffikssiz qo'llanadi (haematocolpos). Organ bo'shlig'ida suyuqlik yoki yiring to'planishini ifodalovchi atamalar ham shu yo'sinda yasaladi (*hydrometra* – bachadonda suyuqlik bo'lishi).

## **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

### **I. Berilgan atamalarni tarkibiy qismalg'a ajratib ma'nosini tushuntiring:**

A.1) Haemolysis, haemotherapya, haemostasis, empyema, haemangioma, haemangiomatosis, haemarthrosis, haematologia, haematoma, haematonephrosis, azotaemia, cholaemia, uraemia, haematuria, urohaematoma, ureteritis, vasoresectio, vasotomia, ectopia, vasoconstrictio, myoma, myoblastus, thymocytus, myoblastoma, perimysium, endomysium, acrohidrosis.

2) Myocardium, myometrium, carcinosarcoma, cytopenia, hydraemia, lymphocytus, lympho(cyto)penia, hydrarthrosis, lymphorrhoea, chondroblastus, chondroblastoma, chondrogenesis, herniorrhaphia, perivasculitis, epicranium, epipharynx, gastrocele, meningocele, anaemia, toxæmia, myasthenia.

3) Neurosis, neuritis, neuroma, neurolysis, angioneurosis, adenotomia, lymphadenitis, lymphangitis, hyperaemia, lymphadenoma, lymphangioadenographia, hidradenitis, anhidrosis, aesthesiologia.

4) Angiectasia, phlebectasia, anaesthesia, hypaesthesia, phlebosclerosis, erythroblastus, ovocytes, dermatosis, dermographia, mesodermia, periderma, dermatitis, dermatostomatitis, sphygmographia, ureterolysis, pneumolysis, pneumomalacia, lithotomy, lithiasis, cholelithiasis, urolithiasis, broncholithus, broncholithiasis, dysfunctio, chylothorax, chyluria, chylocele.

5) Pyodermia, pyaemia, pyorrhoea, pyothorax, pyuria, pyometra, dyscrinia, secretio, incretio, endocrinologia, haemorrhagia, gastrorrhagia, odontorrhagia, oncogenesis, oncogramma.

6) Synostosis, myelopathy, aplasia, hyperplasia, dysplasia, metaplasia, myelodysplasia, mesodendron, myelosis, osteomyelitis, mastoptosis, hydrocephalia, otoneurologia, otitis, ophthalmologia, cholekinesis,

hypopituitarismus, ductus bilifer, vesica biliaris, vesica fellea, gynaecologia, paediatrica, logopaedia, chondrocytus, haemocytus, gerontologia, hydrophilia, hydrophobia, geriatrics.

7) Aphoë, hypopnoë, pneumocephalia, tenorrhaphia, aërohaemotherapya, pneumographia, respiratio, inspiratio, pneumoarthrosis, sphygmogramma, atrophyia, dystrophyia, hypertrophyia, vagotropus, anoxia, hypoxia, haemophilia, aërophagia, aërotherapia, ophthalmorheographia.

B. 1) Anergia, synergia, asynergia, hypergia, chirurgia, chondrodysplasia, tenodesis, atrichia, anonychia, onychorrhexis, dacryoadenitis, dacryolithus seu calculus lacrimalis, hyperdynamia, hypodynamia, amnesia, sialoadenitis, sialorrhoea, coprostasis, galactostasis, lipoma, dysmorphosis, pyoophoritis, pyosalpinx, pyovarium, morphologia, phacomalacia, blepharitis, keratoma, keratosis, keratitis, asthenopia, biopsia.

✓ 2) Cardioplegia, ophthalmoplegia, hypertrichia, aphonia, sphygmonia, aethiologia, aethiopathogenesis, phrenicotomia, schizophrenia, paraphrenia, phacomata, phacomatoses, lipodystrophyia, dacryocystographia, dacryocystorhinostomia, hydrorrhachia haemopoesis.

## II. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:

1. Ter bezlarida hosil bo'ladigan o'sma, ayrisimon bez to'qimalarida hosil bo'ladigan o'sma, siydikda gemoglobinning bo'lishi, qon tarkibida safroning bo'lishi, tomirdagi tosh, yog' bezlaridagi o'sma, yutishning qiyinlashuvi, perikardda qon va yiring to'planishi, muskul kuchsizligi, qon haqidagi fan, hujayralar patologiyasi, terining yallig'lanishi, rivojanishning buzilishi, ingichka ichak tutqichi, limfa tomirlarining yallig'lanishi, limfa tugunlarining yallig'lanishi, qon bilan davolash.

2. Sut bezining (oshqozon osti bezining, vena tashqi qavatining, vena ichki qavatining, oshqozon osti bezi atrofining) yallig'lanishi.

3. Limfositlar miqdorining ortishi, o'tning to'xtashi, qonning to'xtashi, harakatning buzilishi, bachadondan qon ketishi, hujayradan tashqari, oziqlanishning buzilishi, sezuvchanlikning buzilishi, tomirlarning torayishi, qon bosimining pasayishi, nafas olishning pasayishi.

## III. Organ nomlarini lotincha yozing:

Me'daning chiqish qismi, jigar, o'n ikki barmoqli ichak, qorincha, qizilo'ngach, halqum, hiqildoq, kekirdak, qorin pardasi.

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. *Consuetudo est altera natura.*
2. *Habitus aegroti.*
3. *Ignoti nulla curatio morbi.*

- Tarki odad amri mahol.  
Bemorning tashqi ko'finishi.  
Aniqlanmagan kasallikni davolash mumkin emas.

## 45- §. KLINIK ATAMALAR YASASH

**Turli fizik xususiyat, sifat, munosabat va boshqa belgilarni ifodalovchi yakka AE lar.**

**Maqsad.** Yangi yunon—lotin AE larini bilish. Ular yordamida klinik atamalar yasash va tahlil qilish ko'nikmalarini o'stirish.

**Quyidagi jadvalni yodlang:**

<b>Yunon AE</b>	<b>Ma'nosi</b>
A. auto (autos)	o'z, xususiy
allo (allos)	boshqa
hetero (heteros)	har xil
homeo, homo (homoios,	bir xil
iso- (isos)	teng
aniso- (anisos, an+isos)	noteng, teng emas
neo- (neos)	yangi
tele-, teleo-, telo- (tele, telos)	olis, masofada
pseudo- (pseudos)	soxta, yolg'on
ortho- (orthos)	to'g'ri
xero- (xeros)	quruq
cryo- (kryos)	muzdek, o'ta sovuq
thermo-, -thermia (therme, thermos)	issiq, yuqori harorat
pyr-, pyro-, pyreto- (pyr, pyretos)	o't, olov
macro- (macros)	yirik
micro- (micros)	kichik
megalo-, -megalia (megas, megalu)	kattalashgan
oligo- (oligos)	yetishmas, kam
poly- (poly, polys)	ko'p, ortiq
pan-, panto- (pan, pantos)	to'la, bari
brachy- (brachys)	qisqa
brady- (bradys)	sekin
tachy-, tacho- (tahys, tachos)	tez
chromo-, chromato-, -chromia	rang, bo'yoq
leuco- (leucos)	oq
erythro- (erythros)	qizil
cyano- (kyanos)	ko'k
melano- (melas, melanos)	qora, to'q
glyco-, gluco-, (glycys)	shakar, shirin qand
B. pachy- (pachus)	zich
lepto- (leptos)	nozik, nafis
dolichos- (dolicos)	uzun
bary-, baro- (barys, baros)	og'ir

bathy-, batho- (bathys, bathos)	chuqur
platy- (platys)	yassi
hemi- (yun.), semi- (lot.)	yarim, birtomonlama
chloro- (chloros)	yashil
xantho- (xanthos)	sariq
polio- (polios)	kulrang
necro- (necros)	o'lik

**Eslatma:** *auto-*, *allo-*, *xeno-* boshlang'ich AE lari -*plastica* va *trans-* (ko'chirib o'tkazish) komponentlari bilan kelgan birikmada quyidagi ma'noga ega: *auto* — organizmning o'zidagi organ yoki to'qimalaridan foydalanish, *allo* — boshqa odamning organ yoki to'qimalaridan foydalanish, *xeno* — hayvon organlari yoki to'qimalaridan foydalanish.

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**I. Quyidagi atamalar uchun umumiy AE ni ajrating, atamalarning ma'nosini tushuntiring:**

- |                 |                  |
|-----------------|------------------|
| 1. hyperthermia | 2. glucosuria    |
| hypothermia     | glycaemia        |
| diathermia      | hyperglycaemia   |
| isothermia      | hypoglycaemia    |
| anisothermia    |                  |
| 3. hemialgia    | 4. panarthritis  |
| hemianopsia     | panhysterotomia  |
| hemiatrophyia   | panalgia         |
| hemiplegia      | pancarditis      |
| hemicrinia      |                  |
| 5. leucopenia   | 6. polyuria      |
| Leucopoesis     | polydactylia     |
| leucocytosis    | polyneuritis     |
| leucosis        | polyavitaminosis |
| leucocyturia    |                  |
| 7. macroglossia | 8. tachycardia   |
| macrocephalia   | tachyphagia      |
| macromastia     | tachysphygmia    |
| macropodia      |                  |

**II. Nuqtalar o'rанин to'ldiring: ✓**

- |                     |               |
|---------------------|---------------|
| sekin yutish        | — ...phagia   |
| yassi bosh          | — ...cephalia |
| 'uzun barmoq        | — ...dactylia |
| qizil qon tanachasi | — ...cytus    |

siydiq bilan melanin ajrab chiqishi	— ...uria
jigarning kattalashuvi	— ...hepatobiliary
terining quruqlab ketishi	— ...dermatitis
tishning yetishmasligi	— ...odontitis
murdadan qo'rqish	— ...phobia
o'z qoni bilan davolash	— ...haemotherapy
soxta torayish	— ...stenosis
qisqa nafas	— ...pnoe
chuqur nafas	— ...pneumonia

#### **IJ. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

Keksalar haqidagi fan, sut bezini olib tashlash, sut bezi sohasidagi og'riq, havoni yutish, qonda insulinning kam bo'lishi, qonda kaliyning kamayishi, hamma arteriyalarning yallig'lanishi, siydiq ajratishning buzilishi, sezuvchanlikning ortishi, nafas olishning buzilishi, oziqlanishning buzilishi, gidrostatik bosimning ortishi, taloq razmerining kichikligi, jigarning kattalashuvi, ko'richakning kengayishi, qonda kislorod miqdorining kamayishi, yurak qisqarishining tezlashuvi, qonda eritrotsitlarning etishmovchiligi, o't pufagini rentgen yordamida tekshirish, siydiq pufagini tekshirish, bachadonning tushishi, bachadonni olib tashlash, siydi kning oz ajralishi, siydi kning ko'p ajralishi, qonda leykotsitlarning ortishi, pastki jag'ning kichik bo'lishi, yuqori jag'ning kichik bo'lishi.

#### **IV. Berilgan atamalarni lotincha yozing:**

Angiografiya, gipesteziya, endokrinologiya, eritrotsit, ezofagektaziya, pioderma, bradisistoliya, poliomiyelit, braxidaktiliya, oftalmoplegiya, takikardiya, leykopeniya, gipertrofiya, termofiliya, krioxirurgiya, telepatiya, sianoz, giperglikemiya.

#### **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

- |                                   |                              |
|-----------------------------------|------------------------------|
| 1. <i>In observatione.</i>        | Kuzatish davomida.           |
| 2. <i>Ars longa, vita brevis.</i> | Umr qisqa, san'at abadiydir. |
| 3. <i>Homo est mundi pars.</i>    | Inson dunyoning bir qismi.   |

#### **46- §. KLINIK ATAMASHUNOSLIK VA SO'Z YASASH BO'YICHA KONTROL ISHGA TAYYORGARLIK UCHUN MUSTAQIL ISH**

**Maqsad.** II bo'lim bo'yicha materiallarni takrorlash; turli so'z yasash vositalari yordamida klinik atamalar yasash, ularni semantik – tarkibiy tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlash.

#### **Metodik ko'rsatmalar**

1. Dubletlar, yakka AE lar, yunon–lotin prefiks va suffikslarini takrorlang.

2. Tibbiy atamashunoslikda ko'p ma'noli yoki bir-biriga o'xshash yaqin ma'noli AE larga alohida e'tibor bering.

3. Ma'lum ma'nodagi atamalar yasash ancha murakkab bo'lgani sababli, bu sohaga mustaqil ish davomida ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

## MASHQLAR

### I. AE larning ma'nosini og'zaki tushuntiring:

#### A1. uskunalar

audio-  
barestezio-  
bato-  
gemosito-  
kalori-  
mioestezio-  
oksigemo-  
tono-  
uro-  
algezi-  
steto-  
piro-  
pnevmotaxo-  
psixro-  
pulsotaxo-  
ezofago-  
gastroduoden-

+ -metr

#### A 2. uskunalar

endo-  
amnio-  
ano-  
kerato-  
laparo-  
laringo-  
oto-  
oftalmo-  
fotosisto-  
rektoro-  
steto-  
fonendo-  
telebato-  
uretro-  
xoledoxo-  
aerosisto-  
gastro-  
torako  
fotokerato  
entero

+ -skop

#### A 3. arthr-

cephal-  
encephal-  
ot-  
gloss-  
my-  
neur-  
nephri-  
cyst-  
cardi-  
gastro-  
rhin-  
lumb-  
odont-

+ -algia

#### A 4. cysto-

oesophago-  
deno-  
thoraco-  
laparo-  
phlebo-  
cholecysto-  
tonsillo-  
tracheo-  
spondylo-  
osteo-  
gastro-  
entero-

+ -toma

**A 5.**

-bacteriosis  
 -aesthesia  
 -genesia  
 -plasia  
 -topia  
 -ostosis  
 -uria  
 -hidrosis  
 -crinia  
 -menorrhoea  
**dys+** -pepsia  
 -pnoë  
 -proteinaemia  
 -thyreosis  
 -tonia  
 -trophia  
 -phagia  
 -functio  
 -cholia  
 -chromia  
 -morphopsia

**A 6.**

colo+  
 -pexia  
 -plastica  
 -pathia  
 -ptosis  
 -stasis  
 -stomia  
 -tonia  
 -kinesia

**B 1. chole-**

homeo-  
 bacterio-  
 hypo- (tananing pastki  
 qismidagi organ-  
 larida qonning  
 to'xtab qolishi)  
 lympho-  
 chylo-  
 sialo-  
 copro-  
 galacto-  
 uro-  
 haemo-

**B 2.**

colp (o)+  
 + -stasis  
 -eurisis  
 -eurynter  
 -itis  
 -graphia  
 -keratosis  
 -pexia  
 -po(i) esis  
 -rraphia  
 -tomia  
 -scopia

**B 3.**

makr(o) +  
 { otiya  
 podiya  
 xeyriya  
 sefaliya  
 daktiliya

**B 4.**

olig (o)+  
 -emiya  
 -arrit  
 -daktiliya  
 -kineziya  
 -pnoye  
 -steatoz  
 -freniya  
 -sitemiya  
 -uriya

## **II. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

Miya pardasining churrasi, nervni kesish, nervni tikish, nerv kasalligi, ko'p miqdordagi nervlarning yallig'lanishi, yiringga xos, bo'g'imlarning yallig'lanishi, limfa bezlarining yallig'lanishi, tog'ay to'qimalarining hosil bo'lishi, muskul tolalaridan hosil bo'lgan o'sma, tovushning yo'qligi, bronxlarning torayishi, bachadonni olib tashlash, buyrakning pasayishi, oshqozondan qon ketishi, suv bilan davolash, ruhiy kasallarni davolash, ruhga ta'sir etib davolash, ayol a'zolari kasalliklarini o'rganuvchi fan, so'lak oqishi, soch to'kilishi, siyidik tarkibida leykotsitlarning bo'lishi, qon to'xtashi, bir tomonlama og'riq, yurakning tez urishi, taloqning kattalashuvi, burunni tekshiradigan asbob, terining quruqshab ketishi, xotiraning yo'qligi, muskullarning toliqishi, o'ta sezuvchanlik, orqa miya kul rang moddasining yallig'lanishi.

## **III. Quyidagi nomlarning yunon—lotin dubletlarini aytинг:**

A. O'pka, muskul, bosh, nerv, tomir, vena, taloq, ogiz, suyak, tog'ay, suyak ko'migi, orqa miya, to'qima, hujayra, bez, limfa tuguni, ko'krak, bo'g'im, me'da, yo'g'on ichak, ingichka ichak, to'g'ri ichak, qorin, umurtqa, yurak, ko'z, qulqoq, burun, tish, buyrak, buyrak jomchasi, sut bezi, bachadon.

B. Qin, tuxumdon, bachadon nayi, kindik, oyoq, barmoq, ko'r ichak, siyidik pufagi, o't pufagi, o'pka.

## **IV. Berilgan atamalardagi teri ranglarini aniqlang:**

Melarosis, xanthosis, leucoderma, erythrodermia, chlorosis.

## **V. Yozma tarjima qiling:**

A. Gangrenoz adenit, infeksion adenit, submandibulyar adenit, gepatosellyulyar adenoma, seroz adenofibroma, teri osti emfizemasi, atrofik emfizema, o'pka arteriyasi emboliyasi, orqa miya emboliyasi, gernatogen xolangiiit.

B. Tuberkulyoz empiyemasi, arteriovenoz angioma, bosh miya gematomasi, orqa miya gematomasi, gemolitik koma, giperglikemik koma, yurak daxlizi asistoliyasi, mushaklarning surunkali atrofiyasi, limfa bezlari absessi, bo'g'im ichidagi sinish, prgressiv usmir falaji, yuzaki keratit, idionatik keratoz, oshqozonnig piloroantral rezeksiyasi, teri osti simfiziotomiyasi, terining ok atrofiyasi, yurak yorilishi yoki kardioreksis.

## **VI. Atamalarni AE ga ajratib ma'nosimi tushuntiring:**

Haematomyelia, splanchnomegalia, xenogenus (a,um), cholangioenterostomia, polyotia, chylothorax, anhidrosis, hypaesthesia, endophitus ( a,um), exophitus ( a,um), autopsyotherapia, erythrocytus, erythrocytosis, erythrophobia, bradypnoë, tachypnoë, bradysystolia, hemiparesis, osteoarthritis, osteogenesis, lymphadenitis, lymphangiitis, lymphangioma, lymphadenographia, lymphadenosis, glycolysis, lymphangiendothelioma,

lymphangiomatosis, lymphangiomyoma, lymphoma, lymphomatosis, lymphopenia, panserositis, lymphorhoea, lymphosarcoma, lymphosarcomatosis, lymphocytus, lymphocytoma, lymphocytosis.

## VII. Berilgan atamalarni lotincha yozing:

Giperkineziya, teleendoskopiya, platispondiliya, spondilodez, xoledoxo-duodenostomiya, xolangioenterostomiya, xolesistoyeyunostomiya, paratiereopriv, koloproktetomiya, psixortopediya, splenoortoxolangiografiya, miyeloradikulit, dekapitasiya, miyelosele, panmiyeloz, pantofobiya, psixoterapiya, megakolon, megalomastiya yoki makromastiya, megaloureter, megarektum, splenomegaliya, geterogen, poliuriya, geteroxromiya, melanoma, ksantoma, ksantopsiya, telerentgenografiya, xloroma, desensibilizatsiya, allomiyelotransplantasiya, degenerativ, neyrotrop, etiotrop, morfogenet, polimastiya, patogenez, ksenoplastika, kseroftalmiya, krioterapiya, krioxirurgiya, polispleniya, bradisfigmiya.

## 47- §. FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIK. AYRIM ASOSIY FARMATSEVTIK ATAMALAR

**Maqsad.** a) Asosiy farmatsevtik so'z yasash usullarini, dorilar va dori preparatlarning o'ziga xos tarkibini o'rghanish.

b) Dori-darmon nomlari, tarkibiy qismlarning bog'lanish xususiyatlari bilan tanishish.

Farmatsevtik atamaşunoslik «Farmatsiya» (yun. *pharmakeia* – dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori-darmonlar tarkibini o'rghanish, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori-darmonlar nomenklaturasi egallaydi.

### Masalan:

1. Dori-darmonlar – biron bir davlatning kasallikni oldini olish, aniqlash va davolash maqsadida qo'llash uchun kafolat beruvchi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda berilgan ruxsatnomaga ega bo'lgan moddalar yoki modda birikmali.
2. Dorivor moddalar – o'ziga xos kimyoiy birikmalar yoki biologik moddalarni namoyon etuvchi dori-darmonlar;
3. Dorivor o'simliklar xomashyosi – tabobatda qo'llash uchun ruxsat etilgan o'simliklar xomashyosi.
4. Dori shakllari – dori-darmon yoki dorivor o'simlikning qo'llash jarayonida davolovchi xususiyatlarini saqlab qolishni ko'zlab keltirilgan qulay holati.
5. Dori preparati – ma'lum bir shakliga keltirilgan dori-darmon;
6. Dorivor moddalar – dori-darmonlarning terapeutik, profilaktik yoki diagnostik ta'sir ko'rsatuvchi komponentlari.

7. Murakkab dori-darmonlar – bir dori shaklida belgilangan dozalarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dori-darmonlar.

### Dorivor moddalarning trivial nomlari

Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar ikki xil nomga ega:

1. Ilmiy yoki tizimli nom.
2. Trivial (lot. *trivialis* – odatdag'i) nom.

Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Lekin o'zining murakkablig'i, qiyinlig'i bilan retseptlarda, yorliqlarda, apteka savdosida qo'llash uchun noqulay hisoblanadi.

Trivial nomlar esa o'zining ixcham qisqa va soddaligi bilan amalda qo'llashga qulaydir.

Trivial nomlar	Ilmiy nomlar
Analgin	1-fenil-2,3-dimetil-4-metilamina-pirazolon-5-metansulfanat natriya
Fenasetin	1-etoksi-4-asetaminobenzol trano-9,13-dimetil-7
Retinol (vitamin A)	1,1,5-trimetilsiklogeksen-5-il-6/nonatetrayen-7,9,11, 13-ol

### Dori-darmonlarning trivial nomi turli so'z yasovchi tarkibga ega.

Uning asosini lotin yoki yunon tiliga mansub o'zaklar tashkil etadi. Bundan tashqari trivial nomlarni yasashda boshqa so'z yasash vositalari ishtirok etadi. Shunga ko'ra, trivial nomlar oddiy, yasama, qo'shma va qisqartma so'zlardan iborat bo'lishi mumkin.

**Masalan:**      Mentholum, Analginum,  
                   Papaverinum, Apisarthonum,  
                   Dimexidum, Sulfadimezinum.

Trivial nomlar yasashda eng ko'p qo'llaniladigan so'z yasash usuli abbreviatsiyadir (qisqartirish). Bunda ilmiy nom qisqartiriladi.

Trivial nomlar/ abbreviatura	Ilmiy nomlar
Dimexidum dimeksid	Dimetilsulfaksid
Aethacridinum etakridin	Laktat 2-etoksin-6,9-dinaminoakridin
Phenaminum fenamin	Sulfat d, 1-fenil 2-aminopropana N-fenilkarbomoid-3 (B-fenilizopropil)
Sydnocarbum sidnokarb	Sidnonimin

## 48-§. TRIVIAL NOMLARDAGI TARKIBIY QISMLAR

1. Tarkibiy qismlar taxminan anatomik, fiziologik va terapeutik xarakterdagи axborotni berishi mumkin.

Lotincha	O'zbekcha	Ma'nosi
-cor-, card-	-kor-, -kard-	yurakka ta'sir etuvchi, yurak tonusiga ta'sir etuvchi, toj tomirlarni kengaytiruvchi qon tomirlarni kengaytiruvchi, spazmolitik
-vas-, -angi-	-vaz-, -angi-	zararsizlantiruvchi, antisep tik og'riqsizlantiruvchi, analgetik
-sept-	-sept-	qon bosimini tushiruvchi
-dol-, -alg-	-dol-, -alg-	tinchlantiruvchi, sedativ
-pres (s)-, -ten (s)-	-pres (s)-, -ten	haroratni tushiruvchi, antipyretik
-sed-	-sed-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik
-pyr-	-pir-	erkak jinsiy gormonlaridan tayyorlangan
-aesthes-	-estez-	androgen
-test-, -vir-	-test-, -vir-	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi
-andr-	-andr-	zamburug'larga qarshi
-thyr-	-tir-	o't haydovchi
-myco-	-miko-	mikrobgaga qarshi
-chol-	-xol-	
-cid- (lot. <i>occidere</i> – o'ldirmoq)	-sid-	

### Masalan:

Corvalolum, Cardiovalenum, Valosedan, Apressinum, Angiotensinamidum, Promedolum, Sedalgin, Antipyrinum, Anaesthesiaenum, Testeronum, Agovirin, Androfort, Thyrotropinum, Cholosasum, Streptocidum, Mycoseptinum, Enteroseptolum.

### 2. Farmakologik axborot beruvchi tarkibiy qismlari:

Lotincha	O'zbekcha	Farmakologiyaga mansubligi
-sulfa-	-sulfa-	Antimikrob sulfanilamidlar
-cillin-	-sillin-	Antibiotik penitsillinlar
-mycin-	-misin-	Mikrobgaga qarshi antibiotiklar, Streptomyces va boshqa zamburug' shtammalaridan olinadigan mikrobgaga qarshi.

-cyclin-	-siklin-	Tetratsiklin hosilalari antibiotiklar
-barb-	-barb-	Uxlatuvchi – barbituratlar, barbiturat kislota hosilalari
-cain-	-kain-	Mahalliy og'riq qoldiruvchi
-cort-	-kort-	Kortikosteroidlar – buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari va ularning sintetik analoglari
-oestr-	-estr-	Estrogenlar – ayol jinsiy gormonlari va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar
-andr-	-andr-	Androgen steroidlar – erkak jinsiy gormonlari
-ster-	-ster-	va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar

**Masalan:** Sulfadimezinum, Penicillinum, Streptomycinum, Tetracyclinum, Barbamylum, Novocainum, Corticotropinum, Oestradiolum, Methandrostenolonum.

#### 49- §. DORI SHAKLLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Aërosolum, i n	aerozol
Granulum, i n	granula
Gutta, ae f	tomchi
Unguentum, i n	surtma
Linimentum, i n	suyuq surtma
Pasta, ae f	tarkibida 20–25% kukunsimon moddasi bo'lgan surtma
Emplastrum, i n	malham
Suppositorium , i n	shamcha
Pulvis, eris m	kukun
Tabuletta, ae,f	tabletka
Tabuletta obducta	po'st qoplangan tabletka
Dragee (fr.)	draje (fransuzcha)
Solutio, onis f	eritma
Suspensio, onis f	suspenziya
Emulsum, i n	emulsiya
Pilula, ae f	hab dori
Tinctura, ae f	nastoyka
Infusum, i n	damlama
Decoctum, i n	qaynatma
Sirupus, i m (mediciinalis)	sharbat (dorivor)
Species, ei f (ko'p. Species, erum f)	yig'ma

Capsula, ae f	kapsula
C. gelatinosa	jelatinli kapsula
C. amylacea seu oblata	kraxmalli yoki o'ramli kapsula
Membranula ophthalmica seu	
Lamella ophthalmica	ko'z plenkalari
Extractum, i n	ekstrakt

### Preparat nomlarida dori shaklining ifodalanshi

Agar dori shakli preparat nomi bilan ifodalansa birinchi o'rinda dori shaklining nomi, ikkinchi o'rinda esa qaratqich kelishigida dori-darmonning nomi qo'llanadi.

<b>Masalan:</b>	Unguentum Streptocidi	- Streptotsid surtmasi
	Solutio Novocaini	- Novokain eritmasi
	Tabulettae Analgini	- Analgin tabletkalari

Murakkab dori-darmon nomlari dori shaklining nomiga ilova tarzida bosh kelishikda qo'shtirnoq ichida beriladi.

<b>Masalan:</b>	Unguentum «Calendula»	- «Kalendula» surtmasi
	Tabulettae «Urosalum»	- «Urosal» tabletkalari

Dori shaklini belgilovchi moslashgan aniqlovchi preparat nomida oxirgi o'rinda qo'llanadi va dori shakli bilan moslashadi.

<b>Masalan:</b>	Unguentum Hydrargyri cinereum	- Simobning kulrang surtmasi
	Extractum Belladonnae spissum	- Belladonnaning quyuq ekstrakti

Qaynatma va damlama nomlarida xomashyo nomi dori shakli hamda o'simlik nomlari o'rtasida qaratqich kelishigida qo'llaniladi.

### Masalan:

Infusum radicis Valerianae	- Valeriana ildizining damlamasi.
Decoctum rhizomatis Tormentillae	- g'ozpanja ildizpoyasining qaynatmasi.

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**I. Dorivor moddalar va prepartlar nomini o'qing, Sizga tanish bo'lgan tarkibiy qismlarni AE, qo'shimchalarini ajrating va tarjima qiling.**

**1.** Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcocolysinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolum, Mammophysinum, Oestronum, Erythromycinum, Aevitum, Valosedan, Diiodthyrosinum, Chlorophthalmum, Methicillinum, Kanamycinum, Cholosasum.

**2.** Rifamycinum, Novurit, Sulfacidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolum, Urodanum, Adrenalinum seu Epinephrinum, Gonadotropinum, Somatotropinum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Enterodesum, Haemophobinum, Panangin, Quadevitum.

~~3.~~ Synoestrolum, Gentamycinum, Phenobarbitalum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycetinum, Mycoseptinum, Myelosanum, Glycerinum, Glucosum, Asthmaatinum, Anaesthesiainum, Hydrocortisonum.

## **II. Dorivor moddalar nomini lotincha transkripsiyada yozing.**

1. Streptotsid, heparin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, dikloksatsilin, dikain, korvalol, insulin, nitroglitserin, rezorsin, raunatin, rezerpin, validol, neodikumarin, papaverin, akrixin, antotsit, angiotenzinamid.

2. Tetratsiklin, penitsillin, xinin, bruneomitsin, olivomisin, amidopirin, piromekain, kardiovalen, oraza, rutin.

## **III. O'qing, tarjima qiling, preparat nomlarining grammatik strukturasini tushuntiring.**

1. Solutio Strophanthini, tabulettae Prednisoloni, granula Orasi, tabulettae Octoestroli, tabulettae Pantocrini, unguentum «Psoriasisinum», species antiasthmatica, solutio Camphorae oleosa, emplastrum Epilini, Streptocidum solubile, solutio Streptocidi solubilis.

2. Suspensio «Cindolum», suppositoria vaginalia «Osarbonum», tabulettae Mycoheptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophthalmicum, linimentum «Sanitas», tabulettae «Cholenzymum», tabulettae «Praegoestrolum», flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulettae «Panhexavitum», dragee «Aevitum», species amarae.

3. Extractum placentae, tabulettae olei Menthae, folium Farfarae, radix Althaeae, sirupus Althaeae, solutio Dicaini, cortex Frangulae, emplastrum Plumbi compositum, tabulettae Varbamyli, extractum Leonuri fluidum, suppositoria «Anaesthesiaolum», tabulettae «Bellasthesinum», tabulettae Aloës obductae, infusum foliorum Digitalis, fructus Crataegi, chole conservata medicata.

## **IV. Tarjima qiling.**

1. Sharbatlar, ekstraktlar, eritmalar, yog'lar, damlamalar va qaynatmalar, shamchalar, murakkab kukunilar, urug'lar, gullar, ildizlar, oq ildizpoya, po'stloq, tomchilar, rutin tabletkalari, promeran tabletkalari, lyuternurin suyuk surtmasi, vazelin moyi, monomitsin tabletkalari, miyelosan tabletkalari, moychechak gullari, nitroglitserin tabletkalari, «Piramein» tabletkalari, dibiomitsin ko'z surtmasi.

2. «Flakarbin» granulalari, arpabodiyon yog'i, novokain eritmasi, «Undevit» drajesi, arpabodiyon mevasi, streptotsidning suyuq surtmasi, heparin surtmasi, arslonquyruq nastoykasi, eman po'stlog'ining qaynatmasi, chayon o't barglari.

③ Tetratsiklin surtmasi, daktinomitsin eritmasi, yodning spirtli eritmasi, «Kamfomen» aerozoli, follikulinning yogli eritmasi, eritilgan furagin, tinchlantiruvchi yig'ma, amidopirin va butadion tabletkalari, valeriana ildizining d'ımlamasasi, valeriana ekstraktining tabletkalari, marvaridgul o'ti.

### MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. *Pigritia est mater vitiorum.* Yalqovlikning oxiri xo'rlik.
2. *Repetitio est mater studiorum.* Takrorlash bilimlar onasi.
3. *Praemia cum poscit medicus satana est.* Agar vrach kasaldan mukofot talab qilsa, u iblisdir.

### 50- §. LEKSIK MINIMUM

cortex, icis m	po'stloq
flos, floris m	gul
folium, i n	barg
fructus, us m	meva
gemma, ae, f	kurtak
herba, ae, f	o't
radix, icis, f	ildiz
rhizoma, atis n	ildizpoya
semen, inis n	urug'

### 51- §. FE'L VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI

**Maqsad.** Fe'llarning buyruq va shart mayllarini yasash va ularning retseptura shaklarini bilish; fe'llarning o'zagini topish va tuslanishini aniqlash; buyruq va shart maylining ayrim shakllarini tarjima qilish ko'nikmalarini o'stirish.

Predmetning harakatini bildirib «nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?» so'roqlarga javob beradigan so'z turkumi *fe'l* deb ataladi. Lotin tilida fe'lllar shaxs, son va zamonda o'zgaradi. Fe'l 3 ta shaxs, 2 ta son (birlik va ko'plik), 6 ta zamon, 4 ta mayl, 4 ta tuslanishga ega:

Fe'llarning tuslanishi o'zakdag'i so'ngi unli bilan bir-biridan farq qiladi.

I tuslanish	II tuslanish	III tuslanish	IV tuslanish
-a	-e	undosh yoki -u	-i

### FE'LNING LUG'AT SHAKLI

Fe'lning lug'at shaklida yozilishiga ahamiyat bering.

1. Fe'l hozirgi zamon I shaxsda -o qo'shimchasi bilan to'liq yoziladi.
2. Fe'l noaniq shaklining oxiriga 3 ta harfi yoziladi.
3. Fe'lning tuslanishi raqam bilan ko'rsatiladi.

## Misollar:

Lug'at shakli	Tuslanish	Infinitiv	Olib tashlang	Negiz
do, dare	I	dare	Re	da
habeo, ere	II	habere	Re	habe
addo, ere	III	addere	Ere	add
diluo, ere	III	diluere	Ere	dilu
finio, ire	IV	finire	Re	fini

## BUYRUQ MAYLI (Imperativ)

Retsepturada buyruq mayli birlikda ishlataladi xolos. I, II, IV tuslanishlarda fe'lning buyruq mayli negizi bilan mos tushadi. III tuslanishdagi fe'lning negiziga unli «e» qo'shiladi.

Jadvalga e'tibor bering:

Lug'at shakli	Negiz	Buyruq mayli (birlilik)	Tarjima
signo,are 1	signa	signa	belgila
misceo,ere 2	misce	misce	aralashtir
recipio,ere 3	recip	recipe	ol
audio, ire 4	audi	audi	eshit

## SHART MAYLI

Shart mayli fe'l negizini o'zgartirish bilan yasaladi: I tuslanishda «a» «e» ga o'zgaradi. II, III, IV tuslanishlarda negizga «a» qo'shiladi.

Fe'lning ma'nosи	Lug'at shakli	Negiz	O'zgargan shakli
belgilamoq	signo, are 1	signa	signe
aralashtirmoq	misceo, ere 2	Misce	miscea
takrorlamoq	repeto, ere 2	Repet	repeta
tinglamoq	audio, ire 4	Audi	audia

## 52- §. RETSEPTURA FORMULIROVKALARI

Retseptning lotincha qismi buyruq maylidagi «Recipe» — «Ol» fe'l'i bilan boshlanadi. Uning lug'at shakli *recipio, ere 3* — «olmoq» bo'lib, retseptda shart maylida ishlatilmaydi.

## ESLAB QOLING:

### Buyruq mayli

Misce. Da. Signa.	—	Aralashtir. Ber. Belgila.
Sterilisa.	—	Sterilizatsiya qil.
Repete.	—	Takrorla.
Da tales doses.	—	Shunday dozalarda ber.
Adde.	—	Qo'sh.

### Shart mayli:

Misceatur.	—	Aralashtirilsin.
Detur.	—	Berilsin.
Signetur.	—	Belgilansin.
Sterilisetur.	—	Sterilizatsiya qilinsin.
Repetatur.	—	Takrorlansin.
Dentur tales doses.	—	Shunday dozalarda berilsin.

### 53- §. *fio, fieri* FE'LINING RETSEPTURA FORMULIROVKALARI

*fio, fieri* fe'li o'zbek tiliga «hosil bo'lmoq» deb tarjima qilinadi. Uning shart mayli quyidagicha hosil bo'ladi. «*f*» negiziga suf. «*a*» qo'shiladi va 3 shaxs birlikda *fiat* shakliga ega bo'ladi, 3 shaxs ko'plikda *fiant* shakliga ega.

### *fio, fieri* FE'LI BILAN QO'LLANADIGAN STANDART RETSEPTURA FORMULIROVKALARI

#### Birlik

1. Misce, fiat pulvis.	Aralashtir, kukun hosil bo'lsin.
2. Misce, fiat unguentum.	Aralashtir, surtma (maz) hosil bo'lsin.
3. Misce, fiat linimentum.	Aralashtir, liniment hosil bo'lsin.
4. Misce, fiat pasta.	Aralashtir, pasta hosil bo'lsin.
5. Misce, fiat emulsum.	Aralashtir, emulsiya hosil bo'lsin.
6. Misce, fiat suppositorium.	Aralashtir, sham hosil bo'lsin..
7. Misce, fiat suppositorium vaginale.	Aralashtir, vaginal shamcha hosil bo'lsin.

**Eslatma.** Bu formulirovkalarda *Misce* – Aralashtir fe'li buyruq maylida birlikda berilgan, shart maylida qo'llanmaydi.

## MASHQLAR

### I. Berilgan fe'llarning buyruq va shart maylini hosil qiling:

belgilamoq, tozalamoq, bermoq, davolamoq, aralashtirmoq, qillamoq, takrorlamoq, yashamoq, sog'lom bo'imoq, eshitmoq, qizishmoq.

### II. Atamalarni tarjima qiling:

Kseroform surtmasi, dibazol tabletkalari, yalpiz tindirmasi, papaverin eritmasi, yalpiz barglarining damlamasi, adrenalin eritmasi, galampir yalpiz moyi, amidopirin donachalarli, ixtiol surtmasi, evkalipt barglarining damlamasi, sulfadimezin tabletkalari, evkalipt moyi, kanakunjut moyining emulsiyasi, novshadil spirti.

### III. Gaplarni tarjima qiling:

- A) 1. 1,5 ml kanakunjut moyidan qo'sh.  
2. 30,0 kseroform surtmasini ol.  
3. 10 ml marvaridgul tindirmasini va 15 ml. valeriana tindirmasini aralashtir.  
4. 3 ml qalampir yalpiz moyidan qo'sh.  
5. 25,0 sintomitsin linimentidan ber.  
6. Kanakunjut moyining emulsiyasini ol.  
7. 10 ml adrenalin eritmasidan ber.  
8. 20 ml kanakunjut moyini sterilizatsiya qil.
  
- B) 1. Dibazol va papaverin berilsin.  
2. Shamchaldan 6 dona berilsin.  
3. Evkalipt moyi berilsin.  
4. Amidopirin eritmasi berilsin.  
5. Valeriana ildizining damlamasi berilsin.  
6. Novokain eritmasi sterilizatsiya qilinsin.  
7. Surtma (maz) takrorlansin.  
8. Ekstrakt berilsin.  
9. Vaginal shamchalar berilsin.

## MAQOLLARNI ESDA TUTING!

- 1. *Si invatur natura laudatur,  
si non invatur medicus accusatur.* Foyda bersa, tabiatni maqtashadi, foyda bermasa, vrachni ayplashadi.
  
- 2. *Verba movent, exempla trahunt.* So'zlar uyg'otadi, misollar o'ziga tortadi.
  
- 3. *Sol lucet omnibus.* Quyosh hammaga teng boqadi.

## 54- §. LEKSIK MINIMUM

### FE'LLAR

addo, ere 3	qo'shmoq, qo'shimcha qilmoq
audio, ire 4	eshitmoq
curo, are 1	davolamoq
do, dare 1	bermoq
finio, ire 4	tugamoq, tugatmoq
misceo, ere 2	aralashtirmoq
recipio, ere 3	olmoq
repeto, ere 3	takrorlamoq
salveo, ere 2	sog'lom bo'lmoq, salom bermoq (salomlashuvda ishlatiladigan fe'l)
signo, are 1	belgilamoq
steriliso, are 1	sterilizatsiya qilmoq
valeo, ere 2	sog'lom bo'lmoq (xayrlashuvda ishlatiladigan fe'l)
verto, ere 3	aylantirmoq, burmoq, o'girmoq, ag'darmoq

### DORIVOR O'SIMLIKLARNING NOMLARI

Convallaria, ae,f	marvaridgul
Eucalyptus, i,f	evkalipt
Mentha (ae, f), piperita(us,a,um)	galampir yalpiz <small>shelwuz</small>
Salvia, ae, f	mavruk
Valeriana, ae, f	valeriana

### DORILARNING NOMLARI

Adrenalinum, i, n	adrenalin
Amidopyrinum, i, n	amidopirin
Dibazolum, i, n	dibazol
Ichthyolum, i, n	ixtiol
Norsulfazolum, i, n	norsulfazol
Novocainum, i, n	novokain
Oleum(i,n) Ricini	kanakunjut moyi
Papaverinum, i, n	papaverin
Solutio Ammonii (um, i, n) caustici (us, a, um)	novshadil (ammoniy gidroksid) spirti
Sulfadimezinum, i, n	sulfadimezin
Synthomycinum, i, n	sintomitsin
Xeroformium, i, n	kseroform

## BOSHQA SO'ZLAR

rectificatus, a, um	tozalangan
spiritus, us, m	spirt
spirituosus, a, um	spirtli

### 55- §. KO'MAKCHILAR. RETSEPT VA UNING TARKIBI. KO'MAKCHILAR BILAN QO'LLANILADIGAN RETSEPTURA IBORALARI

**Maqsad.** Akkuzativ va Ablyativ bilan keladigan ko'makchilarning vazifalarini bilish; retsept yozish qoidalarini o'rganish.

Lotin tilida ko'makchilar ikkita kelishik: Akkuzativ va Ablyativda ishlataladi. Quyidagi ko'makchilarni Sizlar old qo'shimcha sifatida o'rganib oldingiz.

#### 1. Akkuzativda qo'llanadigan ko'makchilar:

ad (gacha, uchun, ichida)	20,0	—	20,0 gacha
ad usum internum		—	ichkariga qo'llash uchun
ad vitrum nigrum		—	qora shishada
contra (qarshi) — contra tussim		—	yo'talga qarshi
per (orqali) — per os		—	og'iz orqali
per inhalationem		—	ingalyatsiya yordamida
post		—	keyin
post mortem		—	o'limdan so'ng

#### 2. Ablativus bilan qo'llanadigan ko'makchilar

cum (bilan) — cum extracto	—	ekstrakt bilan
ex (-dan) — ex aqua	—	suvdan
pro (uchun) — pro injectionibus	—	ineksiya uchun

### 56- §. RETSEPTURADA ENG KO'P QO'LLANILADIGAN IBORALAR

ex tempore	—	talab darajasida, keragicha
in ampullis	—	ampulalarda
in capsulis	—	kapsulalarda
in oblatis	—	g'ilofchalarda
in spritz-tubulis	—	shpris-tyubiklarda
in tabulettis	—	tabletikalarda
obductis-	—	g'ilofchali tabletikalarda
in vitro	—	shishada
in vitro nigro	—	qora shishada
in vivo	—	tirik mavjudotda
per inhalationem	—	ingalyatsiya orqali

per os	- og'iz orqali
per rectum	- to'g'ri ichak orqali
per se	- toza holda
pro auctore (pro me)	- muallif uchun (o'zimga, men uchun)
pro die	- sutkalik dozasi
pro dosi	- bir marta ichish uchun
pro infantibus	- bolalar uchun
pro inhalatione	- ingalyatsiya uchun
pro injectionibus	- inheksiya uchun
pro narcosi	- narkoz uchun
pro r(o) entgeno	- rentgen uchun
pro <del>irradiatione</del>	<del>irradiatione uchun</del>

1- mashq. Nuqtalar o'mini kerakli ko'makchilar bilan to'ldiring:

methylenum coeruleum in capsul ..., solutio Oestradioli oleosa in ampull ..., Collargolum in vitr ... nigr ..., rhisoma cum radic ..., suppositoria cum extract ... Belladonnae, suppositoria cum Euphyllin ..., tabulettae contra tuss ..., tabulettae Dimedroli pro infant ..., aqua pro injection ..., oleum pro ingalation ..., praepara ex tempor ..., solutio Iodi ad us ... intern ..., Chloroformium pro narcos ..., remedium pro dos ..., pulvis pro suspension ..., solutio Dimedroli in spritz-tubul ... .

### 2- mashq. Tarjima qiling:

Dibazol eritmasi inheksiya uchun, ildizpoya valeriana ildizlari bilan, shamchalar dimedrol bilan bolalar uchun, yo'talga qarshi tabletkalar, furatsilin eritmasi tashqaridan qo'llash uchun, di profillin eritmasi ampuylarda, dimedrol eritmasi shpris tyubiklarda, kapsulalardagi kanakunjut moyi toza holda, narkoz uchun efir, validol tabletkalarda, «Aevit» kapsulalarda, amidopirin va fenatsetin tengma-teng 0,25, ampitsillin kukini suspenziya uchun.

### 3- mashq. Kerakli qo'shimchalarni qo'ying:

Recipe; Suppositori ... cum Ichthyol ... numero 10

Recipe; Tabulett... extract ... Valerian ... 0,02,02 obduct ... numero 50

Recipe; Spirit ... aethylic ... 95% – 20 ml Aqu ... pro injection  
... 10 ml.

Recipe; Pulver ... cum Oxytetracyclin ... pro suspen sion ... 30,0

## 57- §. RETSEPT STRUKTURASI

Retsept quyidagi qismlardan iborat:


1. Meditsina muassasasining shtamp va shifri.
2. Retsept berilgan sana.
3. Bemorning ismi, sharifi.
4. Bemorning yoshi.
5. Vrachning ismi sharifi.

6. Vrach murojaati va dori-darmonning miqdori.
  7. Bu lotincha qismda vrachning farmatsevtga dori shakli, uning dozasi, upakovkasi va dorini berish haqidagi aniq ko'rsatmasi yozilib, *Recipe* – Ol so'zi bilan boshlanadi.
  8. *Signa* so'zi va vrachning dorini qabul qilish usuli haqidagi kasalga ko'rsatmasi yoziladi.
  9. Vrachning shaxsiy imzosi va muhri.
- Retsepdag'i qo'shimcha quyidagi yozuvlar blankanining o'ng tomonida yuqori qismida yoziladi:
1. *Cito* – Darhol! yoki *Statim* – Tezlik bilan! (bemorga dori-darmonni shoshilinch berilishi zarurligini ko'rsatadi.)
  2. Repete! – Takrorla yoki Bis repetatur! – Ikki marta takrorlansin! yozuvlari uzoq davom etuvchi davolanishda dori darmoning bir necha bor takrorlanishi kerakligini bildiradi

### **Retseptning lotincha qismi**

**Resept** – **Recipe** – Ol fe'li bilan boshlanadi.

Sxemaga e'tibor bering.



Har bir dori-darmon yangi qatordan yoziladi. Qatorning boshlanishida *Rp*; dan keyin dorivor modda va o'simliklar nomi bosh harf bilan boshlanadi.

Dorivor moddalarning (preparatlarning) nomlari qaratqich kelishigida yoziladi. Dorivor moddamning soni (dozasi) Akkuzativda qo'llanadi.

Masalan: Recipe: Infusi herbae Thermopsisidis 0,1–100 ml.  
 Liquoris Ammonii anisati 1 ml.  
 Natrii benzoatis 0,6  
 Sirupi Althaeae 20 ml.  
 Misceatur. Detur. Signetur.

Ol: Afsonak yer ustki qismi damlamasi 0,1–100 ml.  
Novshadil spirti 1 ml.  
Natriy benzoat 0,6.  
Gulxayri sharbati 20 ml.  
Arallashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

Qattiq va sachratuvchi dorivor moddalar miqdori grammalar bilan belgilanadi «gramm» so'zi yozilmaydi, uning raqami o'nli kasr bilan ifodalanadi.

Masalan: Recipe: Unguenti Zinci 30,0.  
Ol: Rux surtmasi.  
Recipe: Anaesthesini 0,3.  
Ol: Anestezin 0,3.  
Recipe: Extracti Belladonnae 0,015.  
Ol: Krasavka ekstrakti 0,015.

#### Suyuq dorilarning miqdori millilitrda beriladi:

Recipe: Olei Vaselini 30 ml. (30,0)  
Ol: Vazelin moyi 30 ml. (30,0)  
Recipe: Extracti Crataegi fluidi 20,0  
Ol: Suyuq do'lana ekstrakti 20,0

Suyuq dorivor preparatning miqdori 1 ml kam bo'lsa, u tomchilarda dozirovka qilinadi va birlikda Akkuzativda (guttam), ko'plikda (guttas) yoziladi.

Masalan: Recipe: Solutionis Adrenalini hydrochloridi 0,1 guttas 1.  
Ol: Adrenalin gidroxloridining eritmasi 0,1 bir tomchi.  
Recipe: Olei Menthae piperitae guttas 5.  
Ol: Qalampir yalpiz moyi 5 tomchi antibiotiklar yozilganda dozirovka tasir birligida belgilanadi.  
Recipe: Benzylpenicillini-natrii 250 000 ED.  
Ol: Benzinpenisilin-natriy 250 000 TB.

#### Retseptlarda moddalarning miqdori qatorning o'ng tomonida yoziladi.

**Eslab qoling!** Ikkita yoki bir necha dorivor moddalar teng miqdorda berilsa uning dozasi oxirgi dorivor moddadan so'ng ko'rsatiladi va raqam oldida (tengma-teng – ana) so'zi yoziladi.

Recipe: Amidopyrini.  
Analgini ana 0,25.  
Da tales doses numero 12 in tabulettis.  
Signa.

Agar bir qatorga dorivor modda sig'masa unda yozuv yangi qatordan shunday yoziladi-ki, dorivor modda miqdori o'ng tomonida qolishi kerak.

### **Tabletka va shamchalarни yozishida Akkuzativ kelishigining qo'llanilishi**

1. Murakkab dori-darmon qo'shtirnoq ichida beriladi:

Tabulettae « Codterpinum ».

«Kodterpin» tabletkalari.

Suppositoria «Neo-Anusolum».

«Neo-Anuzol» shamchalar.

2. Tabletkalar bitta ta'sir etuvchi moddadan iborat bo'lsa, dori shaklidan keyin qaratqich kelishigida yoziladi:

Tabulettae Cordigit 0,0008

Kordigit tabletkalari 0,0008

3. Shamchalar bitta ta'sir etuvchi moddadan iborat bo'lsa uning nomi dori shakliga «cum» yordamida qo'shiladi va Ablyativda yoziladi, keyin doza belgilanadi.

Masalan: Suppositoria cum Cordigit 0,0012  
Shamchalar Kordigit bilan 0,0012

4. Retseptlarda tabletkalar va shamchalar qisqartirilib berilsa unda dori shaklini Akkuzativda ko'plikda yozishni unutmang.

Masalan: Tabulettas, tabulettas obductas, suppositoria, suppositoria vaginalia.

Tabletkalar, g'ilofchali tabletkalar, shamchalar, vaginal shamlar.

*Dragee* – draje degan fransuzcha so'z retseptlarda turlanmaydi.

### **Retseptlarda so'zlarning grammatik bog'lanishi**

nimani?

nima bilan?

Rp: Suppositoria cum

- a) Dorivor moddaning dozasi  
qaratqich kelishigida  
b) Trivial nomli preparat  
bosh kelishikda  
(Ilovasi qo'shtirnoqda beriladi).

numero ...

Qancha?

**Recipe:** Tabulettas Monomycini 0,25 numero 50.

Detur. Signetur.

**Ol:** Monomisin tabletkalari 0,25 50 dona.

Berilsin. Belgilansin.

**Recipe:** Tabulettas «Thepaphyllinum»numero 10.

Detur. Signetur.

**Ol:** Tepafillin tabletkalari 10 dona.

Berilsin. Belgilansin.

**Recipe:** Suppositoria cum Ichthyolo 0,2 numero 10.

Detur. Signetur.

**Ol:** Ixtiilli shamchalar 0,2 10 dona.

Berilsin. Belgilansin.

Shu zaylda ko'z plyonkalari ham *cum* ko'makchi yordamida Ablyativda yoziladi.

**Masalan:**

**Recipe:** Lamellas ophthalmicas cum Neomycini sulfato numero 30.

Detur. Signetur.

**Ol:** Ko'z plenkasi Neomitsin sulfat bilan 30 dona.

Berilsin. Belgilansin.

## 58- §. MASHQLAR

1. O'zbekcha so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling:

**Recipe:** Tabulettas (yo'talga qarshi) numero 12

**Recipe:** Tabulettas Furacilini 0,02

(tashqaridan qo'llash uchun).

**Recipe:** Aetheris (narkoz uchun) 100 ml.

**Recipe:** Solutionis Diprophyllini 10% – 5 ml.

Da tales doses numero 6 (ampulalarda).

2. Quyidagi retseptlarni tarjima qiling:

1. Ol: Valeriana ekstrakti 0,3.

Do'lana nastoykasi 0,15.

Ravoch nastoykasi 0,8.

Barbital-natriy 0,2.

Etil spiriti 20 ml.

Distillangan suv 200 ml gacha.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

2. Ol: Marvaridgul nastoykasi.

Valeriana nastoykasi tengma-teng 10 ml.

Nitroglitserin eritmasi 1% – 1 ml.

Validol 2 ml.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

3. Ol: Monomitsin 0,25  
Shunday dozalarda 10 dona ber.  
Belgila.
4. Ol: Barbital-natriy 0,5.  
Kakao moyi keragicha, shamcha hosil qiliш uchun.  
Shunday dozalarda 12 dona berilsin.  
Belgilansin.
5. Ol: Eufillin 0,1.  
Dimedrol 0,0125.  
Shakar 0,2.  
Aralashtir, kukun hosil bo'lsin.  
Shunday dozalarda 12 dona kapsulalarda ber.  
Belgila.

### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

#### **I. Tarjima qiling:**

qalampir yalpiz moyi, mavrak bargi, marvaridgul o'ti, valeriana nastoykasi, evkalipt moyi, belladonna ekstrakti, furatsilin pastasi, kordigitli shamchalar, tetratsiklin surtmasi, sintomitsin linimenti, novokainli vaginal shamchalar, ravoch ildizining kukuni, chayono't barglarining damlamasni, efir narkoz uchun, do'lana nastoykasi, itjumrut po'stlog'ining qaynatmasi, kordiamin shpris tyubiklarda inyeksiya uchun, ampulardagi pioesid, zig'ir urug'larining shillig'i, etil spirti, ergotal eritmasi inyeksiya uchun.

#### **II. Retseptni o'qing va tarjima qiling:**

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml.  
Signa.
2. Recipe: Codeini 0,5  
Siripi Althaeae 10,0.  
Aquaе destillatae 50,0.  
Signa.
3. Recipe: Solutionis Iodi spirituosaе 2 ml.  
Tannini 3,0.  
Glycerini 10 ml.  
Misce. Da. Signa.

#### **III. Tarjima qiling:**

1. Ol: Marvaridgul nastoykasi.  
Valeriana nastoykasi tengma-teng 10 ml.  
Suyuq do'lana ekstrakti 5 ml.  
Mentol 0,05.  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

2. Ol: «Novomigrofen» tabletkalari 12 dona.  
Berilsin. Belgilansin.
3. Ol: Sintomitsin linimenti 1%.  
Novokain bilan 0,5 % – 50,0.  
Berilsin. Belgilansin.
4. Ol: Dibazol eritmasi 5 ml.  
Shunday dozalarda ampulalarda 6 dona ber.  
Belgilansin.
5. Ol: Moyli nitroglitserin eritmasi 1% – 0,0005.  
Shunday dozalarda kapsulalarda 6 dona ber.  
Belgilansin.
6. Ol: Amidopirin.  
Analgin tengma-teng 0,25.  
Shunday dozalarda tabletkalarda 12 dona ber.  
Belgila.

### **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

<i>Qualis rex, talis grex.</i>	Mol egasiga o'xshamasa, xarom o'ladi.
<i>Non schola sed vitae discimus.</i>	Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyimiz.
<i>Mollities corpus debilitat.</i>	Yuki yengil bo'lsa, yotoq bo'ladi.
<i>Festina lente.</i>	Sekin shoshilgin.
<i>Male parte cito dilabuntur memoria.</i>	Yomon o'zlashtirilgan narsa, tezda yoddan chiqadi.
<i>Mare verborum, gutta rerum.</i>	So'zlar behisob, ish tayinsiz.

### **59- §. LEKSIK MINIMUM**

#### **Dorivor o'simliklarning nomlari:**

Belladonna,ae,f	belladonna, momaqaymoq
Crataegus,i,f	do'lana
Frangula,ae,f	itjumrut
Rheum,i,n	ravoch
Urtica,ae,f	chayono't

#### **Dorivor moddalarning nomlari:**

Aether,eris,m	efir
Barbitalum-natrium,i,n	barbital-natriy
Cacao	kakao
Cordigitum,i,n	kordigit

Dimedrolum,i,n	dimedrol
Di prophyllinum,i,n	di profillin
Euphyllinum,i,n	eufillin
Furacilinum,i,n	furatsilin
Mentholum,i,n	mentol
Nitroglycerinum,i,n	nitroglitserin
Phenacetinum,i,n	fenasetin
Saccharum,i,n	shakar
Tetracyclinum,i,n	tetratsiklin
Validolum,i,n	validol

### Boshqa so‘zlar:

aethylicus,a,um	etilga oid
aqua,ae,f	suv
destillatus,a,um	distillangan
fluidus,a,um	suyuq
obductus,a,um	gilof‘chali, po‘st bilan qoplangan
oleosus,a,um	moyli
quantum satis	keragicha
spiritus,us,m	spirt

## 60 · §. KIMYOVİY ELEMENTLARNING NOMLARI

**Maqsad.** Eng muhim kimyoviy elementlarning lotincha nomlarini bilish; lotin tilida kislota va oksidlarning nomlarini yasash ko‘nikmalarini o‘stirish.

Barcha kimyoviy elementlarning nomlari II turlanish sredniy roddagi otlar bo‘lib, faqat ikkita: *Sulfur,uris,n* (III turlanish) – oltin gugurt va *Phosphorus,i,m* – Fosfor kimyoviy elementlarning nomlari bundan istisnodir.

**Eslatma!** Kimyoviy elementlarning belgisi lotincha nomlardan olingan bo‘lib, ularning orfografik xususiyatini aks ettiradi: Ca – Calcium, Fe – Ferrum, K – Kalium va boshqalar.

### ASOSIY KIMYOVİY ELEMENTLARNING NOMLARI

Kimyoviy element	Lotincha nomi	O‘zbekcha nomi
Al	Aluminium i,n	alumin
Ag	Argentum i,n	kumush
As	Arsenicum i,n	mishyak
Au	Aurum i,n	oltin
B	Bromum i,n	brom

Ba	Barium i,n	baryi
Bi	Bismuthum i,n	vismut
C	Carboneum i,n	uglerod
Ca	Calcium i,n	kalsiy
Cl	Chlorum i,n	xlor
Cu	Cuprum i,n	mis
F	Fluorum i,n; seu Phtorum i,n(yunoncha)	/lot/ ftor seu
Fe	Ferrum i,n	temir
H	Hydrogenium i,n	vodorod
Hg	Hydrargyrum i,n	simob
I	Iodum i,n	yod
K	Kalium i,n	kaliy
Li	Lithium i,n	litiy
Mg	Magnesium i,n	magniy seu
	Magnium i,n	
Mn	Manganum i,n	marganes
N	Nitrogenium i,n	azot
Na	Natrium i,n	natriy
O	Oxygenium i,n	kislород
Pb	Plumbum i,n	qo'rg'oshin
Ph	Phosphorus i,m	fosfor
S	Sulfur, uris,n	oltingugurt
Si	Silicum i,n	kremniy
Zn	Zincum i,n	rux

## 61- §. KISLOTALAR

Kislotalarning lotincha nomlari ikkita so'zdan iborat: *acidum i, n* – kislota va mos kelgan sifat. Birinchi o'rinda ot, ikkinchi o'rinda sifat keladi. Sifat kislota nomini yasovchi element negiziga *-ic+um*, *-os+um* qo'shimchasi yordamida yasaladi.

*-icum* qo'shimchasi kislota tarkibida kislород miqdorining ortiqligini bildiradi va o'zbek tilidagi *-at-* qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Masalan: Acidum sulfuricum – sulfat kislota

*-osum-* qo'shimchasi kislota tarkibida kislород miqdorining kamligini bildiradi va o'zbek tilidagi *-it-* qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Acidum sulfurosom – sulfit kislota

Kislорodsiz kislotalarning nomlaridagi sifatlarning tarkibi quyidagicha yasaladi: *hydro-* old qo'shimchasi + kislota nomini yasovchi element nomining o'zagi *+icum* va o'zbek tilidagi *-id* qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Acidum hydrosulfuricum – sulfid kislota

## 62- §. OKSIDLAR

Oksidlarning nomlari ikkita so'zdan iborat: birinchi o'rinda elementning nomi qaratqich kelishigida, ikkinchi o'rinda oksid nomi keladi.

*Oxy-* kislород borligini ko'rsatadi, old qo'shimchalari esa birikma tarkibini aniqlaydi:

oxydum i,n	oksid
peroxydum i,n	peroksid
hydroxydum i,n	gidroksid

### Oksid nomlariga misollar:

Zinci oxydum	rux oksidi
Hydrogenii peroxydum	vodorod perokside
Aluminii hydroxydum	alumin gidroksidi

## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### I. Berilgan nomlardan kislotalarning lotinchcha nomlarini yasang:

borum, i,n – bo'r; lac, lactis, n – sut; acetum, i,n – sirka; carbo, onis m – ko'mir; sitrus, i,m – limon; nicotinum, i,n – nikotin; sul fur, uris,n – oltingugurt; formica, ae,f – chumoli.

### II. O'qing, tarjima qiling:

1. Recipe: Acidi salicylici 2,0.  
Aluminis usti.  
Talci ana 50.  
Misce. Da. Signa.
2. Recipe: Acidi hydrochlorici 4,0.  
Pepsini 2,0.  
Aqua destillatae ad 200,0.  
Misce. Da. Signa.
3. Recipe: Solutionis Hydrogenii peroxydi dilutae 50 ml.  
Detur. Signetur.
4. Recipe: Acidi hydrochlorici diluti.  
Pepsini 2,0.  
Aqua destillatae ad 200.  
Misce. Da. Signa.

### III. Retseptlarni tarjima qiling:

1. Ol: Yog' kislotasi tabletkalari 0,25 50 dona.  
Ber. Belgila.
2. Ol: Benzoat kislotasi 0,6.  
Salitsilat kislotasi 0,3.

- Vazelindan 10,0.  
Aralashtir, surtma hosil bo'lsin.  
Ber. Belgila.
3. Ol: Askorbin kislota drajesi 0,5.  
Ber. Belgila.
4. Ol: Salitsilat kislotasi 5,0.  
Rux oksidi 25,0.  
Talx 50,0.  
Aralashtir, kukun hosil bo'lsin.  
Ber. Belgila.
- 5.Ol: Asetilsalitsilat kislotasi.  
Fenatsetin tengma-teng 0,25.  
Kofein 0,20.  
Shunday dozalarda 12 dona tabletkalarda ber.  
Belgila.
6. Ol: Sariq simob oksidi 0,6.  
Ixtiol 0,8.  
Rux surtmasi 20,0.  
Aralashtir, surtma hosil bo'lsin.  
Ber. Belgila.
- 7.Ol: Salitsilat kislotasi 1,0.  
Rux oksidi.  
Don kraxmali tengma-teng 1,25.  
Vazelin 50,0 gacha.  
Aralashtir, pasta hosil bo'lsin.  
Ber. Belgila.

#### **IV. Tarjima qiling:**

«Boromentol» surtmasi, vazografin inyeksiya uchun, barbital-natriy tabletkalarda, shamchalar kseroform bilan, glutamin kislotasi g'ilofli tabletkalarda, yod tabletkalarda, suyultirilgan xlorid kislotasi, tozalangan oltingugurt, nikotin kislota tabletkalarda, sariq simob oksidi, rux pastasi, yog' kislotasi eritmasi, konsentrangan vodorod peroksiidi eritmasi, magniy oksidi, salisilat kislotaning spirtili eritmasi, murakkab qo'rg'oshin malhami.

#### **V. Quyidagi retseptlarni tarjima qiling:**

1. Ol: Oksasillin-natriy 0,25.  
Shunday dozalarda 6 dona berilsin.  
Belgilansin.
- 2.Ol: Gidrokortizon surtmasi 1% – 10,0.  
Ber. Belgila.
- 3.Ol: Sulfatsil-natriy eritmasi 30% li – 5 ml.  
Shunday dozalarda 6 dona ampulalarda berilsin.  
Belgilansin.

4. Ol: Oksilidin eritmasi 2% 1 ml.  
Shunday dozalarda 10 dona berilsin.  
Belgilansin.
5. Ol: Asetilsalitsilat kislotasi 0,24.  
Fenasetin 0,18.  
Kofein 0,03.  
Kakao 0,015.  
Limon kislotasi 0,02.  
Shunday dozalarda 6 dona tabletkalarda berilsin.  
Belgilansin.
6. Ol: Konsentrlangan vodorod peroksiidi 5,0.  
Distillangan suv 15 ml.  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

### MAQOLLARNI ESDA TUTING!

1. *Amicus certus in re incerta cernitur.* Chin do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.
2. *Radices litterarum amare sunt fructus dulces.* Fanning ildizlari achchiq, mevalari esa shirindir.

### 63- §. LEKSIK MINIMUM

#### I.

Acidum aceticum	sirka kislotasi
Acidum acetylsalicylicum (Aspirinum)	asetilsalitsilat kislotasi
Acidum adenosintriphosphoricum	adenozintrifosfat kislotasi
Acidum ascorbinicum	askorbin kislotasi (vitamin S)
Acidum benzoicum	benzoat kislotasi
Acidum carbolicum	karbolat kislotasi
Acidum carbonicum	karbonat kislotasi
Acidum citricum	limon kislotasi
Acidum folicum	folat kislotasi
Acidum glutaminicum	glyutamin kislotasi
Acidum lacticum	sut kislotasi
Acidum li poicum	yog' kislotasi
Acidum nicotinicum	nikotin kislotasi
Acidum nitricum	nitrat kislotasi
Acidum phosphoricum	fosfat kislotasi
Acidum salicylicum	salitsilat kislotasi
Acidum sulfuricum	sulfat kislotasi

## II.

Acidum arsenicosum	arsenit kislotasi
Acidum nitrosum	nitrit kislotasi
Acidum sulfurosum	sulfit kislotasi

## III.

Acidum hydrochloricum	xlorid kislotasi
Acidum hydrocyanicum	sinil kislotasi
Acidum hydrosulfuricum	sulfid kislotasi

## DORILARNING NOMLARI

Amylum,(i n) Tritici	doli o'simliklar kraxmali
Coffeignum,i,n	kofein
Hydrocortisonum,i,n	gidrokortizon
Oleum Persicorum,olei	
Persicorum	shaftoli moyi
Oxacillinum,i,n	okcatsillin
Sulfacylum,i,n	sulfatsil
Talcum,i,n	talk
Vaselineum,i,n	vazelin

## BOSHQA SO'ZLAR

albus,a, um	oq
concentratus,a,um	konsentrangan
depuratus,a,um	tozalangan (oltingugurt bilan)
dilutus,a,um	suyultirilgan
flavus,a,um	sariq

## 64- §. TUZLARNING NOMLARI

**Maqsad.** Lotin tilida tuzlarning nomini bilish va ularning yasalish usullarini o'zlashtirish.

Tuzlarning nomlari kation va anionning nomidan yasaladi birinchi o'rinda qaratqich kelishikda ifodalangan kationning nomi, ikkinchi o'rinda esa bosh kelishigidagi anionning nomi turadi:

### MISOLLAR:

Calcii glycerophosphas	- kalsiy gliserofosfat
Adrenalin hydrochloridum	- adrenalin gidroxlorid
Methylii salicylas	- metilsalisilat (efir)
Amylii nitris	- amilnitrit (efir)

Anionlarning nomlari mos keluvchi kislotalarning lotincha nomi o'zagiga -as, -is, -id+um suffikslarini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

### ANIONLAR NOMLARI

Lug'at shaki modeli			Turl.	Lotincha misollar	O'zbekcha misollar	
Nom.	Gen.	Rod.			Suff.	Anion nomi
as	atis	m	III	sulfas, atis, m	at	sulfat
is	itis	m	III	sulfis, itis, m	it	sulfit
id-um	id-i	n	II	sulfidum, i, n	id	sulfid

Asosiy tuzlar anionlarining nomi -sub prefiksi yordamida, nordon tuzlar anionlarining nomi esa -hydro prefiksi yordamida yasaladi.

**Masalan:** hydrocarbonas, atis, m — gidrokarbonat  
subgallas, atis, m — asosiy gallat

### TUZ NOMLARIGA MISOLLAR

#### I.

Magnesii sulfas	magniy sulfat
Cupri citras	mis sitrat
Codeini phosphas	kodein fosfat
Natrii hydrocarbonas	natriy gidrokarbonat
Platyphyllini hydrotartras	platifillin gidrotartrat
Bismuthi subnitras	asosiy vismut nitrat

#### II.

Natrii nitris	natriy nitrit
Kalii arsenis	kaliy arsenit

#### III.

Hydrargyri cyanidum	simob sianid
Thiamini chloridum	tiamin xlorid
Cocaini hydrochloridum	kokain gidroxlorid
Scopolamini hydrobromidum	skopolamin gidrobromid

### 65- §. UGLEVODOROD RADIKALLAR NOMLARIDA QO'LLANADIGAN TARKIBIY QISMLAR

1. Uglevodorod radikal nomlarida qo'llanadigan tarkibiy qismlar -yl-suffixsi yordamida yasalgan uglevodorodli radikalning nomlari dorivor moddalar nomlarini yasovchi murakkab otlardan iborat:

Benzylpenicillinum, Aethylmorphinum, Acidum acetylsalicylicum.

**2. Ba'zan radikallarning nomlari mustaqil so'z holida ishlataladi:**

Masalan:

Methylii salicylas – metilsalitsilat (salitsilat kislotaning metil efiri);  
Phenylili salicilas – fenilsalitsilat (salitsilat kislotaning fenil efiri); Amylii  
nitris – amilnitrit (nitrit kislotaning izoamil efiri).

**3. Kimyoviy ma'noga ega bo'lgan tarkibiy qismlarning orfografiyasini  
esda tuting:**

**meth** – metil gruppa  
**aeth** – etil gruppa  
**phen** – fenil gruppa  
**benz** – benzol gruppa

### **MASHQLAR**

**1. Quyidagi dorivor moddalarni tarjima qiling:**

Kaliy yodid, temir laktat, mis sitrat, gidrokortizon asetati, adrenalin  
gidroxlorid, strixnin nitrat, kalsiy glitserofosfat, platifillin gidrotartrat,  
vismut nitrat tuzining asosi, oleandomitsin fosfat, papaverin gidroxlorid,  
kaliy asetati, kalsiy xlorid, magniy sulfat, asosiy magniy karbonat, kaliy  
arsenat, kofein natriy benzoat, testosteron propionat, efedrin gidroxlorid,  
qo'rg'oshin asetat, litiy karbonat, litiy benzoat.

**2. Quyidagi tuzlar va efirlarning lotincha nomlarini yasang:**

(simob, metil, fenil, natriy) salitsilat; (adrenalin, platifillin, oksi-  
tetratsiklin) etilmorfin; (oleandomitsin, kodein, kalsiy, natriy) fosfat; (strixnin,  
kumush, natriy) nitrat; (atropin, rux, bary, streptomitsin) sulfat.

**3. O'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling.**

**1. Recipe:** Morphini hydrochloridi 0,01  
Sacchari 0,1  
Misce, fiat pulvis  
Dentur tales doses numero 6  
Signetur.

**2. Recipe:** Mentholi 0,1  
Natrii hydrocarbonatis  
Natrii tetraboratis  
Natrii chloridi ana 5,0  
Misce, fiat pulvis.  
Detur. Signetur.

**3. Recipe:** Thiamini chloridi  
Riboflavini ana 0,003  
Acidi nicotinici 0,02  
Da tales doses numero 50 in dragee  
Signa.

4. Recipe: Strychnini nitratis 0,003  
 Extracti et pulveris radicis Glycyrrhizae 1,5  
 Misce, ut fiant pilulae numero 30  
 Da. Signa.
5. Recipe: Codeini phosphatis 0,015  
 Acidi acetylsalicylici 0,5  
 Acidi ascorbinici 0,1  
 Rutini 0,02  
 Dimedroli 0,02  
 Calcii lactatis 0,1  
 Misce, fiat pulvis.  
 Dentur tales doses numero 20  
 Signa.
6. Recipe: Aethylmorphini hydrochloridi 0,25  
 Vaseline 10,0  
 Misce, fiat unguentum  
 Da. Signa.

#### **4. Quyidagi reseptlarni tarjima qiling:**

1. Ol: Kumush nitrat 0,25  
 Vinilin 1,0  
 Vazelin 30,0  
 Aralashtir, surtma hosil bo'lsin.  
 Berilsin. Belgilansin.
- 2.Ol: Mentol 0,1  
 Fenilsalisilat 0,3  
 Vazelin moyi 10 ml gacha  
 Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.
3. Ol: Xloroform  
 Kungaboqar moyi  
 Metilsalisilat tengma-teng 15 ml.  
 Aralashtir, liniment hosil bo'lsin.  
 Ber. Belgila.
- 4.Ol: Morfin gidroxlorid 0,015  
 Apomorfin gidroxlorid 0,05  
 Suyultirilgan xlorid kislotasi 1 ml.  
 Distillangan suv 200 ml gacha  
 Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.
- 5.Ol: Platifilin gidrotartrat 0,003  
 Natriy bromid 0,15  
 Kofein natriy-benzoat 0,05  
 Aralashtir, kukun hosil bo'lsin  
 Shunday dozalarda 12 dona berilsin  
 Belgilansin.

- 6.Ol: Barbamil 0,3  
Distillangan suv 25 ml.  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.
- 7.Ol: Kodein fosfat 0,015  
Asetilsalitsilat kislotasi 0,5  
Askorbin kislotasi 0,1  
Rutin 0,02  
Dimedrol 0,02  
Kalsiy laktat 0,1  
Aralshtir, kukun hosil bo'lsin  
Shunday dozalarda 20 dona ber.  
Belgila.
8. Ol: Etilmorfin gidroxlorid 0,1  
Vazelin 10,0  
Aralshtir, surtma hosil bo'lsin  
Ber. Belgila.
- 9.Ol: Linkomitsin gidroxlorid 0,25  
Shunday dozalarda 20 dona kapsulalarda ber.  
Belgila.
10. Ol: Tiamin bromid eritmasi 3% – 1 ml  
Shunday dozalarda 10 dona ampulalarda ber.  
Belgila.

### **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

1. *Amicitia magnium solatium* Birlik oldida tog' egilar.  
*in dolore.*
2. *Exercitatio est optimus magister.* Amaliy ish ustozdir.

### **66- §. LEKSIK MINIMUM**

Aethylmorphinum,i,n	etilmorfin
Atropinum,i,n	atropin
Barbamylum,i,n	barbamil
Benzylpenicillinum,i,n	benzilpenitsillin
Camphora,ae,f	kamfora
Chloroformium,ii,n	xloroform
Codeinum,i,n	kodein
Coffeignum-natrii benzoas,	
Coffeini-natrii benzoatis	kofein-natriy benzoati
Ephedrinum,i,n	efedrin
Glucosum,i,n	glyukoza
Lincomycinum,i,n	linkomitsin

Methylili salicylas,	
Methylili salicylatis	metilsalitsilat
Morphinum,i,n	morfín
Oleandomycinum,i,n	oleandomitsin
Oleum Helianthi	kungaboqar moyi
Oleum Olivarium(Oliva,ae,f)	zaytun moyi
Phenobarbitalum,i,n	fenobarbital
Phenoxytmethylpenicillinum,i,n	fenoksimetilpenitsillin
Phenylili salicylas,Phenylili salicylatis	fenilsalitsilat
Pilocarpinum,i,n	pilocarpin
Platyphyllinum,i,n	platifillin
Rutinum,i,n	rutin
Streptocidum,i,n	streptotsid
Strychninum,i,n	strixnin
Synoestrolum,i,n	sinestrol
Theophyllinum,i,n	teofillin
Thiaminum,i,n	tiamin
Vinylinum,i,n	vinilin

### BOSHQA SO'ZLAR

glycerophosphas,atis,m	glitserofosfat
hydrotartras,atis,m	gidrotartrat
isotonicus,a,um	izotonik
thiosulfas,atis,m	tiosulfat

### 67 - §. RETSEPTDAGI QISQARTMALAR

**Maqsad.** Reseptlarda qabul qilingan qisqartmalardan foydalanishni bilish; dori shakllari o'simlik qismalarining nomlarini standart retseptura formulirovkalarini qisqartirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vrach retsept yozib berar ekan, qabul qilingan qisqartmalardan foydalanadi. Dori shaklining nomlari, o'simlik qismalarining nomlari, standart retseptura formulirovkalar qisqartiriladi. Dorivor moddalar va o'simliklarning nomlari qisqartirilmaydi.

#### Retsepturada qo'llaniladigan muhim qisqartmalar

Qisqartma	To'liq yozilishi	Ma'nosi
Aa	ana	teng miqdorda
ac, acid	acidum	kislota
ad us. ext.	ad usum externum	sirtdan qo'llash uchun

<b>Qisqartma</b>	<b>To'liq yozilishi</b>	<b>Ma'nosi</b>
ad. us. int.	ad usum internum	ichdan qo'llash uchun, ichish uchun
aq.	aqua	suv
aq. dest.	aqua destillata	distillangan suv
comp, cps ,cpt	compositus	murakkab
concentr.	concentratuś	konsentrlangan
cort.	cortex	po'stloq
D.	Da. Detur. Dentur.	Ber. Berilsin
dec., det.	decoctum	qaynatma
dep.	depuratus,a,um	qaynatma
dil.	dilutus,a,um	suyultirilgan
D.t.d.	Da (Dentur) tales doses	Shunday dozalarda ber.
empl	emplastrum	malham
emuls.	emulsum	emulsiya
extr.	extractum	ekstrakt
f.	fiat, fiant	hosil bo'lsin
fl.	flos	gul
fluid	fluidus,a,um	suyuq
fol.	folium	barg
fr.	fructus	meva
gel.	gelatinosus	jelatinli
gran.	granulum	granula, donacha
gtt, gtts.	guttam, guttas	tomchi, tomchilar
h.,hb.	herba	o't
in ampull.	in ampullis	ampulada
in caps.	in capsulis	kapsulada
inf.	infusum	damlama
in obl.	in oblatis	gilofda
in tab.	in tabulettis	tabletkalarda
in vitr, nigr.	in vitro, nigro	qora shishada
linim.	linimentum	liniment
liq.	liquor	suyuqlik
m.	Misce. Misceatur.	Aralashtir. Aralashtirilsin
mucil.	Mucilago	shilliq
N.	numero	soni (dona)
q.s	quantum satis	keragicha
r.rad.	radix	ildiz
rp.	reci pe	ol
rectif.	rectificatus,a,um	tozalangan
rhiz.	rhizoma	ildizpoya
s.	Signa. Signetur.	Belgila. Belgilansin
sem.	semen	urug'

simpl.	simplex	oddiy
sir.	sirupus	sharbat
sol.	solutio	eritma
spec.	species	yig'ma
steril.	Sterilisa	Sterilizatsiya qil
	Sterilisetur	Sterilizatsiya qilinsin
supp.	suppositorium	sham
supp.vagin.	suppositorium vaginalе	vaginal sham
susp.	suspensia	suspenziya
tab.	tabuletta	tabletka
t-ra,tinct.	tinctura	tindirma
ung.	unguentum	surtma

### MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**Qisqartmalarni qo'llab tarjima qiling:**

1. Ol: Metilestradiol tabletkalari 0,0002  
Berilsin. Belgilansin.
2. Ol: Aminazin eritmasi 2,5% 2 ml  
Glyukoza eritmasi 5% 20 ml  
Aralashtirilsin. Sterilizatsiya qilinsin  
Berilsin. Belgilansin.
3. Ol: Aloening suyuq ekstrakti 1 ml  
Shunday dozalarda 10 ampulalarda  
Ber. Belgila.
4. Ol: Mentol 2,5  
Novokain  
Anestezin teng miqdorda 1,0  
Etil spiriti 70% 100 ml gacha  
Aralashtir. Ber. Belgila.
5. Ol: Furazolidon tabletkalari 0,1 20 dona  
Berilsin. Belgilansin.
6. Ol: Novshadil-arpabodiyen tomchilari 15 ml.  
Berilsin. Belgilansin.
7. Ol: Sinestrolning moyli eritmasi 0,1%  
Shunday dozalarda 6 ampula berilsin  
Belgilansin.
8. Ol: Itjumrut po'stlog'i 30,0  
Chayono't barglari 20,0  
Mingbarg o'ti 10,0  
Aralashtir yig'ma hosil bo'lsin  
Berilsin. Belgilansin.

9. Ol: Streptotsid eritmasi 0,8% 15 ml.  
 Furatsilin 0,003  
 Dimedrol 0,02  
 Efedrin gidroxlorid 0,2  
 Adrenalin gidroxlorid eritmasi 0,1% 10 tomchi  
 Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.
10. Ol: Sariqchoy o'ti 100,0  
 Berilsin. Belgilansin.
- 11.Ol: Momaqaymok ekstrakti 0,02  
 Kseroform 0,1  
 Rux sulfat 0,05  
 Glitserin 0,12  
 Aralashtir, shamcha hosil bo'lsin.  
 Shunday dozalarda 10 dona berilsin.  
 Belgilansin.

### **MAQOLLARNI ESDA TUTING!**

- |   |                                       |
|---|---------------------------------------|
| 1. <i>De facto.</i>                       | Dalillar asosida, amalda.             |
| 2. <i>De jure.</i>                        | Yuridik jihatdan, rasmiy.             |
| 3. <i>De mortuis aut bene, aut nihil.</i> | O'lganlar haqida yomon gapirmaydilar. |

### **68- §. LEKSIK MINIMUM**

#### **O'simliklar nomlari**

Adonis vernalis m,f	bahorgi adonis
Adonidis vernalis	
Aloë, yës f	aloye
Althaea, ae f	gulxayri
Digitalis, is f	angushvonagul
Hypericum, i n	dalachoy, sariqchoy
Millefolium, ii n	mingbang

#### **Preparat nomlari**

Aethazolum, i n	etazol
Aminazinum, i n	aminazin
Ampicillinum, i n	ampietsillin
Anaesthesiaum, i n	anestezin
Bromisovalum, i n	bromizoval
Chinosolum, i n	xinozol
Corazolum, i n	korazol
Desoxycorticosteronum, i n	dezoksikortikosteron

Dichlothiazidum, i n	dixlotiazid
Erythromycinum, i n	eritromitsin
Furazolidonum, i n	furazolidon
Liquor Ammonii anisatus,	
Liquoris Ammonii anisati	novshadil arpabodiyon tomchisi
Methyloestradiolum, i n	metilestradiol
Neomycinum, i n	neomitsin
Nystatinum, i n	nistatin
Osarsolum, i n	ozarzol
Phenazepamum, i n	fenazepam
Phthoracizinum, i n	ftoratsizin
Streptomycinum, i n	streptomitsin
Sulfadimezinum, i n	sulfadimezin
Theobrominum, i n	teobromin

### Boshqa so'zlar

antiasthmaticus, a, um	astmaga qarshi
ophthalmicus, a, um	ko'zga oid
sirupus, i m	sharbat
solubilis, e	eruvchan

## 69- §. FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIK VA RETSEPTURA BO'YICHA KONTROL ISHGA TAYYORGARLIK UCHUN MUSTAQIL ISH

**Maqsad.** Retseptura materiallarini takrorlash; kontrol ishga tayyorgarlik ko'rish.

### MASHQLAR

**1. Quyidagi nomlarni tarkiban tahlil qiling, o'zingizga tanish bo'lgan tarkibiy qismlarni aniqlab ma'nosini tushuntiring.**

Methyloestradiolum, Methylenum coeruleum, Neomycinum, Aethylili chloridum, Lincomycinum, spiritus aethylicus, Aether, Aethazolum, Aethylmorphinum, Barbamylum, Diprophyllinum, Phenoxymethylpenicillinum, Phenylili salicylas, Dichlothiazidum, Phenazepamum, Thioproperasinum, Synoestrolum.

**2. Turli tarkibiy qismlardan tuzilgan dorivor moddalar va preparatlar-ning nomlerni lotin tilida yozing:**

Diozalin drajesi, natriy tiosulfat, tiamin bromid, tiamin xlорид, dixlortiazid tabletkalari, tiopental-natriy ampulalarda, sulfatsil-natriy surtmasi, streptomitsin sulfat, natriy sulfid, sulfadimezin tabletkalarda, norsulfazol-natriy eritmasi, korazol ampulalarda, etazol tabletkalarda,

dibazol papaverin bilan, eruvchan, «Ftorokort» surtmasi, ftorotsizin qobiq bilan o'ralgan tabletkalarda, ftoratan narkoz uchun, sulfapiridazin—natriy, «Oksikort» aerozoli, eruvchan streptotsid.

### 3. Dorivor moddalarning nomlarini lotincha yozing:

- a) -oestr- bilan: sinestrol, metilesradiol, oktestrol, dimestrol, estradiol;
- b) -mycin bilan: eritromitsin, oleandomitsin, rifamitsin, neomitsin, linkomitsin, monomitsin;
- c) -cillin bilan: oksasillin, ampisillin, benzilpenitsillin
- e) -cyclin bilan: tetratsiklin, metatsiklin, morfotsiklin;
- f) -phyll- bilan: teofillin, platifillin, eufillin;
- g) -az, zol, zin, zid bilan: fenazepam, korazol, aminazin, sulfadimezin, salyuzid;
- h) -aeth- bilan: etil spirti, efir narkoz uchun, etilmorfin, etaminal-natriy, etakridin.

### 4. Lotin tilida atamalar yasang:

evkalipt (yalpiz, do'lana, marvaridgul) nastoykasi, glitserin (gidrokortizon, ~~dermatol~~ aseklidin, ixtiol, anestezin, sariq simob oksidi) surtmasi; streptotsid (lyuterin, aloe, murakkab xloroform) suyuq surtmasi; fenoksimetilpenisillin (tiamin bromid, riboflavin, askorbin kislotasi) drajesi; natriy paraaminosalitsilat (glitserofosfat, amidopirin) donachalari (granulalari); yog' kislotasi (aminazin, aloe oleandomitsin fosfat) qobiq bilan o'ralgan tabletkalari; sinestrol (kamfora, nitroglitserin, dezoksikortikosteron) yog'li eritmasi; gramitsidin (ko'k metilen, furatsilin) spirtli eritmasi; mingbang (chayono't, aloye, belladonna) suyuq ekstrakti.

### 5. Tabletka va shamchalar uchun berilgan retseptlarni tarjima qiling:

1. Ol: «Teodibaverin» tabletkalari 12 dona  
Ber. Belgila.
- 2.Ol: Barbamil  
Bromizoval 0,15  
Shunday dozalarda 6 dona tabletkalarda ber.  
Belgila.
3. Ol: Belladonna ekstrakti 0,02  
Kseroform 0,1  
Rux sulfat 0,05  
Glitserin 0,12  
Kakao moyi 2,0  
Aralashtir shamcha hosil bo'lsin.  
Shunday dozalarda 10 dona ber.  
Belgila.
4. Ol: Platifillin gidrotartrat 0,003  
Papaverin hidroxolrid 0,03

**Teobromin 0,25**

**Shunday dozalarda 12 dona tabletkalarda berilsin.**

**Belgilansin.**

- 5. Ol:** Diprofillin bilan shamchalar 0,5 – 10 dona  
Ber. Belgila.

**6. Eritmalar uchun berilgan retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling:**

- 1. Ol:** Kamforaning moyli eritmasi 10% sirtdan qo'llash  
uchun 10 ml.  
**Ber. Belgila.**

- 2.Ol:** Furatsillinning spirtli eritmasi 0,1% 2 ml  
Mentol 0,06  
Evkalipt moyi  
Kanakunjut moyi  
Zaytun moyi 15 ml gacha  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

- 3. Ol:** Natriy tiosulfat 10,0  
Distillangan suv 100 ml gacha  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

- 4. Ol:** Norsulfazol—natriy eritmasi 10%  
Natriy xloridning izotonik eritmasi 10 ml dan  
Aralashtir. Ber. Belgila.

- 5. Ol:** Vodorod peroksidining spirtli eritmasi 1,5%-50 ml  
Ber. Belgila.

**7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling va qisqartimlar bilan yozing:**

- 1. Ol:** Gulxayri ildizi damlamasi 3,0 0 – 100 ml  
Gulxayri sharbati 20 ml  
Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

- 2. Ol:** Xloroform  
Etil spirti 95% 20 ml dan  
Etil efiri 10 ml.  
Novshadil spirti 5 tomchi  
Aralashtir. Ber. Belgila.

- 3. Ol:** Metilsalitsilat murakkab suyuq surtmasi 50,0  
Ber. Belgila.

- 4. Ol:** Mentol 0,25  
Evkalipt nastoykasi 50 ml  
Etil spirti 90% 100 ml gacha  
Aralashtir. Ber. Belgila.

5. Ol: Teofillin 0,1  
 Efedrin gidroxlorid 0,025  
 Aralashtir, kukun hosil bo'lsin  
 Shunday dozalarda 20 dona berilsin  
 Belgilansin.
6. Ol: Siyidik haydovchi yig'ma 50,0  
 Ber. Belgila.
7. Ol: Etazol-natriy eritmasi.  
 Shunday dozalarda 6 dona ampulalarda berilsin.  
 Belgilansin.
8. Ol: Dibazol 0,005  
 Shakar 0,3  
 Aralashtir, kukun hosil bo'lsin.  
 Shunday dozalarda 20 dona berilsin.  
 Belgilansin.
9. Ol: Dalachoy o'ti 20,0  
 Mavruk barglari 30,0  
 Qalampir yalpiz barglari 10,0  
 Ber. Belgila.
10. Ol: Strixnin nitrat eritmasi 0,1% – 1ml.  
 Shunday dozalarda 12 dona ampulalarda ber.  
 Belgila.
- 11.Ol: Gidrokortizon asetat surtmasi 0,5%  
 Ber. Belgila.
12. Ol: Ixtiol 1,25  
 Rux oksidi  
 Bug'doy kraxmali 12,5 dan  
 Vazelin 50,0 gacha  
 Aralashtir, pasta hosil bo'lsin.  
 Ber. Belgila.

## 70- §. «GAUDEAMUS» – TALABALAR GIMNI

«Gaudeamus» – XIII asrda yaratilgan qadimiy talabalar qo'shig'i.

Bu qo'shiq Geydelberg va Parij universitetlari talabalari o'rtaida keng tarqalgan edi. Qo'shiq matni va kuyining mualliflari ma'lum emas. XV asrda flamand bastakori Jan Okkengejm uning kuyini qayta yozdi va shundan boshlab qo'shiq talabalarning an'anaviy gimniga aylandi.

*Gaudeamus igitur,  
 Juvenes dum sumus!  
 Post jucundam juventutem,  
 Post molestam senectutem  
 Nos habebit humus. (bis)  
 Ubi sunt, qui ante nos  
 In mundo fuere?  
 Vadite ad superos,  
 Transite ad inferos,  
 Ubi jam fuere. (bis)  
 Vita nostra brevis est,  
 Brevis finietur;  
 Venit mors velociter,  
 Rapit nos atrociter.  
 Nemini parceret (bis).  
 Vivat, Academia,  
 Vivant professores!*

*Vivat membrum quodlibet,  
 Vivant membra quaelibet!  
 Semper sint in flore !(bis)  
 Vivant omnes virgines,  
 Graciles, formosae!  
 Vivant et mulieres,  
 Tenerae, amabiles,  
 Bonae, laboriosae!(bis)  
 Vivat et respublica,  
 Et qui illam regit!  
 Vivat nostra civitas,  
 Maecenatum caritas,  
 Quae nos hic protegit.(bis)  
 Pereat tristitia.  
 Pereant dolores,  
 Pereat diabolus,  
 Quivis antiburschius  
 Atque irrisores!(bis)*

## LOTINCHA MAQOLLAR, MATALLAR VA AYRIM IBORALAR

- 1 *Ad usum externum* — sirtga ishlatish uchun.
- 2 *Ad usum internum* — ichga ishlatish uchun.
- 3 *Ad usum proprium* — xüsusiyl usullarda ishlatish uchun.
- 4 *Alma mater.* — Emizikli ona (qadim studentlar dorilfununni shunday deb ataganlar).
- 5 *Alter ego.* — Ikkinchı men (qalbiga yaqin kishi).
- 6 *Amicorum sunt communia omnia.* — Do'stlarda hamma narsa o'rtada bo'ladi.
- 7 *Amicus cognoscitur amore, more, ore, re.* — Do'st mehr-muhabbatidan, ahloqidan, gapidan, ishidan bilinadi.
- Amicus Plato, sed magis amica veritas.* — Platon — do'st, lekin haqiqat undan ham yaxshi do'st.
- Amor tussisque non celatur.* — Sevgi va yo'talni yashirib bo'lmaydi.
- Aquila non captat muscas.* — Burgut pashsha tutmaydi.
- Ars longa, vita brevis.* — San'at cheksiz, umr esa qisqa.
- Audiatur et altera pars.* — Ikkinchı tomon ham eshitsin.
- Aut Caesar, aut nihil.* — Yoki Sezar, yoki hech kim.
- Bene cognoscitur — bene curatur.* — Yaxshi aniqlansa, yaxshi davolanadi.
- Bis dat, qui cito dat.* — Tez bergan, ikki marta beradi.
- Bonum initium est dimidium facti.* — Yaxshi boshlanish — ishning yarmidir.
- Carpe diem.* — Kunni tut.

- Conditio, sine qua non.* — Zarur, shart.
- Constitutio est altera natura.* — Odat — kishining ikkinchi tabiatidir.
- Curriculum vitae.* — Hayot yo'li.
- De gusibus non est disputandum.* — Did haqida bahslashmaydilar.
- De mortuis aut bene, aut nihil.* — Marhumni qoralash kerak emas.
- Diagnosis bona, curatio bona.* — Aniq diagnoz davolashning garovidir.
- Divide et impera!* — Bo'l va hokimlik qil!
- Docendo discimus.* — O'qitib, o'rganamiz.
- Dum spiramus, speramus.* — Nafas olar ekanmiz, umid qilamiz.
- Dura lex, sed lex.* — Qonun shafqatsiz bo'lsada — qottundir.
- Edimus, ut vivamus, non vivimus, ut edamus.* — Yashash uchun ovqat yeymiz, ammo ovqattanish uchun yashamaymiz.
- Est modus in rebus.* — Hamma narsaning chegarasi bor.
- Ex ungue leonem, ex auribus asinum cognoscimus.* — Sher tirkog'idan, eshak qulog'idan bilinlar.
- Ex malis eligere minima oportet.* — ~~X~~dan eng kichigini tanlash lozim.
- Exitus letalis.* — O'llim bilan tugallanish.
- Feci, quod potui, faciant meliora potentes.* — Qo'limdan kelganicha qildim, mendan yaxshiroq qiladiganlar bo'lsa — qilsin.
- Festina lente.* — Asta-sekin shoshil.
- Finis coronat opus.* — Xotima ishn'i yakunlaydi.
- Fortes fortuna adiuvat.* — Jasur odamlarga taqdir yordam beradi.
- Gutta cavat lapidem non vi, sed saepe cadendo.* — Tomchi kuchi bilan emas, tez tushishi bilan tosh teshar.
- Homini cibus utilissimus est simplex.* — Oddiy ovqat odam uchun hamma narsadan foydali.
- Homo locum ornat, non hominem locus.* — Odam o'rfini bezatadi, lekin o'rin odamni emas.
- Homo sum, nihil humani a me alienum puto.* — Men odamman, odamga oid narsalarning hech qaysisi menga yot emas.
- Honoris causa.* — Hurmat uchun.
- In medias res.* — Ishlar o'rtasida (eng muhimmi).
- Lapsus linguae. Lapsus calami.* — Xato gap. (Til xatosi). Yozuvdag'i xato.
- Larga manu.* — Saxiy qo'l bilan.
- Lege artis.* — Qoidasi bilan (mohirlik bilan).

## LOTINCHA—O'ZBEKCHA LUG'AT

### A a

**a, ab, abs (Abl).** — -dan  
**abdomen**, inis, n. — qorin  
**abdominalis**, e — qoringa oid  
**abductor**, oris, m. — uzoqlash-tiruvchi muskul  
**abscessus**, us, m. — yara, chipqon  
**abortus**, us, m. — abort  
**ac** — va  
**accipio**, ceipi, ceptum, ere, III — olmoq  
**acer, acris, acre** — o'tkir  
**acetas, atis**, m. — asetat  
**aceticus**, a, um — asetatli  
**acidum**, i, n. — kislota  
**acutus**, a, um — o'tkir  
**acromialis**, e — yelka o'sig'iga oid  
**acromion**, i, n — kurak suyagining yelka o'sig'i  
**ad (acc.)** — uchun, -ga, -gacha, -da  
**addo**, didi, ditum, ere, III — qo'shmoq, orttirmoq  
**adductor**, oris, m. (musculus) — yaqinlashtiruvchi muskul  
**aden**, is, m. — bez  
**adeps**, ipis, m., f. — yog', moy  
**adeps suillus** — cho'chqa yog'i  
**adhiveo**, bui, bitum, ere, II — qo'llamoq, iste'mol qilmoq  
**adiposus**, a, um — yog'li, moyli, semiz  
**aditus**, us, m. — kirish  
**adiubo**, iuvi, iutum, are, I — yordam bermoq  
**adonis**, idis, m — adonis  
**adonis vernalis** — bahorgi adonis

**adrenalis**, e — buyrak oldi  
**adultus**, a, um — katta yoshli, voyaga yetgan  
**aduro**, ussi, ustum ere, III — kuydirmoq  
**aeger**, gra, grum — kasal, bemor  
**aegre** — zo'rg'a, qiyin  
**aegrotus**, a, um — kasal, bemor  
**aequalis**, e — teng baravar  
**aer, aeris**, m — havo  
**aetas, aetatis**, f — yosh  
**aether**, eris, m — efir  
**aethereus**, a, um — efirlig  
**agito**, avi, atum, are, I — chay-qatmoq  
**ago, egi, actum**, ere, III — qilmoq  
**ala**, ae, f. — qanot  
**albumen**, inis, n. — oqsil  
**albuminuria**, ae, f. — siydikda oqsil paydo bo'lishi  
**albus**, a, um — oq  
**alcohol**, olis, n — alkagol  
**allergicus**, a, um — allergiya  
**allenus**, a, um — yot, begona  
**almus**, a, um — rohatbaxsh, xayr  
**alias**, a, um — boshqa  
**aloë**, es, f. — aloye (dorivor o'simlik)  
**altius**, a, um — baland  
**alter**, era, erum — boshqa, ikkinchi  
**althaea**, ae, f. — gulxayri  
**altus**, a, um — baland  
**alveolaris**, e — alveolaga tegishli  
**alveolus**, i, m — yaçheyka, katakcha, pufakcha

**amarus**, a, um — achchiq, taxir  
**amicus**, i, m. — do'st  
**ammonium**, ii, n. — ammiak  
**amidochloridum**, i, n — amido-  
 xlorid (dori)  
**amorphus**, a, um — amorf holidagi  
**ampicillinum**, i, n — ampitsillin  
 (dori)  
**ammonium anisatum** — nashatir-  
 anis  
**amo**, avi, atum, are, I — sevmoq  
**amor**, oris, m. — sevgi  
**amplus**, a, um — keng, katta  
**ampulla**, ae, f. — ampula  
**amputatio**, onis, f. — operatsiya yo'li  
 bilan kesib tashlash  
**amygdala**, ae, f. — bodom  
**amyrum**, i, n. — kraxmal  
**ana** — tengma-teng  
**analginum**, i, n — analgin  
**analysis**, is, f — analiz  
**anamnesis**, is, f — anamnez, eslash  
**anaesthesia**, i, n. — anestezin  
**anatomicus**, a, um — anatomik  
**anatomia**, ae, f. — anatomiya  
**angulus**, i, m. — burchak  
**angustus**, a, um — kambar, tor  
**animal**, alis, n. — hayvon  
**animus**, i, m. — jon, ruh  
**morbi animi** — ruhiy iztirob, ruhiy  
 kasalliklar  
**anisatus**, a, um — arpabodiyonga oid  
**anisum**, i, n. — arpabodiyon  
**annus**, i, m. — yil  
**ante (Acc.)** — oldida  
**antebrachium**, ii, n. — bilak  
**anterior**, ius — oldingi  
**anus**, i, m. — orqa teshik  
**aorta**, ae, f. — eng katta qizil qon  
 tomiri, aorta  
**apex**, apicis, m. — uch, cho'qqi  
**apomorphinum**, i, n. — apomorfin  
**appelo**, avi, atum, are, I — atamoq  
**aqua**, ae, f. — suv  
 **aquila**, ae, f. — burgut  
 **aquosus**, a, um — suvli  
**arcus**, us, m. — kamon (yoy) ravoq  
**argentum**, i, n. — kumush  
**ars**, artis, f. — san'at  
**arsenicous**, a, um — margimushli  
**arteria**, ae, f. — qizil qon tomiri  
**articularis**, e — bo'g'imga oid  
**articulatio**, onis, f. — bo'g'im  
**articulus**, i, m — bo'gim  
**artus**, us, m. — bo'gim, a'zo  
**ascendes**, ntis — ko'tariluvchi  
**asellus**, i, m — baliq; *oleum*  
 Aselli — baliq moyi  
**asinus**, i, m. — eshak  
**asper**, era, erum — g'adir-budir;  
**asthma**, atis, n — astma (bo'g'ma)  
 kasalligi  
**asthmaticus**, a, um. — astmalangan  
**aspirinum**, i, n. — aspirin  
**atlas**, antis, m. — birinchi bo'yin  
 umurtqasi  
**atrium**, i, n — yurak oldi  
**atque** — va  
**atrophia**, ae, f. — atrofiya  
**atropinum**, i, n. — atropin  
**auctor**, oris, m. — avtor; *pro  
 auctore* — avtor uchun  
**audio**, ivi, itum, ire, IV — eshitmoq  
**auditus**, us, m. — eshituv  
**auditus**, a, um — eshitilgan  
**auricula**, ae, f — quloq chig'anog'i,  
 suprasi  
**auricularis**, e — quloqqa maxsus  
**aureus**, a, um — oltin  
**auris**, is, f. — quloq  
**aurum**, i, n. — oltin  
**ausculto**, avi, atum, are, I — quloq  
 solib (asbob bilan). bemorning  
 holatini aniqlamoq  
**avis**, is, f. — qush  
**axungia**, ae, f. — yog', moy

## B b

bacca, ae, f – meva (o'simlik)  
bacterium, ii, n. – bakteriya  
balneum, i, n. – vanna  
balzamum, i, n. – malham  
barbamylum, i, n. – barbamil  
basis, is, f. – asos  
belladonna, ae, f. – belladonna  
bene – yaxshi  
benzinum, i, n. – benzin  
benzoas, atis, m – benzoat  
benzoicus, a, um – benzoat  
benzonaphftolum, i,n – benzonaftol  
(dori)  
bestia, ae, f. – yirtqich hayvon  
betula, ae, f. – qayin daraxti  
biliaris, e – o'tga oid  
biliusos, a, um – o't moddasiga boy  
bivalens, entis – ikki valentli  
biventer, tra, trum – ikki qorinli  
bibo, bibi, ere, III – ichmoq  
bicarbonas, atis, m. – bikarbonat  
biçarbonicus, a, um – bikarbonat  
biceps, ipitis – ikki boshli  
bichloratus, a, um – bixlorid  
bichloridum, i, n. – bixlorid  
bini, ae, a – ikkitadan  
bis – ikki marta  
bolus, i, f. – loy, qum  
bonus, a, um – yaxshi; melior,  
ius – yaxshiroq; optimus, a,  
um – juda yaxshi  
bonum, i,n – yaxshilik  
boras, atis, m. – borat  
boricus, a, um – borat  
brachium, ii, n. – yelka  
brevis, e – qisqa (kalta)  
bromidum, i, n. – bromid  
bromcamphora, ae, f – bromkamfora  
bronchialis, e – bronxga tegishli  
bronchus, i,m – bronx  
bucca, ae,f – lunja oid  
buecalis, e – lunji (si)

bulbus, i, m. – piyozcha, olmacha  
bulbus oculi – ko'z soqqasi  
bulla, ae, f – pufakcha  
bursa, ae, f. – xalta; bursa  
pastoris – jag‘-jag‘ (o'simlik)  
butyrum, i, n.– moy; butyrum  
Cacao – kakao moyi

## C c

cacao – kakao  
cadaver, eris, n – murda  
cado, cedidi, casum, ere, III –  
yiqilmoq (yiqilib tushmoq)  
caecus, a, um – ko'r  
intestinum **caecum**, i, n. –  
ko'richak  
calamus, i, n. – qamish  
calcium, ii, n. – kalsiy  
calcaneus, a, um – tovon suyagiga  
oid  
calcar, aris,n – pix  
calor, oris, m. – issiq  
calvaria, ae, f. – kalla qopqog'i,  
gumbazi  
camphora, ae, f. – kamifara  
canaliculus, i, m – yo'l, kanalcha  
canalis, is, m. – kanal  
cancer, cri, m. – o'sma  
caninus, a, um – kuchuk, it  
capillaris, e – qilsimon, kapillyar  
capillus, i, m. – soch  
capiro, cepi, captum, ere, III –  
olmoq, tutmoq  
capitulum, i, n. – boshcha  
capitatus, a,um – boshli  
capsula, ae, f. – kapsula  
capto, tavi, atum, are, I – ushla-  
moq, tutmoq  
caput, itis, n. – bosh  
carbogenium, ii, n. – uglerod  
carbo, onis, m – ko'mir  
carbonas, atis, m. – karbonat  
carbonicus, a, um – karbonat

**carcinoma**, atis, m – o'sma  
**cardiacus**, a, um – yurakka tegishli  
**caries**, ei, f. – suyak chirishi, tish-dagi yiringlanish natijasida chirish  
**carotis**, tidis, f – qulq atrofi  
**carpeus**, a, um – kaft usti qismiga tegishli  
**carpus**, i,m – kaft  
**carpo**, psi, ptum, ere, III – uzmoq, tutmoq  
**cartilago**, inis, f. – tog'ay  
**carus**, a, um – qimmat  
**catarrhus**, i, m. – organizmda shilliq pardasining yallig'lanishi, katar  
**causticus**, a, um – kaustik  
**cavitas**, atis, f. – bo'shliq  
**caverna**, ae,f – g'ovak, bo'shliq  
**cavernosus**, a, um – g'ovakli  
**cavo**, avi, atum, are, I – teshmoq  
**cavum**, i, n. – bo'shliq  
**cella**, ae, f. – hujayra  
**cellula**, ae, f – hujayra  
**cellularis**, e – hujayraga oid  
**celo**, avi, atum, are, I – bekitmoq, yashirmoq  
**Celsus**, i, m. – Sels – qadimgi Rim olimi, vrach (m. a. I asr)  
**centum** – yuz  
**centralis**, e – markaziy  
**cera**, ae, f. – mum  
**ceratus**, a, um – mumlangan  
**cerebralis**, e – miyaga oid  
**cerebrum**, i, n – miya  
**cerebellum**, i,n – miyacha  
**cervix**, icis, f. – bo'yin  
**cervicalis**, e – bo'yinga oid  
**chamomilla**, ae, f. – moychechak  
**chininum**, i,n – xinin  
**charta**, ae, f. – qog'oz  
**charta cerata** – mumlangan.qog'oz  
**chirurgus**, i, m. – jarroh (xirurg)  
**chloridum**, i, n. – xlqid  
**chloroformium**, ii, n. – xlreform

**cholera**, ae, f. – vabo  
**chole**, es,f – o't  
**chorda**, ae, f. – tor  
**chronicus**, a, um – xronik, surunkali  
**cibus**, i, m. – ovqat  
**cinereus**, a, um – kulrang  
**cingulum**, i, n. – belbog'  
**circulatio**, onis, f. – aylanish; *circulatio sanguinis* – qon aylanish  
**circulus**, i, m. – doira; *circulus sanguinis maior* – katta qon aylanish doirasi; *circulus sanguinis minor* – kichik qon aylanish doirasi  
**circum** (rav. va kum. s Ass) – atrofida, doira  
**cito** – tez; **citius** – tezroq;  
**citissime** – juda tez  
**clausus**, a, um – yopiq  
**clavicula**, ae, f. – o'mrov  
**clavicularis**, e – o'mrovga oid  
**clinica**, ae, f. – kasaixona, shifoxona  
**cochlear**, aris, n. – qoshiq, chig'anoqli nerv  
**coccyx**, **coccygis**, m. – dum, quyruq  
**coccygeus**, a, um – quyruqqa oid  
**cochlea**, ae,f – (qulq) chig'anoq  
**cochlearis**, e – chig'anoqli  
**codeinum**, i, n. – kodein  
**cervicalis**, e – bo'yinga oid  
**coffeinum**, i, n. – kofein  
**cogito**, avi, atum, are, I – fikr yuritmoq  
**cognosco**, novi, nitum, ere, III – bilmoq, tanimoq  
**colo**, avi, atum, are, I – suzmoq  
**colla**, ae, f. – yelim  
**collega**, ae, m. – o'rtoq, hamkasb  
**collum**, i, n. – bo'yincha  
**colon**, i, n. – chambar ichak  
**color**, oris, m. – tus, rang  
**columna**, ae, f. – ustun; *columna*

*vertebralis* – umurtqa pog'onasi  
*coma*, atis, n – koma  
*commissura*, ae, f – birikma,  
*bitishma*  
*communis*, e – umumiy, odatdagi  
*communicans*, antis, f – qo'shuv-  
 chi, tutasnuvchi  
*compactus*, a, um – zich, qalin  
*comparativus*, a, um – qiyoslash  
*completus*, a, um – to'liq  
*compositus*, a, um – murakkab  
*concordia*, ae, f – ittifoq, rozilik,  
 hamfikrlik  
*soncha*, ae, f – chig'anoq  
*conditio*, onis, f – shart-sharoit  
*conjunctiva*, ae, f – ko'zning  
 biriktiruvchi pardasi  
*coniungo*, iunxi, iunctum, ere, III –  
 bog'lamoq  
*conservo*, avi, atum, are, I –  
 saqlamoq  
*consilium*, i, n – maslahat,  
 kolsilium  
*contractio*, onis, f – yanchilgan,  
 qisqartirilgan  
*consistentia*, ae, f – quyuq  
*consuetudo*, inis, f – odat  
*contagiosus*, a, um – yuqumli  
*contra* (c.Acc) – qarshi  
*contritus*, a, um – ezilgan  
*contundo*, tudi, tusum, ere, III –  
 to'ymoq  
*contusio*, onis, f – kontuziya, lat  
 yeish  
*convallaria*, ae, f – marvaridgul  
*cor*, cordis, n. – yurak  
*cornu*, us, n. – shox  
*corono*, avi, atum, are, I – oxiriga  
 yetkazmoq  
*corpus*, oris, n. – tana  
*corrugator*, oris, m. – buymayti-  
 ruvchi muskul  
*coxa*, ae, f. (os) – chanoq suyagi  
*cortex*, icis, m. – po'stloq

*corticalis*, e – po'stloqqa oid  
*costa*, ae, f – qovurg'a  
*costalis*, e – qovurg'aga oid  
*cranium*, i, n – kalla suyagi  
*crassus*, a, um – yo'g'on;  
 intestinum crassum (sm. colon)  
*srataegus*, i, f – do'lana  
*credo*, didi, itum, ere, III –  
 ishonmoq  
*cresco*, crevi, cretum, ere, III –  
 o'smoq  
*crista*, ae, f. – qirra  
*criticus*, a, um – keskin, kritik  
*periodus critica morbi* – kasallik-  
 ning keskin (kritik) davri  
*crus*, cruris, n – oyoqcha, boldir  
*cubitus*, i, m. – tirsak  
*cum* (c Abl.) – bilan  
*cum* – qachon bo'lsa  
*cuprum*, i, n. – mis  
*curo*, avi, atum, are, I – davola-  
 moq  
*curriculum*, i, n. – yo'l  
*curvatura*, ae, f. – egrilik, burilma  
*cutaneus*, a, um – teriga tegishli  
*cutis*, is, f. – teri  
*cyanatus*, a, um – sianidga oid  
*cyanidum*, i, n. – sianid; *hydrargyri*  
*cyanidum* – simob sianid  
*cystis*, is, f. – pufak

## D d

*digitalis*, is, f. – angishvonagul  
*digitus*, i, m. – barmoq  
*dignoso*, gnovi, gnotum, ere, III –  
 aniqlamoq  
*diluo*, dilui, dilutum, ere, III –  
 eritmoq  
*dilutus*, a, um – eritilgan  
*dimidium*, ii, n. – yarim  
*dionitum*, i, n. – dionin  
*disciplina*, ae, f. – ta'limot, fan  
*disco*, dici, ere, III – o'qimoq

**diu** — uzoq  
**diuretinum**, i, n. — diuretin  
**diversus**, a, um — turli, xilmashil, o'xshamagan  
**divido**, visi, visum, ere, III — bo'lmoq  
**divisio**, onis, f. — bo'lish  
**do, dedi, datum, dare**, I — bermoq  
**doceo**, cui, ctum, ere, II — o'qimoq  
**doctrina**, ae, f. — o'qish, fan  
**doctus**, a, um — ilmli, olim  
**dolor**, oris, m. — og'riq  
**domesticus**, a, um — uyga o'rgatilgan, xonaki  
**dormio**, ivi, itum, ire, IV — uxlamoq  
**dorsum**, i, n. — orqa  
**dosis**, is, f. — miqdor; *pro dosi* — bir marta ichilsin  
**da (dentur) tales doses** — shuncha doza ichilsin  
**ducenti**, ae, a — ikki yuz  
**duco**, duxi, ductum, ere, III — olib bormoq; *alvum ducere* — me'dani tozalamoq  
**ductus**, a, um — o'tkazilgan  
**dulcis**, e — shirin  
**dum** — hali, -ga, -gacha, qadar  
**duo**, duae, duo — ikki  
**duodecim** — o'n ikki  
**duodecimus**, a, um — o'n ikkinchi  
**duodenum**, i, n. — o'n ikki barmoq ichak  
**duplex**, icis — ikki qavatlari  
**durus**, a, um — qattiq  
**dyspnoyo**, es, f. — nafas qisishi, xalloslash

## E e

**e, ex** — -dan  
**ectomia**, ae, f. — olib tashlash  
**edo, edi, esum**, ere, III — yemoq, ovqatlanmoq  
**ego** — men

**eloquens, ntis** — sergap, gapga usta  
**emplastrum**, i, n. — malham  
**emulsum**, i, n. — emulsiya  
**epidermis**, idis, f. — teri ustki qavati  
**epigastrium**, ii, n. — qorin usti sohasi  
**epistropheus**, i, m. — «aylana-digan», ikkinchi bo'yin umurtqasi  
**ergotinum**, i, n. — ergotin  
**et** — va  
**ethmoidalis**, e — g'alvirsimon  
**etiam** — shuningdek, hatto  
**euchininum**, i, n. — euxinin  
**exacte** — puxta, sinchiklab  
**exanthematicus**, a, um — toshma  
**exceptio, onis, f.** — istisno, mustasno  
**exemplar, aris, n.** — namuna  
**exemplum, i, n.** — namuna  
**exitus, us, m.** — oxir, natija, oqibat  
**exitus letalis** — o'lim bilan tugash  
**expers, ertis** — ega bo'lmaslik  
**exploro, avi, atum, are, I** — tekshirib chiqmoq, kuzatmoq  
**exspiro, avi, atum, are, I** — nafas chiqarmoq  
**extensor, oris, m.** — to'g'rillovchi, yozuvchi (muskul)  
**externus, a, um** — tashqi, sirtqi  
**extractio, onis, f.** — sug'urib tashlash  
**extractum, i, n.** — ekstrakt  
**extraho, traxi, tractum, ere, III** — sug'urib olmoq  
**extremitas, atis, f.** — oxiri, qo'l-oyoq  
**exulceratus, a, um** — yaralangan

## F f

**fabula, ae, f.** — masal  
**facialis, e** — betga (yuzga) tegishli  
**facies, ei, f.** — yuza, satr  
**facilis, e** — oson (yengil)  
**factum, i, n.** — ish

**facio**, feci, factum, ere, III –  
 ishlab chiqarmoq  
**farfara**, ae, f. – kuka (dorivor  
 o'simlik)  
**fascia**, ae, f. – muskullarni o'rovchi  
 yupqa parda  
**febris**, is, f. – isitma  
**fel**, fellis, n. – o't  
**felleus**, a, um – o'tga oid  
**femininus**, a, um – ayolga oid  
**semur**, oris, n. – son suyagi  
**fermentum**, i, n. – ferment  
**ferrum**, i, n. – temir  
**festino**, avi, atum, are, I –  
 shoshilmoq  
**fibra**, ae, f. – tola  
**fibrosus**, a, um – tolali  
**fibula**, ae, f. – kichik boldir suyagi  
**figura**, ae, f. – tashqi ko'rinish  
**filix**, icis, m. – qirqulloq  
**filtro**, avi, atum, are, I – suzmoq  
**finio**, ivi, itum, ire, IV – tamom-  
 lamoq  
**finis**, is, m. – tamom  
**fio**, factus, sum, fieri – hosil  
 bo'lmoq  
**firimo**, avi, atum, are, I – mah-  
 kamlamoq, mustahkamlamoq  
**firmus**, a, um – mahkam  
**fissura**, ae, f. – yoriq, darz  
**flavus**, a, um – sariq  
**flexio**, onis, f. – bukish  
**flexor**, oris, m. – bukuvchi (muskul)  
**floreo**, florui, ere, III – gullamoq  
**flos**, floris, m. – gul  
**fluctuans**, ntis – tebranuvchan,  
 tebranayotgan, ikkilanuvchan  
**fluidus**, a, um – suyuq  
**foeniculum**, i, n. – shivit  
**folium**, ii, n. – barg, yaproq  
**fons**, fontis, m. – chashma,  
 manba, buloq  
**foramen**, inis, n. – teshik, yoriq  
**forma**, ae, f. – shakl, tashqi qiyofa  
**formo**, avi, atum, are, I – shakliga  
 keltirmoq, tayyorlanmoq  
**formosus**, a, um – chiroyli  
**fortis**, e – jasur  
**fossa**, ae, f. – chuqurlik, chuqur  
**fortuna**, ae, f. – taqdir  
**fractura**, ae, f. – sinish  
**frangula**, ae, f. – itjumrut  
**frenulum**, i, n. – yugancha  
**frictio**, onis, f. – surtish  
**frigidus**, a, um – sovuq  
**frons**, frontis, f. – peshona,  
 manglay  
**frontalis**, e – peshonaga, mang-  
 layga tegishli  
**fructuosus**, a, um – serhosil,  
 samarali, sermahsul  
**fructus**, us, m. – meva  
**fulcio**, isi, itum, ire, IV – tiramoq  
**functio**, onis, f. – vazifa  
**fundamentum**, i, n. – fundament –  
 asos  
**funiculus**, i, m. – chilvir, tizimcha  
**fundus**, i, m. – tub  
**fucus**, a, um – qoramtil

## G g

**galenus**, i, m. – Galen – Rim  
 vrachi, tabiatshunos (m. a. 130–  
 200 yy.).  
**gaster**, tris, f. – me'da, oshqozon  
**gastricus**, a, um – me'daga. oid;  
*succus gastricus* – me'da shirasi  
**gastritis**, itidis, f. – me'da shilliq  
 qavatining yallig'lanishi  
**gaudeo**, gavisus sum, gaudere, II –  
 shodlanmoq  
**gelatinosus**, a, um – jelatin  
**gemma**, ae, f. – kurtak  
**genero**, avi, atum, are, I – tug'moq,  
 vujudga keltirmoq  
**genu**, us, n. – tizza, bukma  
**genus**, eris, n. – nasl – jins

**gingiva**, ae, f. — milk (tish milki)  
**glaber**, bra, brum — taqir  
**glacialis**, e — muzli  
**glandula**, ae, f. — bez  
**gloria**, ae, f. — shuhrat  
**glucosum**, i, n. — uzum shirasi  
**glycerinum**, i, n. — glitserin  
**glycyrrhiza**, ae, f. — chuchukmiya,  
qizilmiya, shirinmiya  
**gramma**, atis, n. — gramm  
**gravis**, e — og'ir  
**grossus**, a, um — yirik  
**gustus**, us, m. — maza, ta'm  
**gutta**, ae, f — tomchi

## H h

**habeo**, bui, bitum, ere, II — ega  
bo'lmoq, tutmoq  
**haemostaticus**, a, um — qon  
to'xtatadigan (dori)  
**haereo**, haesi, haesum, ere, III —  
mahkam yopishmoq  
**halex** (halux), icis, m. — oyoqning  
bosh barmog'i  
**harminum**, i, n. — garmin  
**helianthus**, i, m. — kungaboqar  
**hepar**, atis, n. — jigar  
**herba**, ae, f. — o't  
**hiatus**, us, m. — yoriq, teshik  
**his**, haec, hoc — bu, shu  
**Hippocrates**, is, m. — Gippokrat,  
mashhur yunon vrachi, qadimgi  
dunyo ilmiy meditsina fani asos-  
chisi (m. a. V asr)  
**homo**, inis, m. — odam, kishi  
**honor**, oris, m. — shon, sharaf  
**hora**, ae, f. — soat  
**horizontalis**, e — gorizontal  
**humanus**, a, um — odam, odamiy,  
insoniy  
**humerus**, i, m. — yelka  
**humor**, oris, m. — suyuqlik, nam  
**hydrargyrum**, i, n. — simob

**hydrogenium**, ii, n. — vodorod  
**hyoscyamus**, i, n. — mingdevona  
**hyper** — o'ta, ortiq  
**hypertonia**, ae, f. — qon bosimining  
ko'tarilishi  
**hypnoticus**, a, um — gipnozga oid  
**hypo** — tagida, ostida degan ma'-  
noni ifodalovchi old qo'shimcha  
**hypogastrium**, ii, n. — qorin osti  
sohasi

## I i

**iaceo**, cui, citum, ere, II — joy-  
lashmoq  
**ibi** — u yerda  
**ichthyolum**, i, n. — ixtiol  
**iecur**, oris, n. — jigar  
**igitur** — demak  
**ignis**, is, m. — olov  
**ille**, illa, illud — u, anovi  
**immobilis**, e — harakatsiz  
**impedio**, ivi, itum, ire, IV —  
buyurmoq  
**impero**, avi, atum, are, I —  
hokimlik qilmoq  
**impleo**, evi, etum, ere, II —  
to'ldirmoq  
**in (Acc. Abl.)** — -ga, -da; *in vitro*  
**nigro** — qora shisha idishda  
**incisio**, onis, f. — kesish  
**incisivus**, a, um — kesuvchi  
**incisura**, ae, f. — kesma  
**incognitus**, a, um — noma'lum  
**incomplectus**, a, um — to'lmagan  
**incubatio**, onis, f. — kasallikning  
yuqqan kunidan to birinchi  
alomatlari paydo bo'lguniga qadar  
o'tadigan yashirin davr  
**infans**, ntis, m,f — bola  
**infectio**, onis, f. — kasallikning  
yuqishi, yuqtiruvchi manba  
**inferior**, ius — pastki  
**inflammatio**, onis, f. — yallig'lanish  
**infra** (c Acc.) — ost, ostki

## J j

**infraorbitalis**, e – ko'z osti  
**infusum**, i, n. – damlama  
**ingrediens**, ntis – kiruvchi (-ga)  
**inhalatio**, onis, f. – ingalatsiya,  
nafas olidirib davolash  
**injectio**, onis, f. – tomirga, teri  
ostiga dori yuborish (ukol qilish)  
**initium**, ii, n. – boshlanish  
**insanabilis**, e – davosiz  
**insolubilis**, e – erimaydigan  
**insectum**, i, n. – hasharot  
**inspiro**, avi, atum, are, i – nafas  
olmoq  
**instar** – o'xhash  
**instrumentum**, i, n. – asbob  
**intellego**, lexi, lectum, ere, III –  
fikr yuritmoq  
**inter** (Acc.) – ora, oraliq  
**interdum** – ba'zan  
**internus**, a, um – ichki  
**interosseus**, a, um – suyak orasi  
**intestinum**, i, n. – ichak  
**duodenum**, i, n – o'n ikki barmoqli  
ichak; *crassum duodenum* – yo'g'on  
ichak; *caecum duodenum* – ko'r  
ichak; *rectum duodenum* – to'g'ri  
ichak  
**tenue** – ingichka ichak  
**ieiunum** – achchiq (och) ichak  
**intimus**, a, um – ichki qatlami,  
eng ichkarigi  
**intra** (c Acc.) – ichidagi degan ma'-  
noni bildiruvchi old qo'shimcha  
**intracutaneus**, a, um – teri ichiga  
oid  
**intro**, avi, atum, are, I – kirmoq  
**invalidus**, a, um – kuchsiz, dar-  
monsiz  
**inversus**, a, um – ag'darilgan  
**iodidum**, i, n. – yodid  
**iodoformium**, ii, n. – yodoform  
**iodum**, i, n. – yod  
**isotonicus**, a, um – teng bosimli

**jungo**, nxi, nctum, ere, III –  
birlashtirmoq, qo'shmoq  
**juventus**, utis, f. – yoshlik  
**juvo**, juvi, jutum, juvare, I –  
yordam bermoq, yengillashtirmoq

## K k

**kalium**, ii, n. – arabcha kaliy.

## L l

**labium**, ii, n – lab  
**labor**, oris, m. – ish, mehnat  
**laboro**, avi, atum, are, I –  
ishlamoq  
**ac**, lactis, n. – sut  
**lacer**, era, erum – yirtiq, yirtilgan  
**lacrimalis**, e – ko'z yoshiga tegishli  
**laesus**, a, um – zararlangan,  
yaralangan  
**lamella**, ae, f. – pilakcha  
**lana**, ae, f. – yung  
**lanolinum**, i, n. – lanolin  
**lapis**, idis, m. – tosh  
**lapsus**, us, m. – yiqilish; *lapsus*  
*linguae* – so'zda adashish  
**largus**, a, um – sahiy  
**laryngitis**, itidis, f. – hikildoqning  
yallig'lanishi  
**lateralis**, e – yondagi  
**latinus**, a, um – lotincha  
**latus**, eris, n. – yon, tomon  
**latus**, a, um – keng, serbar  
**laudo**, avi, atum, are, I –  
maqtamoq  
**lavo**, avi, atum, are, I – yuvmoq  
**lago**, legi, lectum, ere, III –  
o'qimoq  
**lente** – sekin  
**leo**, leonis, m. – sher  
**lepus**, oris, m. – quyon

**letalis**, e — o'ldiradigan  
**levator**, oris, m. — ko'taruvchi  
**lex**, legis, f. — qonun  
**libenter** — jon deb  
**liber**, bri, m. — kitob  
**lien**, lienis, m. — taloq  
**ligamentum**, i, n. — boylam,  
 bog'ich  
**limpidus**, a, um — tiniq  
**linea**, ae, f. — chiziq  
**lingua**, ae, f. — til  
**lingualis**, e — tilga tegishli  
**linimentum**, i, n. — suyuq maz  
**linum**, i, n. — zig'ir  
**liquidus**, a, um — suyuq  
**liquiritia**, ae, f. — chuchukmiya,  
 qizilmiya, shirinmiya  
**liquor**, oris, m. — suyuqlik  
**littera**, ae, f. — harf  
**litterae**, arum, (plur.), f. — yozuv,  
 fanlar  
**lobus**, i, m. — bo'lak  
**locatus**, a, um — o'rinalashgan,  
 joylashgan  
**locus**, i, m. — joy  
**longitudinalis**, e — uzunasiga  
**longus**, a, um — uzun  
**lumbalis**, e — belga oid  
**lupus**, i, m. — bo'ri  
**luxatio**, onis, f. — chiqish  
**lymphaticus**, a, um — limfaga oid

## M m

**maceratio**, onis, f. — bukish  
**macula**, ae, f. — dog'  
**maximus**, a, um — eng katta  
**magis** — kattaroq  
**magister**, tri, m. — o'qituvchi  
**magnesium**, ii, n. — magniy  
**magnitudo**, inis, f. — hajm  
**malignus**, a, um — yomon sifatli  
**magnus**, a, um — katta

**maialis**, e — may  
**malus**, a, um — yomon  
**mamma**, ae, f. — ayol ko'kragi,  
 ko'krak bezi  
**mandibula**, ae, f. — pastki jag'  
**malum**, i, n. — yovuzlik  
**maneo**, mansi, nsum, ere, II —  
 qolmoq  
**manubrium**, ii, n. — dasta  
**manus**, us, f. — qo'l, kaft  
**mare**, is, n. — dengiz  
**margo**, inis, m. — chet, chegara,  
 qirg'oq  
**mas**, maris, m. — erkak  
**masculinus**, a, um — erkakka oid  
**massa**, ae, f. — massa  
**mater**, matris, f. — ona (*pia mater* —  
 miyaning yumshoq pardasi; *dura  
mater* — miyaning qattiq pardasi)  
**materia**, ae, f. — modda  
**maxilla**, ae, f. — yuqori jag'  
**mays**, maydis (mais, maidis), f. —  
 makkajo'xori  
**meatus**, us, m. — yo'l, kanal  
**medeor**, mederi, II — davolamoq  
**medialis**, e — o'rtaga yaqin  
**medicamentum**, i, n. — dori  
**medicatrix**, icis — shifobahsh  
**medicatus**, a, um — davolashga oid  
**medicina**, ae, f. — tibbiyot, davo-  
 lash ilmi  
**medicus**, i, m. — doktor  
**medius**, a, um — o'rtadagi  
**medulla**, ae, f. — miya  
**medulla ossium** — iliq suyak miyasi  
 (ko'migi)  
**membrana**, ae, f. — parda  
**membranaceus**, a, um — pardali  
**membrum**, i, n. — bo'lak, a'zo  
**mens**, mentis, f. — aql, ruhi  
**mensalis**, e — ovqatga oid  
**mensis**, is, m. — oy  
**mentha**, ae, f. — yalpiz

- mentha piperita** – qalampir yalpiz  
**mentholum**, i, n. – mentol  
**mesogastrum**, ii, n. – qorinning  
 o'rtta qismi  
**metacarpalis**, e – kaft suyagiga oid  
**metacarpus**, i, m. – qo'l kafti  
**metallum**, i, n. – metall  
**methodus**, i, f. – usul  
**microorganismus**, i, m. – mikroorganizm  
**minimus**, a, um – juda kichik  
**mineralis**, e – mineral  
**minor**, minus – kichikroq  
**misceo**, scui, xtum, ere, II – aralashtrimoq  
**mixtio**, onis, f. – aralashtrish  
**mixtura**, ae, f. – aralashma  
**mobilis**, e – harakatchan  
**modus**, i, m. – usul  
**molaris**, ei (dens) – oziq tish  
**mollis**, e – yumshoq  
**morbus**, i, m. – kasallik  
**morphinum**, i, n. – morfin  
**mors**, mortis, f. – o'lim  
**mortifer**, era, erum – o'ldiradigan  
**mortuus**, a, um – o'lgan  
**mos**, moris, m. – urf, odat  
**moveo**, movi, motum, ere, II –  
 qo'zg'atmoq, harakatlantrimoq  
**mucilago**, inis, f. – shilliq  
**multo** – ancha, ko'p  
**multus**, a, um – ko'p  
**munio**, ivi, itum, ire, IV – himoya  
 qilmoq, mustahkamlamoq  
**muriaticus** sm. **hydrochloricus**  
 musca, ae, f. – pashsha  
**musculosus**, a, um – sermuskul  
**musculus**, i, m. – muskul  
**muto**, avi, atum, are, I –  
 o'zgartrimoq  
**myocardium**, ii, n. – yurak muskul  
**myologia**, ae, f. – muskullar  
 haqidagi fan
- N n**  
**naphthalanum**, i, n. – naftalan  
**narcosus**, is, of. – narkoz – uxletib  
 qo'yish  
**narjis**, is, f. – burun teshigi  
**narro**, avi, atum, are, I – aytmoq,  
 hikoya qilmoq  
**nasalis**, e – burunga oid  
**nascor**, natus şum, nasci – tug'il-  
 moq, paydo bo'lmoq  
**natrium**, ii, n. – patriy  
**natura**, ae, f. – tabiat  
**naturalis**, e – tabiiy  
**nasus**, i, m. – burun  
**necessarius**, a, um – zaruriy  
 ne – ma, emas;  
**neco**, avi, atum, are, I – yo'qot-  
 moq, o'ldirmoq  
**nervosus**, a, um – nervga oid,  
 asabiy  
**nervus**, i, m. – nerv  
**neuter**, tra, trum – o'rtacha  
**nicotinicus**, a, um – nikotin  
**niger**, gra, grum – qora  
**nihil** – hech narsa  
**nitens**, ntis – yaltiroq  
**niteo**, tui, ere, II – yaltiramodq  
**nitras**, atis, m – nitrat  
**nitrogenium**, ii, n. – azot  
**nocens**, entis – zarar yetkazadigan  
**nocea**, cui, citum, ere, II – zarar  
 yetkazmoq;  
**noli**, nocere – zarar yetkazma  
**nolens**, ntis – istamaydigani  
**nomen**, inis, n. – nom, ismi  
**nomino**, avi, atum, are, I – atampq  
**non** – emas, -ma  
**nonnulus**, a, um – birmuncha  
**nos** – biz  
**normalis**, e – normal  
**noster**, nostra, nostrum – bizning  
**nota**, ae, f. – belgi  
**novus**, a, um – yangi

**nucha**, ae, f. — *enisa*  
**nullus**, a, um — *hech qanday*  
**numerus**, i, m. — *son*  
**numc** — *endi*  
**nutrio**, ivi, itum, ite, IV — *oziqlantirmoq*  
**nutritius**, a, um — *oziqlantiruvchi*  
**nux**, nucis, f. — *yong'oq*

## O o

**obduco**, duxi, ductum, ere, III —  
*o'rab olmoq*  
**oblata**, ae, f. — *oblatka*  
**obliquus**, a, um — *qiya, qiyshiq*  
**observo**, avi, atum, are, I —  
*tomosha qilmoq, kuzatmoq*  
**obtineo**, tinui, tentum, ere, II —  
*ega bo'lmoq, mustahkam tutmoq*  
**obturatus**, a, um — *berk*  
**occipitalis**, e — *ensaga oid*  
**octavus**, a, um — *sakkizinchı*  
**octo** — *sakkiz*  
**oculus**, i, m. — *ko'z*  
**oesophagus**, i, m. — *qizilo'ngach*  
**officina**, ae, f. — *dorixona*  
**oleum**, i, n. — *moy*  
**oleum jecoris (Aselli)** — *baliq moyi*  
**oleum Ricini** — *kanakunjut moyi*  
**olla**, ae, f. — *banka*  
**olfactus**, us, m. — *hidlov*  
**omnis**, e — *hamma, har bir*  
**operatio**, onis, f. — *harakat, ish*  
**ophthalmicus**, a, um — *ko'zga oid*  
**opium**, ii, n. — *afyun*  
**oportet**, tuit, ere, II — *kerak*  
**opticuS**, a, um — *ko'rishga oid*  
**optimus**, a, um — *juda yaxshi*  
**opus**, operis, n. — *ish, hosil*  
**orbita**, ae, f. — *ko'z kosasi*  
**orbitalis**, e — *ko'z kosasiga oid*  
**organismus**, i, m. — *organizm*  
**organon (um)**, i, n. — *a'zo (organ)*

**orno**, avi, atum, are, I — *bezamoq*  
**os, oris**, n. — *og'iz*  
**os, ossis**, n. — *suyak*  
**osseus**, a, um — *suyakka oid*  
**otium**, ii, n. — *dam olish*  
**ovis, ovis**, f. — *qo'y*  
**ovum**, i, n. — *tuxum*  
**oxydatus**, a, um — *oksidlangan*  
**oxygenium**, ii, n. — *kislород*

## P p

**palpatio**, onis, f. — *paypaslab ko'rish*  
**palpebra**, ae, f. — *qovoq*  
**pantocrinum**, i, n. — *pantokrin*  
**panniculus**, i, m. — *qavat, qatlam*  
**panniculus adiposus** — *teri ostidagi yog qavati*  
**papaver**, eris, n. — *ko'knor*  
**papilla**, ae, f. — *so'rg'ich*  
**par, paris** — *bir xil, teng, just*  
**par, paris**, n. — *just*  
**parathyreoidinum**, i, n. — *para-*  
*tireoidin*  
**pararus**, a, um — *tayyorlangan*  
**parietalis**, e — *devorga tarqalgan*  
*qism, boshning tepe suyagiga oid*  
**paro**, avi, atum, are, I — *tayyor-*  
*lamoq*  
**parotitis**, itidis, f. — *quloq oldi*  
*bezinining yallig'lanishi*  
**pars**, partis, f. — *qism*  
**partus**, us, m. — *tug'ish*  
**parvus**, a, um — *kichik*  
**pater, patris**, m. — *ota*  
**patria**, ae, f. — *vatan*  
**pax, pacis**, f. — *tinchlik*  
**pectoralis**, e — *ko'krakka oid*  
**pectus, oris**, n. — *ko'krak*  
**pelvis, is**, f. — *chanoq*  
**penicillinum**, i, n. — *penitillin*  
**pepsinum**, i, n. — *pepsin*  
**per (c Acc.)** — *orqali, ustidan*

**per os** — og'iz orqali  
**perforo**, avi, atum, are, I — teshmoq, sanchib olish  
**perforatus**, a, um — teshilgan  
**periculosis**, a, um — xavf, xatarli  
**periodontitis**, itidis, f. — tish  
 ildizlari pardasining yallig'lanishi  
**periodus**, i, f. — davr  
 periodus critica — keskin kritik davr  
**periosteum**, i, n. — suyak usti  
 pardasi  
**periploca**, ae, f. — chirmovuqgul  
**peroxydatus**, a, um — peroksidlangan  
**perpetuus**, a, um — adabiy, uzuksiz  
**persicum**, i, n. — shaftoli  
**pes**, pedis, m. — oyoq  
**pessimus**, a, um — juda yomon  
**pharynx**, yngis, m. — halqum  
**pilula**, ae. f. — hab dori  
**pilus**, i, m. — soch  
**piper**, eris, n. — murch, qalampir  
**piperitus**, a, um — qalampirli  
**piscis**, is, m. — baliq  
**pituitrinum**, i, n. — pituitrin  
**pix**, picis, f. — qatron  
**pix liquida** — qoramoy  
**planta**, ae, f. — o'simlik  
**planus**, a, um — tekis, silliq, yassi  
**plene** — to'la  
**plumbum**, i, n. — qo'rg'oshin  
**plumbi acetas** — qo'rg'oshin asetat  
**pluralis**, e — ko'plik  
**pneumonia**, ae, f. — o'pkaning  
 yallig'linishi, zotiljam  
**pollex**, pollicis, m. — qo'lning bosh  
 barmog'i  
**pomatus**, a, um — olma  
**pono**, posui, situm, ere, III —  
 (qo'ymoq) tutmoq  
**porselanicus**, a, um — chinni  
**porto**, avi, atum, are, I — olib  
 bormoq  
**possum**, potui, posse — olmoq  
 potest — oladi  
**post** (c Acc.) — keyin, orqadagi,  
 keyingi  
**posterior**, ius — orqadagi, ortki  
**potens**, ntis — qudratli, kuchli  
**potentia**, ae, f. — qudrat, kuch  
**potius** — tezda, yaxshiroq  
**praecipitatus**, a, um — cho'ktirilgan  
**praecipue** — xususan, ayniqsa  
**praemolaris**, e (dens) — kichik oziq  
 tish  
**praeparatio**, onis, f. — tayyorlash  
**praeparatum**, i, n. — preparat  
**praeparo**, avi, atum, are, I —  
 tayyorlamоq  
**praescribo**, scripsi, scriptum,  
 ere, III — yozib bermoq  
**primus**, a, um — birinchi  
**principium**, ii, n. — boshlanish  
**pro** (c Abl.) — uchun, -ga  
**processus**, us, m. — o'siq, o'simta  
**prodest** — foydali  
**profundus**, a, um — chuqur  
**prognosis**, is, f. — oldindan aytil  
 berish  
**progressivus**, a, um — progressiv  
**prolapsus**, us, m. — tushishi  
**prominens**, ntis — chiqib turuvchi  
**proprior**, ius — juda yaqinroq  
**proprius**, a, um — asli, xususiy  
**pruritus**, us, m. — qichish  
**publicus**, a, um — ijtimoiy  
**puer**, pueri, m. — o'g'il bola, chaqaloq  
**pugno**, avi, atum, are, I — urishmoq  
**pulcher**, chra, chrum — chiroyli,  
 go'zal  
**pulmo**, onis, m. — o'pka  
**punctum**, i, n. — nuqta  
**pulpa**, ae, f. — yumshoq modda  
**pulso**, avi, atum, are, I — tepmoq  
**pulsus**, us, m. — qon tomir urishi,  
 puls  
**pulvis**, eris, m. — poroshok  
**purus**, a, um — toza

## Q q

quadraginta — qirq  
 quadriceps, i pitis — to'rt boshili  
 quaero, sivi, situm, eré, III —  
 ehtriyoj sezmoq, ahtarmoq  
 quantum satis — qancha kerak bo'lsa  
 quartus, a, um — to'rtinchchi  
 quattuor — to'rt  
 quercus, us, f. — eman  
 quies, etis, f. — tinchlik, orom  
 quindecim — o'n besh  
 quini, ae, a — beshtadan  
 quinque — beshi  
 quintus, a, um — beshinchchi

## R r

rabies, ei, f. — quturish (kasallik),  
 g'azab  
 radialis, e — bilak suyagiga oid  
 radiatus, a, um — nusrimon  
 (bilakka xos)  
 radius, ii, n. — bilak suyagi  
 radix, icis, f. — ildiz  
 ratmosus, a, um — sertarmoq  
 ramus, i, m. — shox, tarmoq  
 ramulus, i, m. — shoxcha  
 rarus, a, um — siyrak  
 rasus, a, um — qirib tozalangan  
 racens, ntis — yangi  
 recenter — yangi  
 recipio, recepi, ceptum, ere, III —  
 qaytarib olmoq, olmoq  
 rectificatus, a, um — tozalangan  
 rectum (intestinum), i, n. — to'g'ri  
 ichak  
 rectus, a, um — to'g'ri  
 redditus, us, m. — qaytalaniš  
 reduco, duxi, ductum, ere, III —  
 orqaga qaytmoq  
 refrigerero, avi, atum, are, I —  
 sovitmoq  
 regio, onis, f. — soha

remedium, ii, n. — dori, dori-darmon  
 ren, renis, m. — buyrak  
 renalis, e — buyrakka oid  
 reperio, reperi, repertum, ire, IV —  
 topmoq  
 repetitio, onis, f. — takrorlash  
 repeto, tivi, titum, ere, III —  
 takrorlamoq  
 res, rei, f. — narsa, ish'  
 risus, us, m. — kulgi  
 resistentia, ae, f. — qarshilik  
 respiro, avi, atum, are, I — nafas  
 chiqarmoq  
 rete, is, n. — to'r  
 rheum, i, n. — ravoch  
 rhizoma, atis, n. — ildizpoya  
 ricinus, i, m. — kanakunjut  
 robur, oris, h. — kuch  
 Roma, ae, f. — Rim  
 ruber, bra, brum — qizil  
 rubor, oris, m. — qizarish

## S s

saccharum, i, n. — qand  
 saccus, i, m. — xalta  
 saccuso lacrimalis — ko'z yoshi  
 xaltachasi  
 saepe — tez-tez  
 sal, salis, m., n. — tuz  
 salicylas, atis, m. — salitsilat  
 saluber, bris, bre — shifobahsh  
 salus, utis, f. — sog'liq, omonlik  
 salveo, -, -, ere, II — sog'-salomat  
 yashamoq  
 sanans, ntis — sog'aytiradigan  
 sanguifer, era, erum — qon-eltuvchi  
 sanguis, inis, m. — qon  
 sanies, ei, f. — qonli yiring  
 sanitas, atis, f. — sog'liq  
 sano, avi, atum, are, I — davolamoq  
 sanus, a, um — sog'

- sapiens**, entis – dono, donishmand  
**sapo**, onis, m. – sovun  
**sapor**, oris, m. – maza, ta'm  
**satis** – ancha, hetarli  
**scabies**, ei, f. – qo'tir  
**scapula**, ae, f. – kurak  
**scatula**, ae, f. – quticha  
**sceleton** (um), i, n. – skelet  
**schola**, ae, f. – maktab  
**scientia**, ae, f. – bilim  
**scribo**, psi, ptum, ere, III –  
 yozmoq  
**secale**, is, n. – javdar  
**secale cornutum** – javdar qoramig'i  
**secerno**, crevi, cretum, ere, III –  
 chiqarmoq, ajratmoq  
**secundus**, a, um – ikkinchi  
**sed** – lekin, ammo, biroq  
**sedativus**, a, um – tinchlanti-  
 radigan  
**seiungo**, iunxi, iunctum, ere, III –  
 ajratmoq  
**semel** – bir marta  
**semen**, inis, n. – urug'  
**semi** – yarim  
**semilunaris**, e – o'roqsimon,  
 yarimoysimon  
**semper** – hamisha  
**Seneca**, ae, m. – Seneka –  
 mashhur rim yozuvchisi va olimi  
 (m. a. I asr)  
**senilis**, e – qarilikka oid  
**sensus**, us, m. – sezgi  
**sentio**, sensi, sensum, ire, IV –  
 sezmoq  
**septem** – yetti  
**septum**, i, n. – to'siq, devorcha  
**series**, ei, f. – qator  
**sero** – kech  
**serotinus**, a, um – kechki; *dens*  
 serotinus – aql tish  
**serus**, a, um – kech, davomli  
**servo**, avi, atum, are, I – saqlamoq  
**servio**, ivi, itum, ire, IV – xizmat  
 qilmoq
- seu** – yoki  
**sex** – olti  
**sexagesimus**, a, um – oltmishinchi  
**sexaginta** – oltmish  
**si** – agar  
**sicco**, avi, atum, are, I – quritmoq  
**siccus**, a, um – quruq  
**sigillum**, i, n. – kalit  
**signo**, avi, atum, are, I –  
 belgilamoq  
**signatura**, ae, f. – belgi  
**signum**, i, n. – belgi  
**silvester**, tris, tre – o'rmon  
**simplex**, icis – oddiy  
**sine** (c Abl.) – siz  
**singularis**, e – birdan-bir, yagona  
**sinister**, tra, trum – so'l, chap  
**sinuatus**, a, um – bukilgan  
**sinus**, us, m. – bo'shliq, chuqurlik  
**sirupus**, i, m. – sharbat  
**sive** – q. **seu**  
**solanum**, i, n. – ituzum  
**solidus**, a, um – zich, mahkam,  
 pishiq  
**solubilis**, e – eritilgan  
**solutio**, onis, f. – eritma  
**solvo**, solvi, lutum, ere, III –  
 eritmoq  
**somnifer**, era, erum – uxlatadigan  
 dori  
**species**, ei, f. – yig'ma  
**spermaticus**, a, um – urug'lik  
**spero**, avi, atum, are, I – umid  
 qilmoq  
**sphenoidalis**, e – ponasimon  
**spina**, ae, f. – qirra  
**spinalis**, e – orqa miyaga oid, o'tkir  
 qirrali  
**spinous**, a, um – qirrali  
**spiritus**, us, m. – ruh, spirit  
**spiritus vini** – vino spirti  
**spiro**, avi, atum, are, I – nafas  
 olmoq

- spissus**, a, um – quyuq  
**spongiosus**, a, um – g'ovakli  
**spurius**, a, um – soxta  
**squamosus**, a, um – tangachali  
**stadium**, ii, n. – davr, oraliq  
**stannum**, i, n. – qalay  
**statim** – darhol  
**status**, us, m. – ahvol, holat  
**sterilis**, e – sterilizatsiya qilingan  
**sterilisatus**, a, um – sterillangan  
**steriliso**, avi, atum, are, I –  
 sterillamoq  
**sternum**, i, n. – ko'krak, to'sh  
**stigma**, atis, n. – gulning onalik  
 ustunchasi; *stigmata maydis* –  
 makkajo'xori gulining onalik  
 ustunchasi  
**streptocidum**, i, n. – streptotsid  
**strophantus**, i, m. – strofant  
**structura**, ae, f. – tuzilish  
**strychninum**, i, n. – strixnin  
**studeo**, dui, –, ere, II – o'qimoq  
**studium**, ii, n. – o'qish  
**stultus**, a, um – tentak  
**sub** (Acc. va Abl.) – ostki  
**subcutaneus**, a, um – teri osti  
**sublevo**, avi, atum, are, I –  
 yengillashtirmoq  
**substantia**, ae, f. – modda  
**subtilis**, e – ingichka, mayda  
**succurro**, curri, cursum, ere, III –  
 istiqboliga chiqmoq, yordam  
 bermoq  
**succus**, i, m. – shira  
**sudor**, oris, m. – ter  
